



# KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

1 / 2022



ILMIY-AMALIY JURNAL



# TAHRIR HAY'ATI

## Q. ABDURASULOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori – bosh muharrir

## Y. KOLENKO

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi boshlig'i – bosh muharrir

## N. SALAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari

## K. HAKIMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori – mas'ul muharrir

## M. RUSTAMBAYEV

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

## A. OTAJONOV

Yuristlar malakasini oshirish markazi direktorining o'quv-uslubiy va ilmiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

## B. PULATOV

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

## F. RAXIMOV

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Prokurorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

## B. UMIRZAKOV

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kriminologiya kafedrası katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

## M. O'RAZALIYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

## I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

## M. KURBANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası dotsent v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

## V. DAVLYATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura kafedrası mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

## D. BAZAROVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

## A. BARATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Kriminalistika va huquqiy ekspertiza kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi

## G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

## D. SUYUNOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası professor v.b., yuridik fanlar doktori

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti



# MUNDARIJA

## 12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

### **Rustamboyev Mirzayusup Xakimovich**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA QIYNOQ TUSHUNCHASI VA UNING  
BELGILARI ..... 4

### **Niyozova Salomat Saparovna**

HUQUQBUZARLIKLARNING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASIGA OID MILLIY VA  
AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ..... 12

### **Hakimov Komil Baxtiyarovich**

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLARNING  
O'ZIGA XOS JIHATLARI ..... 22

### **Фазилов Фарход Маратович**

РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ НОРМ УГОЛОВНОГО КОДЕКСА, ПРЕДУСМАТРИВАЮЩИХ  
УГОЛОВНУЮ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ЛЕГАЛИЗАЦИЮ ПРЕСТУПНЫХ ДОХОДОВ:  
НАЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ АСПЕКТЫ ..... 28

### **Islomov Bunyod Ochilovich**

JINOYAT OBYEKTIV TOMONINING JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLARNI  
TASNIFLASHDAGI O'RNI ..... 37

### **Saloxova Sarvinoz Sadriddin qizi**

AYRIM XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIK TIZIMIDA VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN  
OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISHNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI ..... 54

### **Xojiyeva Ro'zigul Xudayberdiyevna**

KORRUPSIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI JINOYAT-HUQUQIY CHORALARNI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ..... 64

### **Турабаева Зиёда Якубовна**

ХАРАКТЕРИСТИКА И АНАЛИЗ РАЗЛИЧНЫХ ВИДОВ ОСВОБОЖДЕНИЙ ОТ УГОЛОВНОЙ  
ОТВЕТСТВЕННОСТИ И НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫХ К НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМ  
ВО ФРАНЦИИ И ГЕРМАНИИ ..... 73

### **Masharifov Sirojbek Bahodirovich**

JINOYAT HUQUQIDA XATO VA UNING KVALIFIKATSIYA QILISHDAGI  
O'RNI HAMDA AHAMIYATI ..... 85

UDC: 343.9(034.3) (575.1)

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA QIYNOQ TUSHUNCHASI VA UNING BELGILARI

**Rustamboyev Mirzayusup Xakimovich,**O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
boshlig'i, professor, yuridik fanlar doktori

ORCID: 0000-0003-4793-3249

e-mail: ula-50@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi qiynoq tushunchasi va uning belgilari borasida so'z yuritiladi. Muallif maqolada qiynoqqa solish, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi hisoblangan muomala hamda jazo turlarini qo'llashni taqiqlashni talab qiluvchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o'z ifodasini topganligini bayon etgan. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlari xalqaro hamjamiyat tomonidan g'ayriinsoniy va yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat sifatida tan olinishini ta'kidlab, mazkur tushuncha yuzasidan olimlarning fikrlarini o'rgangan. Bundan tashqari, muallif maqolada BMTning "Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiyasi", 1949-yil 12-avgustdagi "Harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to'g'risidagi Konvensiya", 1966-yil 19-dekabrda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" hamda 1995-yil 26-maydagi "Insonning asosiy huquq va erkinliklari to'g'risidagi MDH Konvensiya" sig'a ham to'xtalib o'tgan. Muallif maqolada qiynash tushunchasi va belgilari haqidagi olimlarning fikr va mulohazalarini tahlil etib, tushuncha bilan bog'liq masalalarni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bergan.

**Kalit so'zlari:** jinoyat, javobgarlik, jazo, qiynash, qiynoq, shafqatsiz, g'ayriinsoniy, qadr-qimmat, kamsituvchi muomala, sud.

## ПОНЯТИЕ И ПРИЗНАКИ ПЫТОК В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Рустамбаев Мирзаюсуп Хакимович,**доктор юридических наук, профессор, начальник  
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются понятие и признаки пыток в уголовном законодательстве Республики Узбекистан. Автор



констатирует, что в Конституции нашли отражение общепризнанные принципы и нормы международного права, запрещающие применение пыток, жестоких, бесчеловечных или унижающих достоинство видов обращения и наказания. Изучены взгляды ученых на это понятие, подчеркнуто, что пытки, другие жестокие, бесчеловечные или унижающие достоинство виды обращения и наказания признаны международным сообществом бесчеловечными и нетерпимыми. Кроме того, в статью включен анализ Конвенции ООН против пыток и других жестоких, бесчеловечных или унижающих достоинство видов обращения и наказания и Конвенции об обращении с военнопленными от 12 августа 1949 г., Гражданского и Международного пакта о политических правах, Конвенции о правах человека и основных свободах от 26 мая 1995 г. В статье автор анализирует взгляды и мнения ученых о понятии и признаках пыток и вносит предложения и рекомендации по совершенствованию вопросов, связанных с данным понятием.

**Ключевые слова:** преступление, ответственность, наказание, истязание, пытка, жестокое, бесчеловечное, унижающее достоинство, дискриминационное обращение, суд.

## TORTURE IN THE CRIMINAL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Rustambaev Mirzayusup Khakimovich,**

Head of the University of Public Security  
of the Republic of Uzbekistan, DSc, Professor

**Abstract.** This article discusses the concept and signs of torture in the criminal law of the Republic of Uzbekistan. The author states that the Constitution reflects the universally recognized principles and norms of international law, which prohibit the use of torture, cruel, inhuman or degrading treatment or punishment. The author of the article studied the views of scholars on this concept, emphasizing that torture, other cruel, inhuman or degrading treatment or punishment is recognized as inhuman and intolerable by the international community. In addition, the article includes the UN Convention against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment and the Convention on the Treatment of Prisoners of War of 12 August 1949, the Civil and The International Covenant on Political Rights also referred to the CIS Convention on Human Rights and Fundamental Freedoms of 26 May 1995. In the article, the author analyzes the views and opinions of scholars on the concept and symptoms of torture and makes suggestions and recommendations for improving issues related to the concept.

**Keywords:** crime, responsibility, punishment, torture, torture, cruel, inhuman, degrading, discriminatory treatment, court.

### Kirish

Har qanday davlat o'zining mavjudligini ta'minlash va mustahkamlash uchun o'z fuqarolarini muhofaza qilishi yo'lida tegishli choralarni ta'minlashi talab etiladi.

Fuqarolarini himoya qila olmagan davlat oxir-oqibatda barbod bo'lishi muqarrardir. O'zining xavfsizligini ta'minlagan davlatdan fuqarolar voz kechmaydi, aksincha, uni qo'llab-quvvatlaydi, shaxs va davlat o'rtasida mutanosiblik kelib chiqadi. Shaxsning xavfsizligini, uning daxlsizligini ta'minlashda davlat, avvalo, qonun bilan daxlsizlikni mustahkamlaydi, qonunning bajarilishini, unga rioya qilinishini ta'minlab beradi.

Shaxs daxlsizligi deyilganda uning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati, sha'ni, ijtimoiy va iqtisodiy huquq va manfaatlari tushuniladi.

Shaxsning sog'lig'i va jismoniy daxlsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining dolzarb vazifasidir. Davlat nafaqat o'z fuqarolarini, fuqarolari qatorida fuqaroligi bo'lmagan yoki xorijiy fuqarolarning ham daxlsizligini muhofaza qiladi. Bu har qanday davlatning o'zgarmas vazifasidir. Inson sog'lig'i va uning daxlsizligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, uning barcha imkoniyatlarini va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratish davlatning, uning huquqiy institutlarining, sud-tergov organlarining diqqat markazida bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: "Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas", deb mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning ushbu 26-moddasi 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasiga to'la mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13-moddasida davlat fuqarolarni ularning hayoti, sog'lig'i, shaxsiy erkinligi va xavfsizligiga bo'ladigan g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qiladi, deb belgilab qo'yilgan.

Fuqarolarning sog'lig'i yoki jismoniy daxlsizligi huquqning turli sohalari normalari orqali, uning o'ziga xos vositalari bilan, shu jumladan jinoyat qonuni tomonida fuqarolar sog'lig'iga turli xildagi tajovuzlarni sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan normalar orqali qonunga xilof harakatlardan muhofaza qiladi.

### **Material va metodlar**

Mavzu yuzasidan olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir.

Mazkur ilmiy maqolani tadqiq etishda umumilmiy uslublar: funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish kabi metodlardan foydalanilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston Respublikasida Jinoyat kodeksining 110-moddasiga ko'ra, muttasil ravishda do'pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Buning sharti sifatida ushbu Kodeksning 104-, 105-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlar kelib chiqmagan bo'lishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: "Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas", deb mustahkamlab qo'yilgan. JKning





110-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi ham ushbu Konstitutsiyaviy qonunning kafolati deyilsa, noto'g'ri bo'lmaydi.

Jumladan, Konstitutsiyada qiynoqqa solish, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi hisoblangan muomala hamda jazo turlarini qo'llashni taqiqlashni talab qiluvchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida amalga oshirilishiga zamin yaratadi. Qiynoqqa solish, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlari xalqaro hamjamiyat tomonidan g'ayriinsoniy va yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat sifatida tan olinadi. Amalda qiynoqqa solish, masalan, 1949-yil 12-avgustdagi "Harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to'g'risidagi Konvensiya", 1966-yil 19-dekabrda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt", 1995-yil 26-maydagi "Insonning asosiy huquq va erkinliklari to'g'risidagi MDH Konvensiyasi", 1984-yil 10-dekabrda "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya" va boshqa qator hujjatlarda taqiqlangan.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarini qo'llash jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat hisoblanadi. Qiynoqqa solish faktining o'zi xalqaro hamjamiyat tomonidan xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va normalarini buzuvchi og'ir huquqbuzarlik, insonga qarshi jinoyat sifatida tan olinadi (1998-yil 17-iyuldagi Xalqaro jinoyat sudining Rim Statuti, 7-modda, 1-qism, "a" bandi).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiya"da ham bunday g'ayriqonuniy harakatlarga yo'l qo'yilmasligi haqida ta'kidlab o'tilgan.

BMTning "Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni, tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiyasi"ga ko'ra "qiynoq" har qanday tusdagi shunday harakatni anglatadiki, u bilan qandaydir shaxsga og'riq yoki azob davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy ko'rinishdagi boshqa shaxs yoki ularning gijgijlashi bilan yoki ularning xabardorligida yoki indamay roziligi bilan har qanday tusdagi kamsitishga asoslangan har qanday sabab bo'yicha qasddan kuchli og'riq yoki jismoniy yoxud ma'naviy azob berilishi" tushuniladi.

Qiynash sifatida jabrlanuvchi shaxsga nisbatan qasddan yetkazilgan kuchli og'riq, jismoniy yoki ma'naviy azob berish tarzidagi har qanday harakat tushuniladi (1984-yil 10-dekabrda Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya, 1-modda, 1-qism (O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1995-yil 31-dekabrda qo'shilgan).

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Bunda shuni inobatga olish kerakki, "shafqatsiz, insoniylikka zid muomala va jazo"dan farqli holda, qiynoq anchagina kuchli va shafqatsiz azob berish bilan

tavsiflanadi. “Qiynoq” tushunchasi bilan “insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala” tushunchasi o’rtasidagi farq azob berish intensivligi har xilligida ifodalanadi [1, 84–85-b.]. Qiynoq shafqatsiz muomalaning nisbatan og’ir turi hisoblanadi. Bundan tashqari, qiynoq har doim qadr-qimmatni kamsituvchi muomala bo’lgan [2, 41-b.].

Qiynash tushunchasi esa Jinoyat qonunida sog’liqqa qarshi jinoyatlar qatoriga kiritilgan. Ammo ayrim olimlar bunday hisoblamaydilar. Masalan, P.B. Bakunovning fikricha, urish va boshqa jismoniy zo’rlik ishlatish harakatlari oqibatida kishi tanasida og’riq paydo bo’lsa-yu, lekin uning tanasining anatomik butunligi yoki organlardan birining fiziologik funksiyasi buzilmasa, badanga shikast yetkazish deb bo’lmaydi. Shuningdek, badanga shikast yetkazish moddiy tarkibli jinoyat bo’lganligi uchun jinoyat qonunida ko’rsatilgan muayyan oqibatlarning kelib chiqishini talab etadi [3, 5-b.].

Biroq, jinoyat huquqi nazariyasi ham, sud-tergov amaliyoti ham qiynashni badanga shikast yetkazish deb hisoblaydi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”gi qaroriga ko’ra, do’pposlash yoki qiynash xususiyatiga ega bo’lgan boshqa harakatlar qasddan, muttasil, ya’ni jabrlanuvchiga jismoniy yoki ruhiy azob berish maqsadida yagona qasd bilan qamrab olingan va kamida uch marta sodir etilgan bo’lishi lozim.

E’tibor berayotganingizdek, jinoyat qonuni ham, sud amaliyoti ham do’pposlashni qiynash harakati bilan bir ko’rinishda ifodalamoqda. Mazkur normada “qiynash” va “do’pposlash” tushunchalari muqobil harakat sifatida ishlatiladi. Bizningcha, do’pposlash alohida ijtimoiy xavfli qilmishdir. Do’pposlash deganda, aybdor tomonidan shaxsning badaniga shikast yetkazmagan holda bir necha zarba berish tushuniladi. “Qiynash – ko’p marotaba yoki uzoq vaqt davomida og’riq yetkazish bilan bog’liq harakatlar, chimchilash, savalash, to’mtiq yoki o’tkir uchli narsalar bilan ko’plab, ammo uncha katta bo’lmagan shikastlar yetkazish, qizdirilgan buyumlar bilan ta’sir ko’rsatish yoki boshqa shunga o’xshash harakatlardir”.

S.I. Ojegov “qiynash”ni juda qattiq azoblash (jismoniy yoki ruhiy azob berish) sifatida tushunadi [4, 26-b.]. Biz mazkur fikrga qo’shilmaymiz va “qiynash”, “qiynoqqa solish”, “azoblash”, “do’pposlash” tushunchalarini bir-biridan ajratish kerak, deb hisoblaymiz. Chunki, ushbu tushunchalar o’xshash jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, ularni bir-biridan ajratishda muhim rol o’ynaydi.

Bundan tashqari, R.D. Sharapov ham qiynashni, davomli, qoidaga ko’ra, kuch ishlatish bilan kuchli jismoniy azob berishda ifodalanuvchi inson terisiga bevosita ta’sir qilish (chimchalash, kesish, kuydirish, elektr energiyasi, o’tkir jismni tanaga tekkazish va boshqa harakatlar) ifodalanadi [5, 24–25-b.] deb hisoblaydi. P. Konstantinovning fikricha esa qiynash “badanga og’ir yoki o’rtacha og’ir shikast yetkazilishiga sabab bo’lmaydigan, uzluksiz ravishda urish yoki boshqacha zo’rlik harakatlari yoki harakatsizlik bilan jismoniy yoki ruhiy ta’sir qilishda ifodalanadi” [6, 16-b.].

I. Samolyuk esa jismoniy yoki ruhiy azob berish orqali jabrlanuvchining sog’lig’iga qasddan zarar yetkazishni qiynash [7, 21-b.] deb, ta’kidlaydi. Biz yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib, bu borada R.D. Sharapovning fikriga qo’shilamiz. Chunki, qiynash davomli,





kuch ishlatish bilan kuchli jismoniy azob berishda ifodalanuvchi inson terisiga bevosita ta'sir qilish harakatlarida ifodalanadi.

Tibbiyot nuqtayi nazaridan esa qiynash, jismoniy og'riq o'ta kuchli yoki yemiruvchi ta'sirlar natijasida paydo bo'ladigan, organizmda organik yoki funksional buzilishlarni keltirib chiqaradigan insonning o'ziga xos psixofiziologik holatidir [8, 294-b.]. G.N. Borzenkovning fikricha, tibbiyot nuqtayi nazaridan jismoniy og'riq – bu organizmdagi ko'ngilsizliklar haqidagi ogohlantirish hisoblanmay, balki og'riq o'z-o'zidan tirik organizmning zararlantiruvchi ta'sirlarga ega bo'lib, o'ziga xos tarzda sog'liqqa zarar yetkazadi. Bunday ta'sirlarning bir qator ko'rinishlari, masalan, tomirlar torayishi, qon bosimining ko'tarilishi, qon uyushishi darajasining o'zgarishi, qonda qand miqdorining o'zgarishi va boshqalar obyektiv turda aniqlanishi mumkin. Urish, do'pposlash va qiynash-sog'liqqa har qanday darajada, hatto og'ir darajagacha shikast yetkazuvchi harakatlar usuli bo'lib hisoblanadi [9, 104–105-b.].

R.D. Sharapovning fikricha, og'riq hislarining paydo bo'lishi organizmda bir qator obyektiv o'zgarishlarining kechishi bilan davom etadi. Bu o'zgarishlar turli faoliyat tizimlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, nafas olish, yurak-qon tomir tizimi. Tibbiyot nuqtayi nazaridan jismoniy og'riq yetkazish sezilarli emas, ammo sog'lom organizm holatining yomonlashuviga olib keladi. Demak, jismoniy og'riq odam sog'lig'i uchun jiddiy zarar yetkazadi [10, 120-b.].

F. Taxirov yuqoridagi fikriga qo'shilmasligini bildirib, o'z fikrini quyidagicha bildirgan, "jismoniy og'riq yetkazuvchi urish, do'pposlash va boshqa zo'ravonlik harakatlarini sodir etishni tan jarohatlariga kiritib bo'lmaydi. O'z-o'zidan og'riq yetkazish subyektiv noxush holatga olib keladi, ammo aniq obyektiv belgilarda (shokka tushish) namoyon bo'lgan sog'liqning izdan chiqishiga olib kelmasa, tan jarohati deb tan olinishi mumkin emas" [11, 21-b.], degan fikrni ilgari suradi.

A.D. Tartakovskiyning fikricha, aynan muttasillik qiynashda jismoniy yoki ruhiy qiynoqlarni yuzaga keltiradi [12, 35-b.]. Bizningcha ham, muttasil qiynashda jismoniy yoki ruhiy azoblar yuzaga keladi. Qiynashning muttasilligi deganda ko'p marotaba uzviy ravishda zo'rlik harakatlarining sodir etilishi tushunilib, aybdorning harakatlari o'zaro bog'liq, ayni bir jabrlanuvchiga nisbatan qaratilgan bo'lib, nafaqat jismoniy og'riq, balki ruhiy azoblash, kamsitish, xo'rlashda ham ifodalanadi [13, 268-b.]. Shu sababli, bizningcha, uch yoki undan ortiq sodir etilgan har qanday zo'rlik harakatlari qiynash deb kvalifikatsiya qilinavermaydi. Chunki, qiynash yagona qasd bilan qamrab olingan o'xshash harakatlardan iborat bo'lib, uni davomli jinoyatlar jumlasiga kiritish lozim. Masalan, qiynash natijasida insonning sog'lig'iga og'ir tan jarohati yetkazish va h.k.

I.P. Portnovning fikricha, qiynash jinoyatidagi do'pposlash epizodlari uchun katta bo'lmagan vaqt oralig'i xosdir [14, 89-b.]. V.B. Borovikov ayrim hollarda sud amaliyoti do'pposlash harakatlari o'rtasida uzoq vaqt o'tgan bo'lsa-da, ular o'zaro bog'liq va ichki jihatdan yagonalikni ifodalagan hollarda ham qiynash jinoyati tarkibi bor deb hisoblaydi [15, 53-b.]. Bunday vaziyatda qiynash jinoyatining tarkibi bor deb hisoblash uchun barcha epizodlar ichki birlikka ega bo'lishi, aybdorning to'g'ri qasdi bilan qamrab olingan, jabrlanuvchiga jismoniy va ruhiy azob berishga qaratilgan

muayyan xulq-atvori tizimini tashkil qilishi isbotlanishi lozim. N.I. Zagorodnikov aytganidek, “istisno sifatida, bir marotaba sodir etilgan yengil shikast yetkazish, azoblovchi og‘riqlarni keltirib chiqarganda (masalan, kuyishda), qilmish qiynash sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak” [16, 111-b.]. Jabrlanuvchiga jismoniy ta’sir qilinganda bir marotabalik do‘pposlashdan farq qiluvchi “azob yetkazish” belgisi qiynash jinoyatiga xosdir. Shuning uchun N.I. Zagorodnikovning jismoniy va ruhiy azob berishni bir marotabalik harakatlar bilan ham amalga oshirish mumkin degan fikrini qiynoqqa solish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda asosli deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, “qiynash” bilan bir qatorda “azob berish” jumlasini ham qo‘llaniladi-ki, bu ham muammolardan xoli emas. Xususan, O‘zbek tilining izohli lug‘atida yozilishicha, “azoblamoq deganda, jismoniy yoki ruhiy azob bermoq” [17, 50-b.] tushuniladi.

### Xulosalar

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “qiynash”, “qiynoqqa solish”, “azoblash”, “do‘pposlash” tushunchalarini bir-biridan farqlashimiz lozim. “Azoblash deganda, uzoq vaqt ovqat, suv yoki issiqlikdan mahrum qilish kabi xo‘rlovchi harakatlar yoxud insonni sog‘liq uchun ziyon yetkazuvchi sharoitga solish yoki unda qoldirish va hokazolar tushunilishi lozim”.

Tan jarohatlarining og‘irligi darajasi, sud-tibbiy aniqlash qoidalarida, azob berish esa chimchilash, tilish, o‘tmas yoki o‘tkir sanalgan predmetlar bilan ancha ko‘p sonli, lekin katta bo‘lmagan jarohatlar yetkazish, termik omillar va shu kabi boshqa ta’sirlar orqali uzoq vaqt og‘riq berish bilan bog‘liq harakatlardir.

Ushbu tushunchalardan kelib chiqib, “azoblash” tushunchasiga mualliflik ta’rifini beramiz. Ya’ni, *“Azob berish – chimchilash, tilish, o‘tmas yoki o‘tkir sanalgan predmetlar bilan juda ko‘p, ammo katta bo‘lmagan jarohatlar yetkazish, shuningdek boshqa ta’sirlar orqali uzoq vaqt og‘riq berish bilan bog‘liq harakatlardir”*.

Bundan tashqari, ushbu tushunchani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qaroriga qo‘shimcha tarzda kiritish lozim.

### REFERENCES

1. Decision of the European Court of Human Rights in the case of Irish Gegen Vereinigtes Kunikgreich of 18 January 1978. Berger V. Op. cit. pp. 84–85.
2. Frowein J., Peukert W. Kommentar zur EMRK. 2. A. Kehl, Strassburg, Arlington, 1996, p. 41.
3. Bakunov P.B. The crime of intentional grievous bodily harm. Tashkent. 2010, p. 7.
4. Ojegov S.I. Tolkoviy slovar russkogo yazika [Explanatory dictionary of the Russian language]. Moscow, 1997, p. 256.
5. Sharapov R.D. Kvalifikatsiya prestupleniy, sovershayemix s primeneniyem fizicheskogo nasiliy [Qualification of crimes committed with the use of physical violence]. Tyumen, 2001, pp. 24–25.



6. Konstantinov P. Ugolovnaya otvetstvennost za istyazaniye [Criminal liability for torture]. *Zakonnost – Legality*, 2000, no. 4, p. 10.
7. Samolyuk I. Otvetstvennost za istyazaniye [Liability for torture]. *Sovetskaya yustitsiya – Soviet justice*, 1965, no. 1 (2), p. 21.
8. Bolshaya meditsinskaya ensiklopediya [Big Medical Encyclopedia]. 1999, vol. 3, p. 294.
9. Borzenkov G.N. Kvalifikatsiya prestupleniy protiv jizni i zdorovya [Qualification of crimes against life and health]. Moscow, 2006, pp. 104–105.
10. Sharapov R.D. Fizicheskoye nasiliye v ugolovnom prave [Physical violence in criminal law]. Moscow, 2001, p. 120.
11. Toxirov F. Ugolovno-pravoviye problemi borbi s tyajkimi telesnimi povrejdeniyam [Criminal-legal problems of combating grievous bodily injuries]. PhD thesis. Tashkent, 1989, p. 21.
12. Tartakovskiy A.D. Nekotoriye voprosi xarakteristiki istyazaniy po sovetскому ugolovnomu pravu [Some issues of characterizing torture in Soviet criminal law]. *Teoriya i praktika borbi s pravonarusheniyami – Theory and practice of combating offenses*. Dushanbe, 1980, iss. 1, p. 35.
13. Comment on the Criminal Code of the Russian Federation. Ed. Y.I. Skuratova, V.M. Lebedeva. Moscow, 1997, p. 268.
14. Portnov I.P. Istyazaniye (kriminologicheskiy i ugolovno-pravovoy aspekti) [Torture (criminological and criminal law aspects)]. Violent crimes: nature, investigation, prevention. *Collection of scientific Proceedings of the All-Russian Research Institute of the Ministry of Internal Affairs*. Moscow, 1994, p. 89.
15. Borovikov V.B. et al. Ugolovniy zakon v praktike mirovogo sudi [Criminal law in the practice of a justice of the peace]. Ed. A.V. Galaxovoy. Moscow, 2005, p. 53.
16. Zagorodnikov N.I. Prestupleniya protiv zdorovya [Crimes against health]. Moscow, 1969, p. 111.
17. O'zbek tilining izohli lug'ati [Annotated dictionary of the Uzbek language]. 5 vols. Ed. A. Madvaliev. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2008, vol. 1, p. 50.

UDC: 343.9(034.3) (575.1)

# HUQUQBUZARLIKLARNING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASIGA OID MILLIY VA AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJIRIBASI

**Niyozova Salomat Saparovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga  
qarshi kurashish kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori  
ORCID: 0000-0003-3970-2985  
e-mail: salomat.niyozova@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi va unga doir milliy hamda xorijiy davlatlar tajribasi tahlil etilgan. Jumladan, G'arb davlatlari viktimologik profilaktikasi o'rganilib, uning quyidagi elementlari ajratib ko'rsatiladi va ularni shartli ravishda uch guruhga jamlash mumkin: shaxs yoki ijtimoiy guruhning viktimizatsiya jarayonlarining obyektiv sabablarini kamaytirish; aholining alohida toifadagi shaxslari orasida tushuntirish ishlarini olib borish, viktimologik targ'ibot; jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish, zararni qoplash va davlat tomonidan kompensatsiya to'lash masalalari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada viktimologik profilaktikaning turlari bo'yicha olimlarning fikr va mulohazalari o'rganilgan. Viktimologik profilaktika tushunchasining oydinlashtirilishi, maqsadi va vazifalarining aniq belgilanishi uning samarali chora-tadbirlar tizimining ishlab chiqilishi, shuningdek mazkur profilaktik chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilishi, ularga kompleks yondashilishi va ta'sirchanligi borasidagi fikrlar ham tahlil etilgan. Viktimologik profilaktika ikkita asosiy: maxsus va umumiyning o'zaro bog'liqligini o'rganish darajasida olib borilishi ham tahlil etilib, bu borada tegishli taklif va tavsiyalar berilgan. Viktimologik profilaktikaning asosiy maqsadi jinoyat qurbonlariga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali aniq jinoyatlarning oldini olish samaradorligini oshirish va jinoyatlardan jabr ko'rishga to'sqinlik qilish kabilar ekanligi yuzasidan fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqbuzarliklar, viktimologiya, profilaktika, umumiy, maxsus, yakka tartib, g'ayriijtimoiy qilmish, motiv, maqsad, jinoiy tajovuz.



## НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ОПЫТ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ВИКТИМОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКЕ ПРАВОНАРУШЕНИЙ

**Ниязова Саломат Сапаровна,**  
доктор юридических наук, профессор кафедры  
«Уголовное право, криминология и противодействие коррупции»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье анализируется отечественный опыт и опыт некоторых зарубежных стран в сфере виктимологической профилактики преступлений. В частности, исследуется опыт стран Запада, где выделяют следующие элементы виктимологической профилактики, которые можно условно сгруппировать в три группы: уменьшение объективных причин виктимизационных процессов личности или социальной группы; разъяснительная работа среди отдельных категорий населения, виктимологическая пропаганда; вопросы помощи пострадавшим, возмещения и компенсаций со стороны государства. Также в статье рассматриваются взгляды ученых на виды виктимологической профилактики. Уточняется понятие виктимологической профилактики, четко определяются ее цели и задачи, разрабатывается эффективная система мероприятий, а также анализируются взгляды на адресность, комплексность и эффективность данных профилактических мероприятий. Также анализируется виктимологическая профилактика на уровне изучения взаимосвязи двух основных аспектов: частного и общего, и в связи с этим вносятся соответствующие предложения и рекомендации. Высказываются мнения, что основной целью виктимологической профилактики является повышение эффективности профилактики правонарушений за счет непосредственного воздействия на пострадавших от преступлений и предупреждения преступлений.

**Ключевые слова:** правонарушения, виктимология, профилактика, общий, особый, индивидуальный порядок, антиобщественное поведение, мотив, цель, преступная агрессия.

## NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE IN THE FIELD OF VICTIM PREVENTION

**Niyozova Salomat Saparovna,**  
Professor of the Department of Criminal Law,  
Criminology and Anti-Corruption of  
Tashkent State University of Law, Doctor of Law

**Abstract.** This article analyzes the experience of national and foreign countries in the field of victim prevention of crime. In particular, the Western countries are studied, in which the following elements of victimological prevention are distinguished and can be conditionally grouped into three groups: reduction of objective causes of victimization



*processes of the individual or social group; explanatory work among certain categories of the population, victimological propaganda; issues of assistance to victims, compensation and compensation by the state. The article also examines the views of scientists on the types of victimological prevention. This article clarifies the concept of victimological prevention, clearly defines its goals and objectives, develops its effective system of measures, as well as analyzes the views on the targeted, comprehensive approach and effectiveness of these preventive measures. Victimological prevention is also analyzed at the level of studying the interrelationships of two main aspects: specific and general, and relevant suggestions and recommendations are made in this regard. Opinions have been expressed that the main goal of victimological prevention is to increase the effectiveness of crime prevention by directly affecting victims of crime and preventing victims of crime.*

**Keywords:** offenses, victimology, prevention, general, special, individual order, antisocial behavior, motive, purpose, criminal aggression.

## Kirish

Kriminologiya nazariyasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradigan profilaktik faoliyatning kimga qaratilganligiga ko'ra ikkiga: kriminologik va viktimologik profilaktika turlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlari asosan jinoyat sodir etgan shaxslarga qaratilgan. Chunki, g'ayriijtimoiy qilmishning motivi, maqsadning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ularning amalga oshirishda shaxs asosiy rol o'ynaydi.

Kriminologiya doirasida jabrlanuvchining turli jihatlarini kompleks tadqiq qilish vazifasi qo'yiladi, chunki jabrlanuvchisiz jinoiy qilmish bo'lishi mumkin emas. Har qanday jinoiy qilmish jabrlanuvchiga muayyan (moddiy, ijtimoiy, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, bevosita, bilvosita va h.k.) zarar yetkazadi. Huquqbuzarliklardan har xil obyektlar yoki qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy ahamiyatga molik manfaatlarining egalari jabrlanishi mumkin.

Viktimologiyada jabrlanuvchilarni o'rganishda asosan "jinoyat qurboni" va "jinoyat jabrlanuvchisi" degan aynan o'xshash bo'lgan tushunchalardan foydalaniladi.

Jinoyat sodir etishning sabablari zanjirida jabrlanuvchi jiddiy rol o'ynaydi, degan fikr bugungi kunda paydo bo'lib qolgan emas, zero, davlat va huquq nazariyasi hamda tarixi manbalarida bunday yondashuv o'z aksini topgan.

## Material va metodlar

Mavzu yuzasidan olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir.

Mazkur ilmiy maqolani yozishda umumilmiy uslublar: funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish kabi metodlardan foydalanilgan.

## Tadqiqot natijalari

"Viktimologiya" atamasi ikki so'zdan: lotincha "victima" – "jabrlanuvchi" va yunoncha "logos" – "bilim, ta'limot" so'zidan tashkil topgan bo'lib, jabrlanuvchi haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi [1, 15-b.].



Ta'kidlash joizki, huquqbuzarlikning sabablarini o'rganishda jabrlanuvchi haqidagi ta'limot muhim rol o'ynaydi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, huquqbuzarlik sodir etilishda jabrlanuvchining tutgan o'rnini ilmiy jihatdan bilish ham katta ahamiyatga egadir.

Shu sababli kriminal viktimologiyani o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad, huquqbuzarlik va jinoyat jarlanuvchilarining mazkur holatlarning yuzaga kelishida tutgan o'rni, ahamiyatini, jinoiy vaziyatning yuzaga kelishi va rivojlanishiga qo'shgan "hissasi"ni aniqlash va tadqiq etishdir. Buning uchun jabrlanuvchining shaxsi, uning huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilishidan oldingi xulq-atvori to'g'risida tegishli umumiy axborot yig'ilishi zarur. Buning uchun, birinchi navbatda, jabrlanuvchining shaxsi to'g'risidagi zarur ma'lumotlar, ayniqsa, jinoyatning yuzaga kelishida sabab bo'luvchi xulq-atvori atroflicha o'rganib chiqilishi lozim hisoblanadi [2, 341–342-b.].

Viktimologiya – jismoniy va yuridik shaxslarni jinoiy tajovuz obyektiga aylantiruvchi, jinoiy aloqadorlik tavsifi va darajasini belgilovchi ularga xos tipik xususiyatlar, shuningdek jinoyat qurbonlarining mustaqil o'z manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish qobiliyati va uni kuchaytirish vositalari haqidagi ta'limotdir [3, 179–180-b.].

Viktimologik profilaktika shaxsni huquqbuzarlik va jinoiy xavfdan ogohlantiradi va uni o'z xulq-atvorini o'zgartirishga undash orqali uning jabrlanuvchi bo'lib qolishi xavfini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Profilaktika chora-tadbirlari shaxsni jinoiy hujumdan himoyalashga, o'zgalarning xatolaridan saboq olishga chorlaydi, shaxs qanchalik kriminologik muhitda o'zini himoya qila olsa, uning jabrlanuvchiga aylanish xavfi shuncha kamayadi.

Huquqbuzarlik sodir etganlar va jabrlanuvchilarining xulqi, odobi, ahloqi, ma'lumoti, ma'naviyati, ruhiy holati kabi shaxsining xususiyatlari haqidagi ko'rsatkichlar ko'pincha bir-biriga yaqin hisoblanadi [4, 186-b.]. Salbiy xulq-atvorli, ma'lumot darajasi, ma'naviyati past, ijtimoiy-ruhiy holati buzilgan odamlar o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida jinoyat qurboni bo'lish xavfi mavjud bo'lsa-da, o'z qilmishlarini davom ettiraveradilar. Tabiiyki, bunday kishilar turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklar, jumladan, jinoyat sodir etish bilan birga aksariyat hollarda jabrlanuvchiga ham aylanib qoladilar.

Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyillikni taqozo qiluvchi shaxsning xislatlari va xulqi bilan ijtimoiy qilmish o'rtasidagi sababiy aloqadorlik ehtimolli xususiyatga ega. Tamagirlik, laqmalik xislatlariga ega bo'lgan inson har doim ham firibgarlar bilan aloqaga kirishmaydi.

Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxs xulqining salbiy yo'nalish kasb etishi uning ijtimoiy ruhiy, psixo-fiziologik xislatlari muayyan hayotiy vaziyat bilan aloqada bo'lgandagina vujudga keladi. Shuning uchun viktimologiya nafaqat shaxslarning viktimlik darajasini, balki viktimogen xususiyatga ega vaziyatni ham o'rganadi. Viktimogen vaziyat huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxsning muayyan xislatlari va xulq-atvori bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan aniq hayotiy vaziyat bo'lib, unda jabrlanuvchiga huquqbuzarlik yoki jinoiy yo'l bilan

jismoniy, mulkiy yoki ma'naviy zarar yetkazilish uchun paydo bo'ladigan imkoniyat hisoblanadi [5, 348-b.].

Huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish niyatining paydo bo'lishi va amalga oshishiga jabrlanuvchilarning shaxsiy, ruhiy xislatlari ularning xulqiga va huquqbuzar bilan o'zaro munosabatlariga xos xususiyatlari ko'maklashganligi sababli bugungi kunda bunday toifadagi fuqarolar muayyan qismining viktimligini kamaytirish profilaktikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak. Jamiyatda huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi bo'lishga moyil odamlar qanchalik kam bo'lsa, shuningdek ulardagi viktimlik darajasi past darajada bo'lsa, jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida samara berishi mumkin [6, 207-b.].

Jabrlanuvchilar bilan profilaktika ishlarini olib borish davomida ularning ko'rsatma berish mobaynida xatoga yo'l qo'ymasliklari uchun doimo ularning jinoyat sodir etilayotgan vaqtdagi holati va jinoyatchi shaxsini idrok etish xususiyatlarini inobatga olish juda muhim sanaladi. Ular his qilayotgan qo'rquv, g'azab, uyat, alam kabi hissiyotlar idrok etishning buzilishiga sharoit yaratib berishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan viktimlik holatlarida asosiy omillardan biri sifatida jabrlanuvchining muayyan xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Ta'kidlash joizki, shaxsning viktim holatga tushib qolishiga nafaqat o'zining subyektiv xususiyatlari, balki boshqa omillar ham ta'sir etadi, ya'ni shaxs o'zining shaxsiy xususiyatlari bilan bir qatorda ularning boshqa omillar bilan uyg'unlashuvi natijasida ham jinoyatlardan jabrlanishi mumkin.

Hozirgi kunda nafaqat mana shunday toifadagi, balki aholining barcha qatlamini turli xil huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish, ya'ni viktimlik darajasini pasaytirish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunida viktimologik profilaktika masalasi o'z ifodasini topgan.

Mazkur qonunning "Huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari"ga bag'ishlangan 6-moddasi va "Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi" deb nomlangan 6-bobi talablari asosida "viktimologiya" tushunchasi qo'llanilganda kriminal viktimologiyani nazarda tutish lozim. Chunki insonning jabrlanib qolishining oldini olishga doir profilaktika sog'liqni saqlash, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish kabi sohalarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar tomonidan fuqarolarning yoki muayyan shaxslarning huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirishga yo'naltirilgan huquqbuzarliklarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, shuningdek targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish orqali jabrlanish xavfini tug'dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma'lumotlar berish, bu borada ogohlikka, xushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

*Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasining vazifalari:*

– huquqbuzarliklar sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini o'rganish va tahlil qilish;



- huquqbuzarliklardan jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;
- aholi o'rtasida jabrlanish xavfini tug'dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish;
- aholini huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuzasidan ogohlik va xushyorlikka chaqirish;
- jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulkini qo'riqlash;
- aholini huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoliga (viktimlikka) ega shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish;
- huquqbuzarlikdan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish; viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish va boshqalar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, viktimologik profilaktikasi tushunchasining oydinlashtirilishi, maqsadi va vazifalarining aniq belgilanishi uning samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishini, shuningdek mazkur profilaktik chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilishi, ularga kompleks yondashilishi va ta'sirchanligini kafolatlaydi.

Viktimologik profilaktika ikkita asosiy: maxsus va umumiyning o'zaro bog'liqligini o'rganish darajasida olib boriladi.

Viktimologik profilaktikaning maxsus darajada olib borilishi jinoyat jabrlanuvchilarining xulq-atvorini jinoyatchida huquqqa xilof niyatning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil sifatida o'rganiladi.

Umumiy darajada o'rganish esa viktim xulqning qonuniyat va sabablarini aniqlash imkonini beradi.

Umumiy oldini olish jamiyatning barcha bo'g'inlari (oilal, ta'lim, tibbiyot muassasalari, o'zini o'zi boshqarish organlari)ning faol ishtiroki orqali amalga oshirilsa, maxsus oldini olishda bevosita ichki ishlar organlari, prokuratura, adliya, sud organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Viktimologik profilaktikaning asosiy maqsadi – jinoyat qurbonlariga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali aniq jinoyatlarning oldini olish samaradorligini oshirish va jinoyatlardan jabr ko'rishga to'sqinlik qilishdir.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun talablari asosida umumiy, maxsus va yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Demak, viktimologik profilaktika huquqbuzarlikdan jabrlanish xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar kompleksidan iboratdir.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Bu borada xorijiy davlatlar tajribasini tahlil etadigan bo'lsak, xorijiy davlatlarda huquqbuzarliklar viktimologik profilaktika davlat siyosati darajasida bo'lganligi sababli yaxshi samara berayotganligi kuzatilmoqda. Jumladan, G'arb davlatlarida viktimologik profilaktikaning quyidagi elementlari ajratib ko'rsatiladi va ularni shartli ravishda uch guruhga jamlash mumkin: shaxs yoki ijtimoiy guruhning viktimizatsiya jarayonlarining obyektiv sabablarini kamaytirish; aholining alohida



toifadagi shaxslari orasida tushuntirish ishlarini olib borish, viktimologik targ'ibot; jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish, zararni qoplash va davlat tomonidan kompensatsiya to'lash tizimining mavjudligi [7].

G'arb davlatlarida viktimologik profilaktika davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatining maxsus va ajralmas qismi bo'lib, viktimologik profilaktikani amalga oshiruvchi asosiy subyektlari davlat va uning boshqaruv organlari hisoblanadi.

G'arb viktimolog olimlarining fikriga ko'ra, jamoatchilik nazorati va o'zini o'zi boshqarish aholining viktimligi darajasini kamaytirish uchun jamiyatga ta'sir etishning eng samarali vositalaridan biri sanalgan [8, 86-b.].

G'arb davlatlarida viktimologik profilaktikaning muhim elementlaridan biri bu jamoat tashkilotlari hisoblanadi. Bu tashkilotlar jinoyatlardan jabrlanganlar manfaatlarini himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish hamda retsidiv viktimlikka qarshi kurash maqsadida tashkil etilgan.

Jabrlanuvchilar huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun bu tashkilotlar hukumat vakillari bilan rasmiy uchrashuvlar va suhbatlar uyushtirishadi, parlament qo'mitalari va komissiyalari, vazirlar kengashi majlislarida ishtirok etishadi, qonun loyihalarini tayyorlashda yordam ko'rsatishadi, parlament va hukumat vakillarini o'zlarining majlislari va syezdlariga taklif qilishadi, jamoatchilik fikrini o'rganadi hamda OAV bilan hamkorlikda ishlarini olib boradi, davlat organlariga jinoyatlardan jabrlangan shaxslar nomidan maktublar jo'natadi va ma'ruzalar tayyorlaydi, davlatning yuqori darajadagi shaxslari bilan uchrashuvlar o'tkazilishini tashkillashtiradi [9].

Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikani amalga oshirishga yo'naltirilgan jamoat tashkilotlari faoliyatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: tashkilotning tashkiliy tuzilmasi; viktimologik faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi va munosabatlari; taklif etilayotgan va ko'rsatilayotgan yordam qaratilgan obyektning xususiyati va boshqalar.

Ushbu tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasiga to'xtaladigan bo'lsak, ular ko'ngilli ravishda tuzilgan nohukumat va hukumat tashkilotlariga bo'linadi.

Angliyada "Jinoyatlardan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash Milliy assotsiatsiyasi" (National Association of Victim Support Schemes) 1979-yildan beri faoliyat ko'rsatib keladi va muvofiqlashtiruvchi organ vazifasini bajaradi.

Fransiyada "Jinoyatlardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish Milliy instituti" (National Institute for Assistance for Victims (INAVEM)) 1986-yilda tashkil etilgan bo'lib, u 60 ga yaqin viktimologik tashkilotlar faoliyatlarini muvofiqlashtiradi [10, 86-b.].

Niderlandiyada "Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash Milliy tashkiloti" (National Organisation for Victim Support (NOVS)) faoliyat yuritisa, AQShda rasman mazkur vazifani amalga oshiruvchi organ mavjud bo'lmasa-da, "Jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish Milliy markazi" bajaradi [11, 86-b.].

Italiyada rasman viktimologik tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ mavjud emas, lekin terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, o'g'rilik, bosqinchilik va talonchilikdan aziyat chekkan fuqarolarga yordam ko'rsatish assotsiatsiyasi mazkur vazifani bajaradi.





Germaniya Federativ Respublikasida uchta darajadagi profilaktika ajratib ko'rsatiladi. Birinchi darajadagi profilaktikada jinoyatlar sodir etilishining asosiy sababi sifatida shaxsning huquqiy ongining pastligi va bu boradagi kamchiliklar hisoblanadi hamda bu kamchiliklarni to'ldirishga yo'naltirish mazkur darajadagi profilaktikaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ikkinchi darajadagi profilaktikada politsiya organlarining shaxslarni turli ko'rinishdagi jinoyatlarning sodir etishlaridan huquqiy vositalar orqali tiyib tursa, uchinchi darajadagi profilaktikaga esa jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo qo'llash jarayonida ularning reijtimoiylashuvining oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan profilaktika chora-tadbirlari kiradi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha ko'pgina Yevropa mamlakatlarida muvofiqlashtiruvchi organlar, masalan, Milliy Kengashlar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi sifatida huquqbuzarlik profilaktikasi bo'yicha ma'lumotlar to'plash, rejalashtirish, amalga oshirilgan huquqbuzarlik profilaktikasi dasturlarini baholab borish, politsiya va boshqa organlarning hamkorlikda ishlashini muvofiqlashtirish, mazkur faoliyatni amalga oshirishda aholini ishtirok etishini ta'minlash, OAV imkoniyatlaridan foydalangan holda ular bilan hamkorlik qilish, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish va boshqalar e'tirof etiladi [12].

Xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari jinoyat sodir etilishida doimo bir tezisni targ'ibot qilishadi, ya'ni jinoyatchi har doim himoyasiz, qo'riqlanmaydigan jabrlanuvchi yoki obyekt bilan uchrashadi hamda unga nisbatan jinoyat sodir etadi. Shu sababli unga qarshi turadigan xavfsizlik choralari aholiga targ'ibot qilish zarur deb hisoblaydi [13, 54-55-b.].

Buyuk Britaniyada kriminal xavfsizlikning minimal standarti ishlab chiqilgan bo'lib, bunda aholining keng qatlami politsiya bilan hamkorlik qilishda keng foydalanaladi.

Jamoatchilik vakillariga navbatchilik kunlari politsiya kiyimi, ya'ni mundiri beriladi, faqat bu formada hech qanday unvon va belgilar bo'lmaydi, shuningdek aloqa vositalari, maxsus himoya vositalari (rezina tayoq, qo'l kishanlari) va avtomashina beriladi. Bunday ko'rinishdagi faoliyat davlat va jamiyatga ham moddiy, ham ma'naviy ko'mak bo'lib xizmat qiladi.

G'arbiy Yevropa va AQShda jinoyatlarning oldini olishda asosiy o'rinni viktimologik profilaktika egallaydi. Chunki mazkur faoliyat ko'p mablag' talab qilmaydi. AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "Qanday qilib o'zini, oilasini, mulkini va turar joylarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish mumkin?" degan maqolalar va qo'llanmalar chop etiladi. Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha jabrlanuvchilar va guvohlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida jinoyatlardan jabrlanganlar assotsiatsiyalari tuzilgan bo'lib, ularning a'zolari o'z yashash joylari atrofida patrullik qilish kabi ishlarni amalga oshirishlari belgilab berilgan. Shu bilan bir qatorda o'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha viktimologiya asoslari haqida ma'ruzalar tashkil etilgan bo'lib, o'quvchi va talabalar trening mashg'ulotlarda o'zlarini himoya qilish va ekstremal holatlarda harakatlanish usullarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'lishadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ko'rib chiqilgan tajribalardan quyidagilar umumlashtirildi [14, 18-b.]:

- profilaktikaning ustunligi shundaki, yaratilgan imkoniyatlar shaxsning noqonuniy harakat qilishiga yo'l bermaydi, agar biror-bir shunga o'xshash holat yuz bersa, bunday holatni boshqa takrorlanishiga yo'l qo'yilmasligi;
- milliy qonunchilikning hamda davlat va mahalliy dasturlarning ishlab chiqilganligi va qabul qilinganligi;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha yagona muvofiqlashtiruvchi organning tashkil etilganligi;
- huquqbuzarliklar va jinoyatlarni profilaktika qilish faoliyatida keng miqyosdagi aholi vakillarining jalb qilinganligi.

Ta'kidlash joizki, xorijiy davlatlarning profilaktika faoliyatining o'ziga xosligi ularning qaysi huquq oilasi vakili ekanligi bilan ham bog'liq hisoblanadi. Chunki ulardagi jinoyatlarning tasniflanishi milliy qonunchiligimizga mos kelmasligi, shuningdek ularning odat va an'alarining o'zgacha ekanligini hisobga olish zarur. Rivojlangan xorijiy davlatlarning har bir tajribasini milliy qonunchilikka tatbiq etish o'z samarasini bermaydi. Shu sababli, o'rganilgan tajribalarni qonunlarga va, albatta, mentalitetga moslagan holda tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **Xulosalar**

Xulosa qiladigan bo'lsak, huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha quyidagicha xulosa qilishga imkon yaratadi:

- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish orqali nafaqat fuqarolarning huquqbuzarliklardan jabrlanib qolishlarining oldini olishga, balki jamiyatda jinoyatchilikning kamayishiga ham erishiladi;
- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llash kam mablag' talab etadi hamda jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshiradi;
- huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikani maqsadli ravishda amalga oshirishda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish eng ustuvor masala hisoblanadi;
- fuqarolarning huquqbuzar shaxs bilan o'zaro aloqasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, huquqbuzarliklar tahlilini olib borishda jabrlanuvchi shaxsini chuqur o'rganib chiqmaslik natijasida viktimologik profilaktika ishlarini tashkil etish va amalga oshirishda ma'lum bir qiyinchiliklar yuzaga kelishi.

Bundan tashqari, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi amaldagi qonun hujjatlarining ayrimlarini takomillashtirishni taqozo qiladi. Jumladan:

- "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi va "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish lozim bo'ladi;
- huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo'yicha bir qator tashkiliy muammolarni bartaraf etish hamda ularni takomillashtirish orqali viktimologik profilaktika samaradorligiga erishish imkonini beradi;
- fuqarolarning turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklardan jabrlanishlariga qarshi OAVda ko'rsatuvlar tashkil etish va unda aholining ishtirokini ta'minlash orqali jamoatchilik fikrini o'rganish;



- internet tarmog'ida fuqarolarning huquqbuzarliklardan jabrlanib qolishlarining oldini olishga qaratilgan ma'lumotlar, ko'rgazmali lavhalarni joylashtirish;
- ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar va voyaga yetmaganlarning turli ko'ngilsiz hodisalarning qurboni bo'lib qolayotganliklari, o'z joniga qasd qilishga majbur bo'lishlarining oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda ijtimoiy tarmoqlarda ularning jabrlanib qolishlariga qarshi qaratilgan ma'lumotlarni kiritib borish ishlarini amalga oshirish.

## REFERENCES

1. Frank L.V. Nekotoriye teoreticheskiye voprosi stanovleniya sovetskoy viktimologii [Some theoretical issues of the formation of Soviet victimology]. *Poterpevshiy ot prestupleniya – Victim of a Crime*. Vladivostok, 1974, p. 15.
2. Parfiyev Y.A. et al. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi [Psychology of crime prevention activities]. Tashkent, Akademiya, 2015, pp. 341–342.
3. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Y. Kriminologiya [Criminology]. Tashkent, Akademiya, 2014, pp. 179–180.
4. Xatkova F.X. Viktimologicheskiye aspekti jenskoy prestupnosti [Victimological aspects of female crime]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2004, p. 186.
5. Parfiyev Y.A. et al. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi [Psychology of crime prevention activities]. Tashkent, Akademiya, 2015, p. 358.
6. Nadtoke S.V. Viktimologicheskiye aspekti profilaktiki nasilstvennix prestupleniy [Victimological aspects of violent crime prevention]. Abstract of PhD thesis. 1999, p. 207.
7. Zaborovskiy V.A. Obsheotsialniye meri preduprezhdeniya penitentsiarnoy prestupnosti [General social measures to prevent penitentiary crime]. Available at: <http://www.jourclub.ru/34/1329/>.
8. Voronin Y.A. Preduprezhdeniya prestupnosti v zarubejnih stranax [Crime prevention in foreign countries]. *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of Chelyabinsk State University*, 2012, no. 27 (281), p. 86.
9. Konovalova I.A. Viktimologicheskaya stoykost kak sposob preduprezhdeniya prestupleniy nesovershennoletnix [Victimological resistance as a way to prevent juvenile crimes]. *Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo oblastnogo universiteta – Bulletin of the Moscow State Regional University*, 2012, no. 1. Available at: <http://www.evestnik-mgou.ru/>.
10. Voronin Y.A. Preduprezhdeniya prestupnosti v zarubejnih stranax [Crime prevention in foreign countries]. *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of Chelyabinsk State University*, 2012, no. 27 (281). p. 86.
11. Golovkina A.G. Gosudarstvennaya sistema profilaktiki pravonarusheniy v sovremennoy Rossii [The state system of crime prevention in modern Russia]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2011, p. 18.
12. Baranovskiy N.A. Antideviantnaya politika: teoriya i sotsialnaya praktika [Anti-deviant policy: theory and social practice]. Minsk, Belaruskaya navuka, 2011, pp. 54–55.

UDC: 343.24(045)(575.1)

# QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Hakimov Komil Baxtiyarovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat huquqi, kriminologiya va

korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini mudiri

ORCID: 0000-0001-8598-179X

e-mail: hkb22@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasi va o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, bu borada olimlarning fikrlari tahlil etilgan. Shuningdek, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar bilan bog'liq jinoyat qonuni normalarini takomillashtirish borasida tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** qilmish, jinoyat, istisno qiluvchi holatlar, jazo, zarar, moddiy zarar, jismoniy zarar, qonunchilik, kam ahamiyatlilik, javobgarlik.

## ОСОБЕННОСТИ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ, ИСКЛЮЧАЮЩИХ ПРЕСТУПНОСТЬ ДЕЯНИЯ

**Хакимов Комил Бахтиярович,**

заведующий кафедрой Уголовное право,

криминология и противодействие коррупции

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье исследуются понятие и особенности обстоятельств, исключающих преступность деяния, а также анализируются мнения ученых на данный вопрос. Также даны соответствующие предложения и рекомендации по совершенствованию норм уголовного закона, связанных с обстоятельствами, исключающими преступность деяния.

**Ключевые слова:** деяние, преступление, исключающие обстоятельства, наказание, вред, материальный вред, физический вред, законодательство, малозначительность, ответственность.

## FEATURES OF THE CIRCUMSTANCES EXCLUDING THE CRIMINALITY OF THE ACT

**Khakimov Komil Bakhtiyarovich,**

Head of the Department of Criminal Law,

Criminology and combating corruption of

Tashkent State University of Law





**Abstract.** *This article examines the concept and features of the circumstances excluding the criminality of the act, analyzes the opinions of scientists. The relevant proposals and recommendations for improving the norms of the criminal law related to the circumstances excluding the criminality of the act are also given.*

**Keywords:** *act, crime, excluding circumstances, punishment, harm, material harm, physical harm, legislation, insignificance, responsibility.*

Respublikamizda sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga moslashtirishga ahamiyat berilayotgani natijasida davlat va jamiyatni turli huquqbuzarlik va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar viktimligining oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va uning samaradorligini oshirish" sud-huquq sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qatorida belgilanib, bu sohani tadqiq qilish qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarda sodir etiladigan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jabrlanuvchi, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etayotgan shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishi sabab va maqsadlarini e'tiborga olish va ushbu jinoyatlar profilaktikasini takomillashtirish hamda uni tadqiq etishning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarni aniq ajratish, ularning huquqiy ahamiyati va qo'llash chegarasini aniqlash, jinoyat hamda jazo institutida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning huquqiy ahamiyatini o'rganish va ushbu holatlarning inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda tutgan o'rnini aniqlash qonunchilikdagi dolzarb masalalardan biridir.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar xususida nazariy jihatdan so'z yuritadigan bo'lsak, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar o'z nomidan sodir etilganligi uchun jinoyat deb topilmasdan, jazo va javobgarlikni istisno qiluvchi holatlarga aytilib, yuridik adabiyotlarda qanday qilmishlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar turkumiga kirishi kerakligi haqida olimlar turli-tuman fikrlar bildirgan. Ko'pgina mualliflar qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlar tushunchasini tavsiflar ekan, bu *inson xulq-atvori bilan bog'liq harakatlar* ekanligini ta'kidlaydilar. Bunda mazkur qilmishlar o'z asoslariga ega bo'lishi shartligi qayd etiladi. Masalan, jinoiy tajovuz, qonun bilan qo'riqlanayotgan ne'matlarga ziyon yetkazilishi xavfi, ushlash vaqtida zarar yetkazishga esa ushlanayotgan shaxsning qarshi harakati asos bo'ladi. Ya'ni aynan qonuniy xatti-harakatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat deb hisoblanishi lozimligi ta'kidlanadi. Ammo bu tavsif bir yoqlama bo'lib, holatning mazmunini to'liq yoritmaydi. Shuni e'tiborga olib, ko'pgina mualliflar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarga to'laqonli tavsif berishga harakat qilgan. Xususan, M. Usmonaliyev qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar to'g'risida o'z fikrini bildirgan bo'lib, unga ko'ra, ijtimoiy munosabatlar xavf ostida qolgan va bu ijtimoiy munosabatni darhol



himoya qilish zarurati kelib chiqqan bo'lsa, har bir fuqaroga xavfni bartaraf etish orqali ijtimoiy munosabatni himoya qilish burchi yuklatiladi va muayyan shaxs yoki boshqa xavf manbayi tomonidan ijtimoiy munosabatga moddiy yoki jismoniy zarar yetkazish xavfi vujudga keltirilganda, ushbu xavfni bartaraf etish jarayonida shaxs yoki boshqa bir ijtimoiy munosabatga zarar yetkazilishi mumkin. Biroq bu yetkazilgan moddiy yoki jismoniy zarar O'zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismining biror moddasida nazarda tutilmagan jinoyatga formal jihatdan o'xshasa-da, ammo ijtimoiy xavfli hisoblanmaganligi tufayli jinoyat hisoblanmaydi [1].

Olimning ushbu nazariy qarashi o'rinli bo'lib, ijtimoiy munosabatga zarar yetkazish xavfi vujudga kelganda, bunday xavfni bartaraf etish jarayonida shaxs yoki ijtimoiy munosabatga zarar yetkazish nafaqat jinoyat hisoblanmaydi, balki ijtimoiy foydali, jamiyat nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq hamdir. Chunki bunday zarar davlat, jamoat yoki fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida tajovuzchiga nisbatan xavf manbayini bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi.

M. Rustambayevning fikricha, *qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar qonunga zid hisoblanmaydi, chunki aynan ushbu holatlar davlat va mulk egasiga o'z mulkini tasarruf etish va o'zi hamda mulkini turli tajovuzlardan himoya qilish imkonini beradi* [2]. Albatta, mazkur fikr o'rinli bo'lib, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning qonunchilik tizimiga kiritilishi mohiyati ham aynan shu sanaladi.

R. Kabulov ham bu xususda o'z fikrini bildirgan bo'lib, "Inson ayrim hollarda tashqi tomondan u yoki bu jinoyatga o'xshash harakatlar sodir etishi mumkin, ammo bu zararli oqibat keltirib chiqaruvchi harakatlarni u zarar yetkazishi aniq bo'lgan xavf-xatarni bartaraf etish, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishning oldini olish uchun bunday qilmish sodir etgan shaxsni ushlash, buyruq yoki o'z majburiyatlarini bajarish vaqtida, shuningdek kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik qilish orqali yo'l qo'yishi mumkin. Qonunda belgilangan aniq shartlarga rioya qilib zarar yetkazilgan bo'lsa, bu kabi harakatlar jinoyat sifatida ko'rib chiqilmaydi" [3].

Shuningdek, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar to'g'risida bir qancha chet el huquqshunos olimlari ham tadqiqot ishlari olib borgan va bu xususdagi nazariy qarashlarini bayon qilgan. Xususan, A.V. Nikulenko ushbu holatlarni keng tahlil qilgan. Uning fikricha, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar muayyan vaziyat oqibatida yuz beruvchi qilmish bo'lib, buning natijasida xavf vujudga kelmaydi, aksincha, xavf bartaraf etiladi. Aynan shuning uchun ham bunday qilmishlar uchun jazo tayinlash noo'rindir [4]. Albatta, bu olimning ham huquqiy qarashlari asosli bo'lib, bunday qilmishlar boshqa bir qilmish natijasida yuzaga keladi, ya'ni boshqa ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish, muayyan topshiriqni bajarish yoki asosli tavakkal qilish zaruratidan kelib chiqadi.

L.N. Smirnovaning fikricha, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning mavjudligi davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlovchi kafolatlardan sanaladi [5].

Shuningdek, huquqshunos R.R. Shakurov va Y.V. Goliklarning ham bu to'g'rida o'z qarashlari bo'lib, ular o'z harakatlarini qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarda sodir etgan shaxslarni rag'batlantirish usulini qo'llash haqida bir qancha takliflar berib o'tgan [6].



Y.V. Baulin esa qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar qatoriga jabrlanuvchining roziligi, sport bilan shug'ullanish, ota-ona hukmining o'tkazilishi, xizmat burchini bajarish, tibbiy aralashuv va inson sog'lig'i yoki hayotiga zarar yetkazish bilan bog'liq ayrim boshqa holatlarni kiritish haqida takliflar berib o'tgan [7].

Darhaqiqat, 1959-yili qabul qilingan Jinoyat kodeksida kam ahamiyatli qilmishlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tizimida berilmay, o'sha Kodeksning jinoyat tushunchasi berilgan moddasida (7-moddasi 2-qismida) kam ahamiyatli qilmishlarning jinoyat hisoblanmasligi aytilgan edi. Amaldagi Jinoyat kodeksida kam ahamiyatli qilmishlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tizimida berildi.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan amaldagi Jinoyat kodeksida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning turlari aniq belgilab qo'yilishi va ularning soni oshishi oqibatida bu holatlar bilan bog'liq tushunmovchilik va tortishuvlar barham topdi hamda ushbu Kodeksning 35-moddasi birinchi qismida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi birinchi marta berildi. Unga ko'ra, *"Qilmishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy yoki aybli bo'lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi"* deb belgilab qo'yildi.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning bunday ta'rifi katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni "jinoyat" tushunchasi bilan bog'laydi. Bunda qonun jinoyat va huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan, ammo, aslida, bunday qilmish mazmunan bo'lmagan holatlarni o'zaro taqqoslash orqali izohlab beradi. Xususan, shu o'rinda jinoyat tushunchasi to'g'risida ham qisqacha to'xtalib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 14-moddasiga binoan, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat hisoblanadi va biror ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat bo'lishi uchun ma'lum belgilarni o'zida namoyon qilishi kerak. Basharti, ijtimoiy xavfli qilmish tarkibida ushbu belgilar mavjud bo'lmasa, bu qilmish jinoyat hisoblanmaydi hamda tegishli jazo va javobgarlikka tortishni istisno qiladi. Ya'ni shaxsga jazo va javobgarlik belgilash uchun uning qilmishida jinoyat elementlari bo'lishi bunday holatlarning zaruriy belgisidir. Biroq bu norma qat'iy bo'lmasdan, ba'zi holatlarda shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishida jinoyat tarkibi bo'lsa-da, uning jinoyat ekanligi va jazo tayinlashni istisno qilishi mumkin. Ya'ni ayrim hollarda bunday qilmishlar ijtimoiy xavfli bo'lmasdan, balki ijtimoiy foydali bo'lishi ham mumkin va bunday qilmishlar jinoyat qonunchiligida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar sanalib, quyida bu haqda batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Ushbu holatlarning qonunda belgilanishi uchun ularning muayyan belgilarga ega bo'lishi lozimligi shart deb belgilab qo'yilgan bo'lib, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning barchasi uchun bu tushuncha umumiy sanaladi va qilmish:

- *g'ayriqonuniy bo'lmasligi;*
- *ijtimoiy xavfli bo'lmasligi;*
- *qilmishda shaxsning aybi bo'lmasligi kerak.*

Bunda qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat deb topish uchun ana shu belgilarning barchasi bir vaqtda bo'lishi talab qilinmaydi. Ya'ni ushbu belgilardan

birining mavjudligi yetarli hisoblanib, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 35-moddasining 2-qismida quyidagi holatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb ko'rsatilgan:

- 1) *kam ahamiyatli qilmishlar (JK 36-modda);*
- 2) *zaruriy mudofaa (JK 37-modda);*
- 3) *oxirgi zarurat (JK 38-modda);*
- 4) *ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog'ida zarar yetkazish (JK 39-modda);*
- 5) *buyruq yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish (JK 40-modda);*
- 6) *kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik (JK 41-modda);*
- 7) *jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish (JK 41<sup>1</sup>-modda).*

Bu holatlarni mustaqil guruhlariga ajratish ularning yagona yuridik tabiati va vazifalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, huquqiy munosabat subyektlarining tashqi tomondan jinoyat sifatida ko'ringan ijtimoiy foydali harakatlarini tartibga solib turadi.

Yuqorida biz qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar haqida to'xtalganimizda, sodir etilgan qilmishda jinoyat belgilari bo'lmasagina bu qilmishlar jinoyat hisoblanmasligini ta'kidlab o'tgan edik, ya'ni qilmish ijtimoiy xavfli bo'lishi, huquqqa xilof bo'lishi, qilmishda ayb bo'lishi kerak edi. Lekin kam ahamiyatli qilmish boshqa jinoyatni istisno qiluvchi holatlardan farq qiladi. Uning farqi shundaki, bu qilmishda jinoyat belgilaridan huquqqa xilofilik va ayb mavjud bo'ladi, faqatgina bu qilmish ijtimoiy xavfli bo'lmaydi, ya'ni uning qilmishi biror shaxs, davlat yoki tashkilotga jiddiy zarar yetkazmaydi, og'ir oqibatlariga olib kelmaydi. Shuning uchun jinoyat qonuni bu qilmishni kam ahamiyatli deb topadi va uning jinoiyligini istisno qiladi.

Ijtimoiy xavflilik darajasi miqdor ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Demak, yetkazilgan zararining hajmi, badanga shikast yetkazish turi, o'g'irlangan narsalar miqdori, ayb xususiyati, jinoyat sodir etish bosqichlari, tajovuz motivli va maqsadining xususiyatlari hamda boshqa belgilari ijtimoiy xavflilik darajasini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini hisobga olib, vakolatli organlarning xodimlari (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud) sodir etilgan qilmishning kam ahamiyatlilikka ega yoki ega emasligini aniqlaydi. Har qanday holatda ham qilmishning kam ahamiyatliligi uning jinoiyligini istisno etadigan holat singari, ushbu guruhdagi boshqa holatlarga xos bo'lgan bunday ijtimoiy foydali xossalarga ega bo'lmasligi hisobga olinishi kerak.

Qilmishning kam ahamiyatliligida ham aybdorlik va qonunga xiloflik singari jinoyat belgilari saqlanib qoladi. Buni hisobga olish bilan sodir etilgan muayyan tajovuzning kam ahamiyatliligini belgilashda aybning motivi, maqsadi va shaklidan, qasd mavjudligida esa uning yo'nalishidan kelib chiqish zarur.

Qilmishning kam ahamiyatliligini belgilashda zarar miqdori muhim ahamiyatga ega. Aynan yetkazilgan zarar biror shaxsning hayotiga qay darajada ta'sir qilganligi yoki biror shaxsning mulkiga qay darajada ziyon yetkazilgani aniqlanadi. Misol uchun, bir shaxsni bir yoki ikki tarsaki urish, aslida, bu jinoyat, bu qilmishda jinoyat belgilari bor, lekin bu qilmish o'sha jabrlanuvchining sog'lig'iga hech qanday jiddiy ziyon



yetkazmaydi. Shuningdek, bu qilmishda ijtimoiy xavflilik yo'q, shuning uchun jinoyat qonuni bu qilmishni jinoyat deb topmaydi.

Davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan zarar ham ijtimoiy xavfli bo'lmasa, jinoyat deb topilmaydi. Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish joizki, qilmishning kam ahamiyatliligini belgilashda zarar yetkazuvchining shaxsiy xususiyatlari, ya'ni uning ilgari sudlanganligi, xavfli yoki o'ta xavfli retsidivist ekanligi inobatga olinmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar jinoyat qonunchiligida muhim institutlardan biri sanalib, uning milliy qonunchilik tizimida mavjudligi va bu qadar ahamiyatga ega ekanligi inson huquq va erkinliklari, davlat va jamiyat manfaatlari ustunligi bilan belgilanadi. Bunda, avvalo, jinoyat qonunchiligi nazariyasida mavjud bo'lgan qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasiga yangicha ta'rif berish zarurati paydo bo'ladi.

Shu sababli qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar mazmunini quyidagicha o'zgartirishni taklif qilamiz: *qilmishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjuddek ko'rinsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy yoki aybli bo'lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi.* Bunda "mavjud bo'lsa-da" jumlasini o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'lib, o'zgartirilgan "mavjuddek ko'rinsa-da" jumlasini orqali, aslida, shunday alomatlar mavjud emas, degan tushuncha paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, biz qonunchilik tizimiga taklif qilayotgan yangi va o'zgartirilgan tartibdagi normalarning nazariy sharhini jinoyat huquqining nazariy manbalariga kiritish lozim.

## REFERENCES

1. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General section. Textbook. Tashkent, Yangi asr avlodi Pulb., 2009, p. 321.
2. Rustamboyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General section. Textbook. Tashkent, Ilm-Ziyo Pulb., 2005, p. 227.
3. Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General section. Textbook. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs, 2012, p. 411.
4. Nukelenko A.V. Obstoyatel'stva, isklyuchayushiye prestupnost' deyaniya: kontseptual'nye osnovy ugovovno-pravovoy reglamentatsii [Circumstances excluding the criminality of an act: conceptual foundations of criminal legal regulation]. Abstract of PhD thesis. St. Peterburg, 2019, p. 7.
5. Smirnova L.N. Obstoyatel'stva, isklyuchayuushchiye presiupnost' deyaniya po zakonadatel'stvu nekotorykh zapadno-yevropiskikh gosudarstv [Circumstances precluding the offense of an act, according to the legislation of some Western European states]. *Law*, 2010, January 17.
6. Golik YU.V. Voploshcheniye metoda pooshchreniya v normakh ugovovnogo prava [The embodiment of the method of encouragement in the norms of criminal law]. Topical issues of state and law at the present stage. Conference proceedings. Tomsk, 1982, p. 143.
7. Baulin Yu.V. Obstoyatel'stva, isklyuchayushchiye prestupnost' deyaniya [Circumstances precluding the criminality of the act]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2015, p. 42.



UDC: 343.9(035.3) (575.1)

# РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ НОРМ УГОЛОВНОГО КОДЕКСА, ПРЕДУСМАТРИВАЮЩИХ УГОЛОВНУЮ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ЛЕГАЛИЗАЦИЮ ПРЕСТУПНЫХ ДОХОДОВ: НАЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ АСПЕКТЫ

**Фазилов Фарход Маратович,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
и.о. доцента кафедры Уголовное право,  
криминология и противодействие коррупции  
Ташкентского государственного юридического университета  
ORCID: 0000-0001-8603-1948  
e-mail: fazilov.farhod@gmail.com

**Аннотация.** В статье анализируется общее понятие отмыывания денег. Автор обращает внимание на то, что легализация преступных доходов представляет собой серьезную угрозу национальной безопасности, поскольку является необходимым условием порождения и функционирования организованной преступности в различных сферах жизни общества. Под легализацией доходов следует понимать придание виновным правомерного вида происхождению денежных средств или другого имущества, полученных в результате преступной деятельности, путем перевода, превращения или обмена, а также сокрытия либо утаивания подлинного характера, источника, местонахождения, способа распоряжения, перемещения, подлинных прав в отношении денежных средств или иного имущества либо его принадлежности.

**Ключевые слова:** преступление, уголовная ответственность, преступные доходы, отмыывание денег, легализация, наказание.





## JINOYAT KODEKSIDA JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BELGILANGAN NORMALARINI RETROSPEKTIV TAHLILI: MILLIY VA XALQARO JIHATLAR

**Fazilov Farxod Maratovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası  
dotsent v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning umumiy tushunchasi tahlil qilingan. Muallif e'tibori jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jamiyat hayotining turli sohalarida uyushgan jinoyatchilik yuzaga kelishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoit yaratishi tufayli milliy xavfsizlikka jiddiy tahdid solish mumkinligiga qaratilgan. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish – pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, ularni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbayi, turgan joyi, tasarruf etish, ko'chirish usuli, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlari yoki ularning kimga qarashliligini yashirish yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish.

**Kalit so'zlar:** jinoyat, jinoiy javobgarlik, jinoiy daromadlar, pul yuvish, legallashtirish, jazo.

## RETROSPECTIVE ANALYSIS OF CRIMINAL LIABILITY FOR MONEY LAUNDERING: NATIONAL INTERNATIONAL ASPECTS

**Fazilov Farkhod Maratovich,**

Acting Associate Professor of the Department of the

Criminal law, criminology

and fight against corruption of Tashkent State University of Law,

Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences

**Abstract.** The article analyzes the general concept of money laundering. The author draws attention to the fact that the legalization of criminal proceeds is a serious threat to national security, since it is a necessary condition for the generation and functioning of organized crime in various spheres of society. Money laundering should be understood as giving the perpetrators a legal form of the origin of funds or other property obtained as a result of criminal activity, by transferring, transforming or exchanging, as well as concealing the true nature, source, location, method of disposal, movement, true rights in relation to money or other property or its belongings.

**Keywords:** crime, criminal liability, proceeds of crime, money laundering, legalization, punishment.

## Введение

Каждое преступление имеет свою историю происхождения, криминального развития и динамику изменения. К числу самых древних преступлений принято относить убийство, кражу, изнасилование, посягательство на религиозные святыни и т. д. Исследователи отмечают, что по мере развития общества, появления новых общественных отношений, изменения представлений людей о социальных ценностях круг преступных деяний не оставался неизменным, он главным образом расширялся [1, с. 43-44].

На сегодняшний день отсутствуют какие-либо доказательства, указывающие на происхождения терминов «отмывание денег» и «легализация преступных доходов».

## Материалы и методы

В ходе исследования использованы научно-теоретические взгляды ученых-правоведов развитых стран по вопросам противодействия легализации преступных доходов.

При проведении исследования были использованы сравнительно-правовой метод, методы анализа, синтеза, дедукции и индукции.

## Результаты исследования

Однако, исходя из исторического контекста, этот термин имеет неоднозначное происхождение.

Сам феномен незаконного перемещения денежных средств и их слияния с законными экономическими ресурсами описан еще в китайской летописи и датируется примерно 3000 гг. до н.э. [2, с. 12].

Законы вавилонского царя Хаммурапи (1792–1750 гг. до н.э.) предусматривали процедуру установления законности происхождения вещи с проверкой показаний владельца о ее добросовестном приобретении. Подобные нормы содержались в законах Древней Индии (Артхашастра Каутильи – 321–297 гг. до н.э.) и Древней Греции (Законы Солона – 594–593 гг. до н. э.).

Изучение ряда источников показывает, что в эпоху Римской республики (508–30 гг. до н. э.) можно было обнаружить немало свидетельств действий, подобных легализации имущества. Патрициат отмывали в прямом и переносном смысле имущество, добытое в войнах. Это были наиболее ценные вещи (определенные изделия из золота и драгоценности), которые присваивались, хотя подлежали сдаче государству [3].

Наличие крупных денежных сумм неизвестного происхождения быстро попадало в поле зрения государственных органов и становилось основанием для расследования. Так, ст. XLIII «О достаточном подозрении в краже» Уголовно-судебного уложения Каролина (1532 г.) предусматривает порядок проверки законности происхождения имущества с возложением бремени доказывания на подозреваемого: «Если сыщется или будет обнаружено у подозреваемого краденое имущество, и если он обладал им полностью или частично, продавал, менял или дарил его, то это служит против него достаточной уликой преступления, если он не захочет указать, у кого он купил или приобрел это имущество, и если он не



докажет, что он приобрел его не преступным и не наказуемым образом, а вполне добросовестно» [4, с. 720].

Практика сокрытия доходов, полученных от незаконной деятельности, упоминается также в Средние века, когда ростовщичество было объявлено преступлением. Торговцы и ростовщики уклонялись от законов, карающих ростовщичество, и скрывали свои доходы с помощью хитроумных схем.

Начало пиратства и сокрытие грабежа теми, кто практиковал пиратство, уходит еще дальше, по сути, пираты стали пионерами в практике отмыывания золота.

Все началось с появлением так называемых «финансовых гаваней», которыми пользовались пираты, нападавшие в начале VIII в. на торговые корабли, шедшие из Европы через Атлантику: им тоже приходилось «отмывать» награбленное добро. Устав от нелегкого ремесла, недавние пираты стремились поселиться за границей, где спокойно и в достатке доживали свой бурный век. Города-государства Средиземноморья даже конкурировали друг с другом, стремясь завлечь к себе на поселение отошедших от дел корсаров с их несметными богатствами. Бывало и так, что особо ностальгирующие пираты расплачивались на родине награбленным добром, покупая себе прощение сограждан. Например, в 1612 г. произошло событие, которое вполне можно считать первым случаем амнистии преступных денег в новое время: пиратам, покончившим со своим ремеслом, Англия предложила полную амнистию, с правом сохранения нажитого имущества [5].

Согласно легенде, сам термин «отмывание денег» появился в США в 1920-х гг., когда организованная преступность использовала прачечные, чтобы скрыть незаконные источники своих доходов [6, с. 375].

Другая версия гласит, что термин «отмывание денег» вошел в употребление после дела Майера Лански в США в 1932 г. Лански открыл офшорный счет в швейцарском банке, который использовался для сокрытия преступных доходов губернатора Луизианы Хью Лонга. Позже Лански основал магазин игровых автоматов в Новом Орлеане, а швейцарский банк предоставил средства в виде ссуд компании Lansky & Co [7, с. 2]. С помощью этого метода он позволил незаконным деньгам вернуться в Соединенные Штаты Америки.

Сам Мейер Лански не использовал данный термин. Отмывание впервые упомянули в британской газете The Guardian в связи с освещением в прессе материалов слушаний по Уотергейтскому скандалу. Комитет по переизбранию президента США Ричарда Никсона переправил в Мексику 200 тыс. долл. США в качестве пожертвований, затем эти денежные средства вернулись через фирму в Майами и использовались в предвыборной кампании Р. Никсона [8, с. 398].

#### **Анализ результатов исследования**

*I этап.* Криминализация финансовых операций с собственностью, полученной от незаконной торговли наркотиками (1920-е – конец 1980-х гг.) – установление необходимости ограничения банковской тайны, признание недопустимым использование кредитных учреждений в целях отмывания денег и

принятие мер для установления уголовной ответственности за отмыwanie денег, полученных от незаконного оборота наркотических и психотропных веществ.

*II этап.* Криминализация отмыwania доходов от большинства видов преступной деятельности (конец 1980-х – конец 1990-х гг.) – установление обязанности принятия всех необходимых мер, чтобы криминализировать отмыwanie доходов, полученных в результате совершения любого преступления. Исполнение принятых в качестве обязательных для исполнения обязательств контролируется специально созданной межправительственной международной группой FATF, отрицательные заключения которой влекут для государств неблагоприятные последствия [9, с. 35].

*III этап.* Криминализация финансирования терроризма (конец 1990-х – 2012 г.) – признание государствами необходимости криминализировать наряду с отмыванием доходов, полученных преступным путем, качественно новое общественно опасное деяние – финансирование терроризма.

*IV этап.* Криминализация использования новых технологий в отмывании преступных доходов (2012 г. – до настоящего времени) – появление современных технологий, таких как виртуальные активы, криптовалюты, электронные кошельки, денежные переводы посредством Интернет стали новой угрозой в вопросах легализации преступных доходов.

Если проводить ретроспективный анализ уголовного законодательства по противодействию легализации доходов, полученных от преступной деятельности, можно сделать вывод о том, что в период до обретения независимости Республикой Узбекистан в Уголовных кодексах Узбекской ССР отсутствовал такой состав преступления. Это объясняется, прежде всего, тем, что на международно-правовой арене понятие легализации доходов, полученных от преступной деятельности, появилось впервые в Конвенции ООН «О борьбе с незаконной перевозкой наркотиков и психотропных средств» лишь в 1988 году.

Советская власть, как известно, упразднила частную собственность. Однако в Уголовном кодексе УзССР 1926 г. имелаась норма, в некоторой степени сходная с отмыванием незаконно полученных доходов.

Следующий Уголовный кодекс 1959 г. содержал более общую норму – устанавливалось наказание за приобретение или сбыт имущества, заведомо добытого в результате совершения преступления. Как правило, предмет данного преступления представлял собой вещи, относящиеся к социалистической собственности, полученные зачастую при совершении хищений, а также при совершении других преступных посягательств, например, незаконной рубки леса или контрабанды. При установлении признаков состава рассматриваемого преступления необходимо было установить состав первоначального преступления, при совершении которого была получена вещь, что значительно усложняло применение нормы [10, с. 386].

Так, в Уголовном кодексе УзССР от 1926 г. в главе I «Государственные преступления» в ст. 81, 82, 83 присутствовали нормы, схожие с анализируемым составом преступления, а именно:





1. Соккрытие наследственного имущества или имущества, переходящего по актам дарения, в целом или в части, а равно искусственное уменьшение стоимости имущества в целях обхода законов о наследовании и дарении, а также закона о налоге с наследств и имуществ, переходящих по актам дарения...

2. Организованное по взаимному соглашению соккрытие или неверное показание о количествах, подлежащих обложению или учету предметов или продуктов...

3. Соккрытие или неверное показание о размере земельной площади и количестве живого и метрового сельскохозяйственного инвентаря, подлежащих учету при проведении земельной реформы для конфискации или принудительного выкупа, а также растрата или хищение уже принятого на учет местными земельными комиссиями имущества.

В Уголовном кодексе 1959 г. схожие статьи находят свое отражение в главах III-IV «Преступления против социалистической собственности» и «Преступления против личной собственности граждан»:

– ст. 121 «Приобретение или сбыт имущества, заведомо добытого преступным путем – если имущество государственное или общественное»;

– ст. 132 «Приобретение или сбыт имущества, заведомо добытого преступным путем – если имущество принадлежит на праве личной собственности».

Исследовав нормы двух Уголовных кодексов, можно сделать вывод, что если в редакции Уголовного кодекса от 1926 г. схожие легализации преступных доходов преступления относились к категории преступлений против порядка управления, то в более поздней редакции от 1959 г. акцент был сделан на имущественной, экономической природе преступления. Подобный подход к данной категории преступлений отражен и в редакции более поздних Уголовных кодексов.

В СССР, где рыночная экономика сводилась к минимуму, легализация преступных доходов была практически невозможна, что значительно препятствовало росту экономической преступности [11, с. 162].

В Уголовном кодексе 1994 г. легализация доходов, полученных от преступной деятельности, как преступление нашло свое отражение в ст. 243. Первоначально диспозиция статьи гласила: легализация доходов, полученных от преступной деятельности, т. е. перевод, превращение или обмен собственности, полученной в результате преступной деятельности, а равно соккрытие или утаивание подлинного характера, источника, местонахождения, способа распоряжения, перемещения, подлинных прав в отношении собственности или ее принадлежности, если такая собственность получена в результате преступной деятельности [12].

Ст. 243 в редакции Закона Республики Узбекистан от 22 сентября 2009 г. № ЗРУ-223 изменила диспозицию: «Легализация доходов, полученных от преступной деятельности, то есть придание правомерного вида происхождению собственности (денежных средств или иного имущества) путем ее перевода, превращения или обмена, а равно соккрытие либо утаивание подлинного характера, источника, местонахождения, способа распоряжения, перемещения, подлинных прав в отношении денежных средств или иного имущества либо



его принадлежности, если денежные средства или иное имущество получено в результате преступной деятельности».

Главная цель новой редакции статьи является необходимость указать на то, что преступление должно сопровождаться приданием правомерного вида происхождению собственности. Это норма позволила отграничить обычный оборот преступных доходов от легализации.

### **Выводы**

При исследовании теории уголовного права, можно прийти к выводу о том, что любое имущество, добытое преступным путем так или иначе может быть реализовано. Однако это не всегда является обязательным признаком легализации. Лишь при наличии субъективной стороны, а именно – желании придать правомерный вид преступному доходу, есть возможность квалификации по соответствующей статье Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Постановление Пленума Верховного суда «О некоторых вопросах судебной практики по делам о легализации доходов, полученных от преступной деятельности» от 11 февраля 2011 г. гласит, что судам следует различать легализацию доходов от преступления в виде приобретения или сбыта имущества, добытого преступным путем. В частности, не образует состава легализации доходов (ст. 243 Уголовного кодекса), приобретение или сбыт имущества, которое было получено в результате совершения преступления (например, хищения чужого имущества) иными лицами, если такому имуществу не придается видимость правомерно приобретенного (например, подделан технический паспорт либо доверенность на продажу украденного автомобиля).

В зависимости от конкретных обстоятельств дела (в частности, от цели совершения сделки с похищенным имуществом), указанные действия могут быть квалифицированы как соучастие в хищении чужого имущества (в форме пособничества) либо приобретение или сбыт имущества, добытого преступным путем (ст. 171 Уголовного кодекса), а при наличии к тому оснований – и как подделка документов.

На сегодняшний день легализация доходов, полученных от преступной деятельности, считается преступлением международного характера [12, с. 52.].

Легализация доходов – системное сложное явление, противодействие которому должно осуществляться в соответствии с адекватной стратегией государства. Концепция совершенствования уголовного и уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан от 14 мая 2018 г. поставила перед государственными институтами именно такую задачу. В соответствии с документом необходимо провести инвентаризацию уголовного законодательства на предмет его унификации и приведения в соответствие с передовыми международными стандартами и зарубежными практиками, в том числе и по транснациональным преступлениям, каковым и является легализация преступных доходов.

С момента принятия Закона Республики Узбекистан «О противодействии легализации доходов, полученных от преступной деятельности, финансированию



терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения» от 26 августа 2004 г. в стране планомерно создавалась государственная система противодействия легализации преступных доходов, которая должна была соответствовать современным международным стандартам.

Закон дал такое определение данному преступлению: «легализация доходов, полученных от преступной деятельности, – уголовно наказуемое общественно опасное деяние, представляющее собой придание правомерного вида происхождению денежных средств или иного имущества путем их перевода, превращения или обмена, а равно сокрытие либо утаивание подлинного характера, источника, местонахождения, способа распоряжения, перемещения, подлинных прав в отношении денежных средств или иного имущества либо его принадлежности, если денежные средства или иное имущество получены в результате преступной деятельности».

По смыслу ст. 243 Уголовного кодекса Республики Узбекистан под легализацией доходов, полученных от преступной деятельности, понимается придание правомерного вида происхождению собственности (денежных средств или иного имущества) путем ее перевода, превращения или обмена, а равно сокрытие либо утаивание подлинного характера, источника, местонахождения, способа распоряжения, перемещения, подлинных прав в отношении денежных средств или иного имущества либо его принадлежности, если денежные средства или иное имущество получено в результате преступной деятельности.

Постановление Пленума Верховного суда «О некоторых вопросах судебной практики по делам о легализации доходов, полученных от преступной деятельности» от 11 февраля 2011 г. гласит, что в качестве объекта собственности в данном случае может быть любое имущество, предусмотренное ст. 169 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, в том числе виртуальные активы (криптовалюта и др.).

Придание правомерного вида происхождению такой собственности заключается, как правило, в совершении финансовых операций и других сделок с денежными средствами или иным имуществом [13, с. 30].

## REFERENCES

1. Groshev A.V. Pravosoznaniye i pravotvorchestvo (ugolovno-pravovoy aspekt) [Legal consciousness and law-making (criminal-legal aspect)]. Yekaterinburg, 1996, pp. 43–44.
2. Seagrave S. Lords of the Rim: the Invisible Empire of the Overseas China. Putnam, 1995, p. 12.
3. Djurant V. Cezar' i Hristos [Caesar and Christ]. Trans. from Engl. V.V. Fedorina. Moscow, 1995.
4. Krashennnikova N.A., Lisenko O.L., Savelyev V.A. et al. Istoriya gosudarstva i prava zarubejnyx stran. Drevniy mir i Sredniye veka [History of the state and law of

foreign countries. Ancient World and Middle Ages]. 3rd ed., revised. and additional, in 2 vol. Moscow, Jur. Norma, NIC INFRA-M, 2017, vol. 1, 720 p.

5. Formula bezopasnosti [Safety Formula]. Bulletin, 2000, no. 7. Available at: [http://www.oxpaha.ru/profi/lesmi\\_106\\_609/](http://www.oxpaha.ru/profi/lesmi_106_609/).

6. Schroth P.W. Bank Confidentiality and the War on Money Laundering in the United States. *The American Journal of Comparative Law*, 1994, vol. 42, p. 375.

7. Shehu A. Money-Laundering. *The Challenge of Global Enforcement*, 2000, p. 2.

8. Safire W. Safire's New Political Dictionary. N.Y., Random House, 1993, p. 398.

9. Txayshaov Z.A. Legalizatsiya (otmivaniye) doxodov, priobretennix prestupnim putem: zakonodatelniye i pravoprimenitelniye aspekti. Po materialam sudebnoy praktiki Krasnodarskogo kraja i Respubliki Adigeiya [Legalization (laundering) of proceeds from crime: legislative and law enforcement aspects. Based on the materials of judicial practice of the Krasnodar Territory and the Republic of Adygea]. PhD thesis. 12.00.08. Moscow, RGB, 2005, p. 35.

10. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu RSFSR [Commentary on the Criminal Code of the RSFSR]. Rep. ed. V.I. Radchenko; scientific ed. A.S. Mikhlin, I.V. Shmarov. Moscow, 1994, p. 386.

11. Ne'matov J.A. Ugolovno-pravoviye problemi mejdunarodnogo sotrudnichestva v borbe s legalizatsiyey doxodov, poluchennix ot prestupnoy deyatelnosti [Criminal-legal problems of international cooperation in the fight against the legalization of proceeds from crime]. PhD thesis. 12.00.08. Tashkent, 2002, p. 162.

12. Karimov H. Jinoyat faolijatdan olingan daromadlarni legallashtirish uchun javobgarlik: qiyosiy huquqiy tahlil [Liability for money laundering from criminal activity: a comparative legal analysis]. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi – Bulletin of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan*, 2018, no. 2 (34), p. 52.

13. Tulyaganova G., Xidoyatov B. Ponyatiye legalizatsii prestupnix doxodov [Concept of money laundering]. Legal aspects of combating corruption and legalization of proceeds from crime. Collection of materials of the Republican scientific and practical conference. Tashkent, 2019, p. 30.

UDC: 343.23(045)(575.1)

# JINOYAT OBYEKTIV TOMONINING JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLARNI TASNIFLASHDAGI O'RNI

**Islomov Bunyod Ochilovich,**

“KDB Bank O‘zbekiston” AJ bosh yuriskonsulti,  
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi  
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0001-8827-4900

e-mail: bunyodislomov@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada jinoyat huquqida jinoyat obyektiv tomoni tushunchasi tahlil qilinib, jinoyat tarkibi mazkur elementining jazoni yengillashtirish institutining amal qilishida tutgan o‘rni izohlangan. Jinoyat huquqi nazariyasida jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarni tasniflashda jinoyat tarkibi elementlaridan mezon sifatida foydalanish umumqabul qilingan yondashuvlardan biri hisoblansa-da, olimlar o‘rtasida jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tasniflash borasida, xususan, jinoyat tarkibi elementlaridan mezon sifatida foydalanishga doir yagona nuqtayi nazar mavjud emas. Shu munosabat bilan maqolada, asosan, huquq tizimi va jinoyat qonunchiligi huquqiy mazmuni jihatidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksiga yaqin sanalgan Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlarining jinoyat obyektiv tomoni tushunchasi hamda jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tasniflashga oid fikrlari ko‘rib chiqilib, bu borada jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tasniflashda jinoyat tarkibi elementlaridan biri bo‘lmish jinoyat obyektiv tomoniga alohida e‘tibor qaratilgan, jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tasniflash yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar, jazoni individuallashtirish, jazoni yengillashtirish, aybdor shaxsi, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish.

## РОЛЬ ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ В КЛАССИФИКАЦИИ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ, СМЯГЧАЮЩИХ НАКАЗАНИЕ

**Исломов Бунёд Очилович,**

главный юрисконсульт АО “КДБ Банк Узбекистан”,  
самостоятельный соискатель Академии Министерства внутренних дел  
Республики Узбекистан

**Аннотация.** В статье проведен анализ понятия объективной стороны преступления и раскрыта роль настоящего элемента состава преступления при действии института смягчения наказания. В теории уголовного

права использование элементов состава преступления при классификации обстоятельств, отягчающих наказание, хотя и считается одним из общепризнанных подходов, однако среди ученых отсутствует единая точка зрения касательно классификации обстоятельств, смягчающих наказание, в частности рассмотрения при этом элементов состава преступления в виде критерия. В связи с этим, в статье рассмотрены точки зрения ученых стран Содружества независимых государств, правовая система и уголовное законодательство которых являются схожими по правовому содержанию с действующим Уголовным кодексом Республики Узбекистан касательно понятия объективной стороны преступления и вопросов классификации обстоятельств, смягчающих наказание, при этом при классификации обстоятельств, смягчающих наказание, особое внимание уделено роли объективной стороны преступления, являющейся одним из элементов состава преступления, выдвинуты предложения в плане классификации обстоятельств, смягчающих наказание.

**Ключевые слова:** обстоятельства, отягчающие наказание, индивидуализация наказания, смягчение наказания, личность виновного, освобождение от уголовной ответственности.

## THE ROLE OF THE OBJECTIVE SIDE OF THE CRIME IN THE CLASSIFICATION OF MITIGATING FACTORS

**Islomov Bunyod Ochilovich,**

Senior Legal Adviser of “KDB Bank Uzbekistan” JSC,  
Independent Researcher of the Academy  
of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** In this article, an in-depth analysis of the definition of the objective side of the crime is performed and clarification of the role of this element of the composition of the crime in the operation of the institution of mitigation of punishment is made. In the theory of criminal law, although the elements of the composition of crime in the classification of aggravating factors are considered one of the generally recognized approaches, however, there is no common point of view among scientists regarding the classification of mitigating factors, in particular the consideration of elements of the composition of crime as criteria. In this regard, the research examines points of view of scientists of the countries of the Commonwealth of the Independent States, the legal system and criminal legislation of which are similar in legal content to the existing Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, regarding the concept of the objective side of the crime and the issues of classification of mitigating factors, while in the classification of mitigating factors, special attention is paid to the role of the objective side of the crime, which is one of the elements of the composition of crime, proposals are provided in the framework of classification of mitigating factors.

**Keywords:** aggravating factors, individualization of punishment, reduction of punishment, the personality of the offender, exclusion of criminal liability.





Bilamizki, insonning har qanday faoliyati, shu jumladan jinoiy faoliyatini ham ikki tarkibiy qismga ajratish mumkin: ma'lum bir qarorning qabul qilinishi, o'ylangan maqsadga erishishning yo'li va vositalarining anglab olinishidan iborat intellektual-irodaviy hamda aniq bir xulq-atvor orqali ushbu qarorning amalga tatbiq qilinishi bilan bog'liq bo'lgan harakatga doir. Inson faoliyatining ushbu ikkinchi tarafini ham obyektiv tomondan tan olish qabul qilingan.

Obyektiv tomon – jinoyat tarkibining to'rtta majburiy elementidan biri bo'lib, usiz jinoyatning obyektiga tajovuz ham, subyekt ongida qilmishning obyektiv belgilarining ma'lum bir aksi sifatidagi subyektiv tomon ham va nihoyat, jinoyat subyektini ham mavjud bo'la olmaydi [1, 11-12-b.]. Jinoyatning obyektiv tomoni ma'lum bir joy, vaqt hamda sharoitda kechadigan jinoiy xulq-atvorning tashqi aktini tashkil etadi [2, 7-b.]. Jinoyatning obyektiv tomonini jinoyat sodir etish jarayonining tashqi tavsifi sifatida ko'rib chiqish davomida u faqatgina qilmishning subyektiv, ruhiy mazmuniga nisbatan "tashqi" bo'lishini nazarda tutish lozim. Biroq jinoyatning ushbu tomoni bir paytning o'zida qo'riqlanayotgan obyektga nisbatan jinoiy tajovuz mexanizmining o'zi uchun ichki tavsif sanaladi, chunki u o'zini tashkil qiluvchi belgilarning ichki tuzilishi hamda o'zaro ta'sirini ochib beradi [3, 11-b.].

Belgilarni asosiy (zaruriy) hamda fakultativ belgilarga ajratish qabul qilingan bo'lib, asosiy belgilarga barcha jinoyat tarkiblariga xos bo'lgan belgilar, fakultativ belgilarga esa faqatgina ularning ayrimlariga taalluqli bo'lgan belgilar kiradi. Ya'ni jinoyat tarkibining har bir elementi o'z asosiy hamda zaruriy belgilariga ega. Shunday qilib, jinoyat sodir etish usuli, vaqti, joyi, sharoiti, vosita va qurollar jinoyatning obyektiv tomonini ushbu belgilarining ikkinchi darajali ekanligini anglatmaydi, chunki, birinchidan, ular aniq jinoyat-huquqiy norma dispozitsiyasida mustahkamlangan taqdirda, majburiy belgiga aylansa, ikkinchidan, ushbu belgilar har bir jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar qatoriga kiritilishi bois muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, obyektiv tomon o'z mazmuni jihatidan jinoyat tarkibi butun bir tuzilishining fundamenti sanaladi va shu bois Jinoyat kodeksi (keyingi o'rinlarda JK) Maxsus qismi normalarining asosiy mazmunini aks ettiradi. Fakultativ belgilar qo'shimcha ravishda jinoyat tarkibining barcha elementlari: a) obyektga nisbatan – qo'shimcha obyekt, jinoyat predmeti; b) obyektiv tomonga nisbatan – jinoyat sodir etish usuli, vaqti, joyi, sharoiti, qurol va vositalari; d) subyektiv tomonga nisbatan – motiv, maqsad, hissiyotlar; e) subyektga nisbatan – maxsus subyektning tavsiflashi mumkin [1, 13-16-b.].

Sud amaliyotining o'rganilishi jinoyatning ushbu belgilari aniqlanishiga nisbatan e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lish tegishli jinoyat-huquqiy normalar qo'llanishida xatoliklarga sabab bo'lishi mumkinligidan guvohlik berib, bu fuqarolarning jinoyat sud ish yurituvidagi huquqlarining jiddiy ravishda buzilishiga olib keladi. Masalan, jinoyat sodir etish joyi jinoyatning konstruktiv belgisi sifatida namoyon bo'lgan hollarda, jinoyatning boshqa joyda sodir etilganining aniqlanishi yoki qilmishda jinoyat tarkibining umuman mavjud bo'lmasligini anglatadi yoxud jinoyatning JK boshqa moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi [4, 11-b.]. Shuningdek, fakultativ belgilarning muhim ahamiyati to'g'risida A.V. Naumovning ta'kidlashicha,

ushbu holatlar qonunda aks etmagan bo'lsa ham, har qanday sharoitda ular jinoyatni predmetli qiladi hamda aniq bir jinoiy harakat (harakatsizlik)ni individuallashtiruvchi omillar sanalishi tufayli jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga ta'sir o'tkazuvchi sifat tavsiflariga ega [5, 172-b.]. Ayrim mualliflarning fikricha, jinoyat tarkibining fakultativ belgilari ko'pincha yordamchi rol bajaradi [6, 165-b.].

Demak, jinoyat obyektiv tomonining quyidagi holatlarda namoyon bo'ladigan ahamiyati jinoyatning kvalifikatsiyasi va, o'z navbatida, bilvosita jazo tayinlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi: jinoyat tarkibi elementlaridan biri sanalishi tufayli jinoiy ta'qibni asoslantirish uchun zarur hisoblanadi; u butun bir qilmish hamda eng yaxshi darajada uni sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi darajasidan dalolat beradi; unga qarab jinoyat tamomlangan payt aniqlanadi, qasddan jinoyat sodir etishning bosqichlari differentsiatsiya qilinadi hamda javobgarlik individuallashtiriladi; u obyekt hamda jinoyat tarkibining boshqa elementlari bo'yicha bir-biriga o'xshash bo'lgan jinoyatlarni bir-biridan ajratish, shuningdek jinoyatlarni boshqa sohalaridagi huquqbuzarliklardan ajratish uchun qo'llaniladi; u subyektiv fikr g'oyasi bilan bir qatorda jinoyat-huquqiy ayblovning asosiga qo'yilishi lozim [7, 55–56-b.].

A.F. Parfenov esa jinoyat tarkibining fakultativ belgilari jinoyat huquqida quyidagi ko'rinishlarda jinoyatlarning kvalifikatsiyasi uchun ikki hissa ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi [1, 37-b.]:

a) jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida namoyon bo'lishi (masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keyingi o'rinlarda – O'R JK) 202-moddasi birinchi qismi, 218-moddasi, 222-moddasi birinchi qismi, 287-moddalari);

b) jinoyat tarkibining kvalifikatsiyalovchi belgisi sifatida namoyon bo'lishi (masalan, O'R JK 97-moddasi ikkinchi qismi "d", "ye", "j", "i" "k", "m" bandlari, 164-moddasi uchinchi qismi "v" bandi, 165-moddasi uchinchi qismi "b" bandi, 169-moddasi ikkinchi qismi "g" bandi);

d) og'irlashtiruvchi yoxud yengillashtiruvchi holat sifatida namoyon bo'lishi (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "v", "g", "ye" bandlari, 56-moddasi birinchi qismi "d", "ye", "z", "i", "k", "l" bandlari) mumkin.

Demak, jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilari yengillashtiruvchi jinoyat tarkiblarining tuzilishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, jinoyat sodir etish vaqti JK Maxsus qismida yengillashtiruvchi jinoyat tarkiblarini tuzishda ahamiyatlidir. Misol uchun, O'R JK 99-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomonini onaning o'z chaqalog'ini tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon qasddan o'ldirishi tashkil qilib, bu yerda jinoyat sodir etish vaqti qilmishning kriminalizatsiyasini kamaytiruvchi yoxud yengillashtiruvchi zaruriy belgi sanaladi. Ya'ni jinoyatning aynan "tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon" sodir etilishi ushbu qilmishni O'R JK 99-moddasiga muvofiq kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'ladi. Ushbu vaqt doirasidan chetga chiqish qilmishning O'R JK 97- yoki 102-moddasiga ko'ra kvalifikatsiya qilinishiga sabab bo'ladi. Ya'ni M.H. Rustambayev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Odam o'ldirishning bu turi jazoni yengillashtiruvchi holatlarda odam o'ldirish jumlasiga kiradi, chunki jinoyat tug'ayotgan ayolning tug'ish paytidagi yoki bevosita tug'ishdan keyingi alohida ruhiy-jismoniy holati natijasida sodir etiladi" [8, 65-b.].



Shunday qilib, jinoyat obyektiv tomoni zaruriy va fakultativ belgilarining roli hamda ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, obyektiv tomon nazariy ahamiyat kasb etib, u jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni tasniflashda mezon vazifasini o'taydi; ikkinchidan, obyektiv tomon, shubhasiz, jinoiy javobgarlikning obyektiv asosi sanaladi; uchinchidan, ushbu belgilarning barchasi har bir jinoyat ishi yuzasidan isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar doirasiga kirgan [9, 81–128-b; 10, 139–156-b.]; to'rtinchidan, JK Maxsus qismi normalarida moddaning asosiy qismi, ya'ni bunday belgilar dispozitsiyasini obyektiv tomon aks ettirib, o'xshash bo'lgan jinoyat tarkiblarining bir-biridan ajratilishida qo'llanadi; beshinchidan, ushbu belgilar yengillashtiruvchi jinoyat tarkiblarining tuzilishida ishtirok etgan holda, jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida namoyon bo'ladi va aksincha, bunday belgilarning ayrimlari jazoni og'irlashtiruvchi holatlar doirasiga mansubligi sababli jinoyat tarkibining kvalifikatsiyalovchi belgisi sifatida namoyon bo'lishi mumkin; oltinchidan, ushbu belgilar O'R JK 55- va 56-moddalari doirasida bevosita jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holat sanalmasa-da, ayrim bunday holatlar jinoyat obyektiv tomonining belgilari bilan bog'liq holda jazoning individuallashtirilishiga ham ta'sir ko'rsatadi (misol uchun, og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgisi sanaladigan "jinoyat sodir etish sharoiti"ni tavsiflab, qilmishda ushbu holatning mavjudligi jazoning yengillashtirilishiga sabab bo'ladi); yettinchidan, ushbu belgilar O'R JK Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoning tayinlanishiga ta'sir o'tkazishi mumkin, chunki O'R JK 57-moddasida jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar ro'yxatiga jinoyat sodir etish sharoiti va sabablari, shaxsning jinoyatni sodir qilguncha va undan keyingi xulq-atvori ham kiritiladi.

O'R JK 55-moddasi birinchi qismida jinoyatning obyektiv tomoni asosiy belgilari qatoridan jinoyat oqibati ("ye" bandi), fakultativ belgilari qatoridan jinoyat sodir etish sharoiti ("v" bandi), usuli ("g" bandi) o'rin olgan bo'lib, unda jinoyat sodir etish vaqti, qurol va vositalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan holatlar o'z ifodasini topmagan. Ayni paytda O'R JK 56-moddasi birinchi qismida jinoiy oqibat ("z" bandi), jinoyat sodir etish usuli ("d", "ye" bandlari), vaqti hamda sharoiti ("i" bandi) bilan bog'liq og'irlashtiruvchi holatlar o'z ifodasini topgan. Bu holatlar obyektiv tomonning nazariy ahamiyatini tavsiflovchi jihatlardan biri sanaladi.

Bundan tashqari, jinoyatning fakultativ belgilari bilan bir qatorda jinoiy oqibatlar ham jazoning individuallashtirilishiga ta'sir o'tkazadi. Bu borada N.F. Kuznetsova haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Jinoyat oqibatlarining ijtimoiy xavfliligi, shuningdek normaning sanksiyasida o'rnatiladigan jazo turi va miqdorining og'irligi orqali ham baho beriladi. Oqibatlar qanchalik og'ir bo'lsa, boshqa xuddi shunga teng shart-sharoitlarda sanksiyada nazarda tutilgan javobgarlik shuncha kuchli bo'ladi va aksincha. Jinoyat-huquqiy norma sanksiyasini tuzayotganda, oqibatlarning og'irligiga to'g'ri baho berilishi – aniq bir jinoyatlar sodir etilgani uchun tayinlanadigan jazo adolatli

bo'lishining zaruriy shartidir. ... Jazoni individuallashtirishda sud nafaqat amalda yuzaga kelgan, balki keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlarni ham hisobga oladi" [11, 192-b.].

Obyektiv tomon belgilari tizimida jinoiy oqibatlarning roli ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ko'pincha qonun chiqaruvchining yondashuvi bilan belgilanadi, ya'ni qonun chiqaruvchi bir xil xarakterga ega bo'lgan bir jinoiy oqibatning ahamiyatini orttirishi yoki kamaytirishi yoki aniq bir ijtimoiy xavfli oqibatni jinoiy javobgarlik doirasidan tashqariga chiqarib yuborishi yoxud, aksincha, ijtimoiy xavfli oqibatni jinoiy oqibatlar doirasiga kiritish orqali uni kriminallashtirishi mumkin [12, 40-b.]. Jinoyatning ijtimoiy xavfli oqibatlari bartaraf etib bo'lmaydigan xarakter kasb etsa-da, alohida hollarda yengillashtirilishi hamda o'rni qoplanishi mumkin. Bu oqibatlar turli amalga oshganlik darajasiga ega bo'lib, haqiqatdan yuzaga kelgan hamda haqiqatdan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarga ajratilishi mumkin. Oqibatlarning ushbu xususiyati qonunchilikda jinoyat tarkiblari tuzishda hisobga olinadi [13, 99-b.].

Bu borada V.G. Stepanovning fikricha, ijtimoiy xavfli oqibatlarning jazo tayinlashdagi roli va ahamiyati ushbu oqibatlarning jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati bilan belgilanadi, chunki busiz jazo turi va miqdorini belgilashning imkoni yo'q. Shu tariqa oqibatlarning roli quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Asosiy jinoyat tarkibining konstruktiv yoki konstruktiv-chegaralovchi belgisi sifatida namoyon bo'lar ekan, ijtimoiy xavfli oqibatlar zaruriy eng kam, ya'ni minimal shunday shart-sharoitlar sifatida namoyon bo'ladiki, aynan ushbu shart-sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda, aniq bir qilmish jinoiy hisoblanadi hamda jinoiy jazoga loyiq deb topiladi.

2. Ijtimoiy xavfli oqibatlar bir jinoyat tarkibi doirasida tajovuz obyektiga yetkaziladigan zararning xarakteri va hajmini aks ettirib, jinoyat tarkibining kvalifikatsiyalovchi (masalan, O'R JK 169-moddasi ikkinchi qismi "b" bandi – o'g'irlikning ancha miqdorda sodir etilishi; uchinchi qismi "v" bandi – o'g'irlikning ko'p miqdorda sodir etilishi), alohida kvalifikatsiyalovchi (masalan, JK 169-moddasi to'rtinchi qismi "a" bandi – o'g'irlikning juda ko'p miqdorda sodir etilishi) belgilari sifatida namoyon bo'lar ekan, nisbatan og'irroq tur va miqdordagi jazo tayinlanishiga olib keladi.

3. Jinoyatning alohida kvalifikatsiyalovchi belgisi sifatida namoyon bo'lar ekan, ijtimoiy xavfli oqibatlar qilmish hamda aybdorning shaxsi ijtimoiy xavfliligining shunday darajasidan dalolat beradiki, bunda qonun chiqaruvchi tomonidan jazo maxsus qoidalar asosida tayinlanadi: ozodlikdan mahrum qilish jazosining tayinlanishi mumkin bo'lgan eng kam miqdorlari, o'ta xavfli jinoyat tarkiblari yuzasidan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining qo'llanishiga yo'l qo'yiladi.

4. Jinoiy qasd to'liq hajmda amalga oshirilganligi yoki oshirilmaganligidan kelib chiqqan holda, jinoiy oqibatlar tamom bo'lmagan jinoyat tarkiblari yuzasidan jazoning miqdoriga ta'sir o'tkazadi. Jinoyat qonunida jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va suiqasd qilganlik uchun javobgarlik hamda jazoga loyqlikni nazarda tutish orqali qonun chiqaruvchi bunday faoliyat uchun jazo tayinlashning "imtiyozli", ya'ni yengillashtirilgan tartibini nazarda tutadi.





5. Jinoiy oqibatlar retsidiv jinoyatlar uchun jazo tayinlashda hisobga olinadi.

6. Ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligi (to'liq hajmda vujudga kelmasligi) jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi yoxud yengillashtiruvchi holatlar sifatida hisobga olinadi [12, 170–172-b.].

Bundan tashqari, jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy oqibatlarning turli mezonlar asosida tasniflanishini ham uchratish mumkin [12, 79–100-b; 13, 100–154-b.].

Demak, ijtimoiy xavfli oqibatlar jinoyat huquqida asosiy ikki funksiyani bajaradi: a) jinoyat ijtimoiy xavfliligining elementi funksiyasi ("jinoyat ijtimoiy xavfliligi" kategoriyasi doirasida) – aynan ushbu oqibatlar jinoyat-huquqiy muhofazaning obyektiga zarar keltira olish darajasini belgilab beradi; b) qilmishlarni kriminalizatsiya va dekriminalizatsiya qilish uchun asos funksiyasini bajaradi [13, 35–36-b.].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jinoyatning obyektiv tomoni ham nazariyada, ham jazo tayinlashda muhim ahamiyat kasb etib, aynan shu sababdan ham jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tasniflash borasida asosiy mezonlardan biri sifatida tanladik.

Yengillashtiruvchi holatlarning ta'siri L.L. Kruglikovning nuqtayi nazaricha shunda namoyon bo'ladiki, ushbu holatlar mavjud bo'lgan taqdirda yoki tajovuzning qo'shimcha obyektiga paydo bo'ladi yoki zarar hajmi o'zgaradi yoxud jinoyat-huquqiy qo'riqlashning obyektiga ziyon yetkazish imkoniyati kamayadi. Boshqa hollarda ular shaxs jinoiy xulq-atvorini intellektual va irodaviy vaziyatlarining aniq bir mazmuniga ta'sir o'tkazish vositasida, shu jumladan motiv, maqsad va hissiyotlar orqali jinoyat hamda uni sodir qilgan shaxs ijtimoiy xavflilik darajasida namoyon bo'ladi [14, 31–32-b.].

Qonunchilik va sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, u yoki bu xarakter va miqdordagi jinoyat oqibatlarining yuzaga kelishi yoki kelmasligi, ishning boshqa holatlari qatorida moddaning sanksiyasi doirasida jazoning ko'payishi yoki kamayishiga ham qonunda nazarda tutilganidan yengilroq jazo tayinlanishi yoxud aybdorning jazodan ozod qilinishiga olib kelishi mumkin [1, 44-b.].

Jinoyat sodir etish sharoiti ham jinoiy javobgarlik hamda jazoning individuallashtirilishida jiddiy ahamiyat kasb etib, buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Qator hollarda u, odatda, jinoyat qonuni bilan taqiqlanmaydigan qilmishning ijtimoiy xavfini jinoyat darajasigacha oshiradi [15, 26-b.].

2. Jinoyat sodir etish sharoiti qonunning aynan bitta normasi doirasida aybni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holat rolini bajargan holda, qilmishning ijtimoiy xavfliligi darajasiga ta'sir o'tkazadi.

3. Ayrim hollarda sharoit o'zgargan taqdirda, aybdor jinoiy javobgarlik va (yoki) jazodan ozod qilinishi ham mumkin (O'R JK 65-, 70-moddalari).

Jinoyat huquqi nazariyasida jazoni yengillashtiruvchi holatlar quyidagi ikki tur yoki boshqacha qilib aytganda, ikki mustaqil institutga bo'linadi:

1) jinoyat tarkibiga kiritilgan va qilmishning kvalifikatsiya qilinishiga ta'sir o'tkazadigan (JKning Maxsus qismida nazarda tutilgan) hamda jinoiy javobgarlikni differensiatsiya qilish vositasi vazifasini bajaradigan;

2) jinoyat tarkibiga kirmaydigan, jazo turiga ta'sir o'tkazadigan (JKning Umumiy qismida nazarda tutilgan) hamda jazoni individuallashtirish vositasi vazifasini



o'taydigan holatlarga ajratish qabul qilingan [16, 19,34-b.]. Jazoni individuallashtirish esa jazo tayinlashning umumiy asoslari (O'R JK 54-moddasi)ga muvofiq ravishda aybdor shaxsning javobgarlik miqdori (darajasi)ni belgilash demakdir.

M.G. Ushakovaning fikricha, yuqoridagi holatlar ikki alohida guruhga ajratiladi: 1) jazoni yengillashtiruvchi holatlar; 2) aniq jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiyalash holatlari. Har bir guruhdagi yengillashtiruvchi holatlar JKning qaysi qismida joylashganiga qarab, ularni shartli ravishda quyidagicha nomlash mumkin: a) umumiy (jazoni individuallashtirish vositasi vazifasini o'taydigan); b) maxsus (jinoiy javobgarlikni differentsiatsiya qilish vositasi vazifasini bajaradigan) yengillashtiruvchi holatlar.

JK Umumiy qismida o'z ifodasini topgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar – sud tomonidan jazoni individuallashtirish vositalari kategoriyasidagi holatlarni tashkil etsa, kvalifikatsiyalash holatlariga ayblanuvchining faoliyati, uning ushbu faoliyati bilan bog'liq tarzda shaxsini tavsiflovchi holatlar kiradi [16, 19-20-b.]. JK Umumiy va Maxsus qismida nazarda tutilgan yengillashtiruvchi holatlarning farqi shundaki, Umumiy qismdagi jazoni yengillashtiruvchi holatlar aniq bir jinoyat tarkibining belgisi sanalmasdan, jinoyat va jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavfliligining aniq darajasi belgilanishi va o'z navbatida, u yoki bu turdagi jinoyat uchun nazarda tutilgan sanksiya doirasidagi jazo turi va miqdoriga ta'sir o'tkazadi [17, 12-b.]. Maxsus qismda nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar esa aniq bir jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sanalganligi bois boshqa bir vazifani o'taydi, ya'ni boshqa holatlar bilan birgalikda jinoyatning sifat tavsifini tashkil qiladi, jinoyat tarkibining bir turi tuzilishi va o'z navbatida, jinoyat tarkibining maxsus belgisiga aylanib, boshqa bir sanksiya belgilanishiga olib keladi [16, 25-b.].

Shuningdek, nazariyada ilgari surilgan yondashuvlar asosida [16, 60-b.] jazoni yengillashtiruvchi holatlar orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: a) jinoyat sodir etilishida namoyon bo'ladigan (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "v", "g", "d", "ye", "i" bandlari); b) jinoyat sodir etilishida namoyon bo'lmagan, biroq u bilan bog'liq bo'lgan (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "a", "b" bandlari); d) jinoyat bilan bog'liq bo'lmagan, ammo shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "j", "z" bandlari)

Jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tahlil qilayotganda, ko'pchilik olimlar ularni jazoni individuallashtirish vositasi sifatida ko'rib chiqadilar. Ammo M.G. Ushakova asosli ta'kidlaganidek, bunday boshqa bir jihatni ham, ya'ni ishda jazoni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, sodir etilgan jinoyat va (yoki) jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasini kamaytirish mexanizmini ham ochib berish maqsadga muvofiq bo'lar edi [16, 61-b.]. Ushbu mexanizmning anglanishi ham qonunchilik texnikasi, ham sud amaliyoti uchun ahamiyat kasb etadi. Huquq ijodkorligi jarayonida mazkur mexanizmning anglanishi alohida holatlarni jazoni yengillashtiruvchi holatlar doirasiga asossiz ravishda kiritish hollarining oldini olish uchun zarur [18, 169-b.]. Sud amaliyotida esa ushbu mexanizmning to'g'ri tushunilishi sud tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda, jazo tayinlanishida yo'l qo'yiladigan xatolarning oldini olishga ko'maklashadi. Sababi O'R JK 55-moddasi birinchi qismida



belgilangan jazoni yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati qat'iy sanalmasdan, sud boshqa holatlarni ham jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olishga haqli. Ushbu jihatni ochib berish uchun esa, birinchi navbatda, jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tasniflab olish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Jinoyat qonunida jazoni yengillashtiruvchi holatlarning tasnifi keltirilmaganligi bois nazariyada ularni tasniflashning turli variantlari taklif qilinsa-da, ularning har biri o'z ijobiy tarafi bilan bir qatorda kamchiliklardan ham xoli emas.

Huquqshunos olimlar tomonidan ilk bora ilgari surilgan tasniflardan biriga muvofiq, ushbu holatlar uch guruhga ajratilgan: a) sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning obyektiv va subyektiv sifatlariga doir bo'lgan holatlar; b) subyektning shaxsiga doir bo'lgan holatlar; d) jinoiy faollik bilan bog'liq bo'lgan sabab va sharoitlarga taalluqli holatlar [19, 86-b.].

Yana bir guruh olimlar jazoni yengillashtiruvchi holatlarni quyidagicha ajratadi: a) jinoiy tajovuzning obyektiv sifatleri; b) sodir etilgan jinoyatning subyektiv sifatleri; d) jinoyat subyektining tavsifiga taalluqli bo'lgan holatlar [20, 12-13-b; 21, 39-40-b.].

Boshqa bir mualliflar esa jazoni yengillashtiruvchi holatlar JKning ham Umumiy, ham Maxsus qismlarida tilga olinishidan kelib chiqqan holda, ularni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruhga imtiyozli yoki kvalifikatsiyalovchi jinoyat tarkibining belgisi sifatida kiritilgan jazoni yengillashtiruvchi hamda og'irlashtiruvchi holatlar kiritilsa, ikkinchi guruhga JK Umumiy qismining moddasida sanab o'tilgan, jazo chorasining belgilanishiga ta'sir o'tkazuvchi holatlar kiritiladi [22, 263-b; 23, 7-8-b.].

Yana bir qator mualliflar jazoni yengillashtiruvchi holatlarni jinoyat tarkibining elementlariga ko'ra tasniflaydi [24, 457-b; 25, 101-110-b.]. Ushbu tasnifga, ayrim mualliflarning fikricha, qat'iy ilmiy ma'noda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning tasnifi sifatida qaralishi mumkin emas, chunki tadqiq etilayotgan obyektlar turli huquqiy tabiatga ega hamda "turdosh tushuncha"ga birlashtirilishi mumkin emas [14, 109-b.].

Shuningdek, nazariyada keng tarqalgan yondashuvga muvofiq, ayrim mualliflar yengillashtiruvchi holatlarni jinoyat tarkibining to'rtta elementi bo'yicha tasniflaydi, ya'ni ularning fikricha, yengillashtiruvchi holatlar jinoiy qilmishning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoniga taalluqli bo'lishi mumkin [26, 13-b; 21, 82-b.]. Ammo ular, shu jumladan, I.I. Karpets ham yengillashtiruvchi holatlarni tasniflar ekan, qaysi og'irlashtiruvchi holatlar jinoyat obyektiga taalluqli ekanini ko'rsatib bergan bo'lsa-da, aynan qaysi yengillashtiruvchi holatlarning obyektga taalluqligini ko'rsatmagan [25, 38-b; 27, 317-b.]. Ushbu tasnif ko'plab tanqidlarga uchragan. Jumladan, G.L. Kriger: "yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni jinoyat tarkibining alohida elementlari bo'yicha guruhlariga ajratishga qaratilgan urinishlar ushbu holatlarning mazmuni hamda ma'nosi anglanishiga ko'mak bermaydi, chunki ushbu holatlarning ko'pchiligi bir vaqtning o'zida jinoyat sodir etilishining ham obyektiv, ham subyektiv sifatlarini tavsiflagani bois alohida holatlarning u yoki bu guruhga kiritilishi shartlidir", deb ta'kidlaydi [26, 138-b.]. Shunga o'xshash fikrni M.N. Stanovskiy ham ilgari suradi [28, 146-b.]. Bundan tashqari, O.A. Myasnikovning fikricha, "yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning ko'pchiligi ham qilmishga,

ham aybdor shaxsi va jinoyatning subyektiv tomoniga taalluqli bo'ladi. ... Shuningdek, qonunchilik ro'yxatida nazarda tutilgan holatlar jinoyat tarkibi doirasidan tashqarida joylashgan. Shu munosabat bilan yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni jinoyat tarkibi elementlaridan kelib chiqib tasniflash metodologik jihatdan unchalik asosli bo'lmaydi" [29, 33-34-b.].

A.V. Savenkov ushbu mualliflarning tanqidiy fikrlarini qo'llab-quvvatlar ekan, "... Rossiya Federatsiyasi JK (keyingi o'rinlarda – RF JK) 61-moddasida nazarda tutilgan yengillashtiruvchi holatlar jinoyat tarkibi chegaralaridan tashqarida joylashgan. Shu munosabat bilan yengillashtiruvchi holatlarni jinoyat tarkibi elementlaridan kelib chiqqan holda tasniflash metodologik jihatdan noto'g'ridir..." [30, 59-b.], deb ta'kidlaydi. Shuningdek, ushbu tasnifning yana bir kamchiligi sifatida S.P. Donets aybdorning shaxsi jinoyat subyektiga nisbatan kengroq tushuncha bo'lgani uchun ayrim holatlarni faqatgina jinoyat subyektini tavsiflovchi holatlar qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb hisoblaydi [31, 93-b.].

"Jinoyatchi shaxsi" tushunchasi o'z ichiga jinoyat subyektini tavsiflovchi belgilar, shuningdek, quyidagi boshqa belgilarni ham qamrab oladi: a) rivojlanishning intellektual va irodaviy darajasi; b) o'qimishlilik va tarbiya; d) emotsional hamda axloqiy omillar; e) ijtimoiy va ruhiy omillar [32, 7-b.]. Shuningdek, S.P. Donetsning fikricha, bunday tasnif jinoyat huquqidagi jazoni yengillashtiruvchi hamda og'irlashtiruvchi holatlarning huquqiy tabiati va rolini tushunishdagi taraqqiyotiga ko'maklashmaydi [31, 94-b.].

Yuqorida keltirilgan tasnifni tanqid qilar ekan, N.F. Kuznetsova va B.A. Kurinov obyektga taalluqli bo'lgan javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar mavjud emas, deb ta'kidlagan holda, yengillashtiruvchi holatlarni ikki guruhga ajratadilar [33, 99-b.]:

- sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishga doir bo'lgan yoxud jinoyatni tavsiflaydigan yengillashtiruvchi holatlar (voqealarning tasodifan bir-biriga to'g'ri kelib qolishi oqibatida birinchi marotaba ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir qilinishi; og'ir hayotiy sharoitlar oqibatida yoki achinish motivi bilan jinoyat sodir etish; jismoniy yoki ruhiy majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish; jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etish);

- jinoyatchi shaxsini tavsiflaydigan yengillashtiruvchi holatlar (voyaga yetmagan shaxsning jinoyat sodir etishi; homilador ayolning jinoyat sodir etishi; aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish; jinoyatni ochish uchun faol yordam berish; yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish).

Ushbu nuqtayi nazar tarafdorlarining fikricha, yuqoridagi tasnif: 1) ushbu holatlarni ularning jinoyat hamda aybdor shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasiga ta'sir o'tkazishi nuqtayi nazaridan tahlil qilish va ma'lum kategoriyadagi jinoyatlarda ko'proq uchraydigan ayrimlarini aniqlab olish; 2) qonun chiqaruvchiga jazoni yengillashtiruvchi hamda og'irlashtiruvchi holatlarning qo'llanilishini belgilab beruvchi tegishli jinoyat-huquqiy normalarni tuzishda yordam berish; 3) sudda jinoyat ishlarini to'g'ri hal etish imkonini beradi [34, 84-b.]. Shunga o'xshash tasnifni N.S. Leykina va Y.B. Melnikova ham keltirib o'tadi [35, 102–107-b; 36, 11-b.].



G.Z. Anashkin esa yuridik va sud amaliyotida javobgarlikni yengillashtiruvchi (sobiq Sovet ittifoqi davrida amalda bo'lgan jinoyat qonunlarida, xususan, 1959-yil 21-mayda qabul qilinib, 1960-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston SSRning yangi Jinoyat kodeksining 37–39-moddalarida aynan “javobgarlikni yengillashtiruvchi” va “javobgarlikni og'irlashtiruvchi” holatlar atamaları qo'llanilgan) holatlarni sodir etilgan jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilariga taalluqli bo'lgan hamda aybdor shaxsini tavsiflaydigan holatlarga ajratish qabul qilingan, deb hisoblagan [37, 22-b.].

G.I. Chechel ham L.A. Dolinenkoning tasnifiga o'xshash tasnifni ilgari sursa-da, biroq yengillashtiruvchi holatlarni boshqacharoq ko'rinishda uch guruhga ajratishni taklif qiladi: jinoiy tajovuzning obyektiv sifatleri; sodir etilgan jinoyatning subyektiv sifatleri; jinoyat subyektining tavsifiga doir yengillashtiruvchi holatlar [21, 39–40-b.].

L.A. Dolinenkoning tasnifidan ushbu tasnifning farqi shundaki, G.I. Chechel jinoyatning obyektiv va subyektiv sifatlariga doir yengillashtiruvchi holatlarni alohida mustaqil guruhlariga ajratsa, L.A. Dolinenko ushbu holatlarni qilmishning ijtimoiy xavfilik darajasini tavsiflovchi bir guruhdagi holatlarning ikki kichik guruhi deb hisoblaydi. Bu borada O.A. Myasnikovning e'tiroz bildirishicha, G.I. Chechel uchinchi guruhga jinoyatning subyektini tavsiflovchi holatlarni kiritgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari aybdorning shunday shaxsiy sifatlarini aks ettiradiki, ular jinoyat subyektining belgilari qatoriga kirmaydi. U misol tariqasida bunday holatlar qatoriga voyaga yetmagan shaxs, homilador ayol tomonidan jinoyat sodir etilishini kiritadi [29, 35-b.].

V.I. Tkachenko, keyinchalik M.A. Skryabin ham yengillashtiruvchi holatlarni uch guruhga ajratish g'oyasini qo'llab-quvvatlab, o'zining quyidagi tasnifini taklif etadi: faqatgina jinoyatni tavsiflaydigan holatlar (masalan, jinoyat oqibatida og'ir oqibatlarining kelib chiqishi); faqatgina aybdor shaxsini tavsiflaydigan holatlar (masalan, voyaga yetmaganlik); ham aybdor shaxsi, ham jinoyatni tavsiflaydigan holatlar (masalan, voqealarning tasodifan bir-biriga to'g'ri kelib qolishi oqibatida birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir qilinishi) [38, 20–21-b; 39, 76–77-b.].

Ushbu tasnifning kamchiligi sifatida V.I. Tkachenko tomonidan keltirilgan holatlar o'rtasida faqatgina jinoyatni tavsiflovchi holatlarning amalda deyarli mavjud emasligi, ushbu holatlar u yoki bu ko'rinishda aybdor shaxsini ham tavsiflashini aytish mumkin [30, 60-b; 31, 102-b.].

L.L. Kruglikovning fikricha, barcha yengillashtiruvchi holatlarni ikki guruhga ajratish mumkin: a) bir vaqtning o'zida ham jinoyatni, ham aybdor shaxsini tavsiflaydigan; b) faqatgina shaxsni tavsiflaydigan holatlar.

V.S. Minskaya barcha yengillashtiruvchi holatlarni ikki turga ajratish lozim deb hisoblaydi: a) qilmishning obyektiv sifatlariga mansub bo'lgan; b) qilmishning subyektiv sifatleri hamda aybdor shaxsiga taalluqli bo'lgan holatlar [40, 104-b.]. Ammo ushbu tasnifning ham kamchiligi mavjud bo'lib, fikrimizcha, muallif shuni nazardan qochiradiki, qilmishning obyektiv sifatleri, shuningdek aybdor shaxsini ham tavsiflaydi. Ushbu tasnifga nisbatan bir guruh mualliflar o'zlarining quyidagi e'tirozlarini bildirib o'tadi. Birinchidan, jazoni yengillashtiruvchi hamda og'irlashtiruvchi holatlar ichida obyektiv tomoni aybdor shaxsini tavsiflamagan birorta ham holat mavjud emas. Umumiy



qoida tariqasida, obyektiv tomonning holatlarini hisobga olishda qiyinchiliklar yuzaga kelgan vaziyatlarda har doim subyektiv xarakterdagi omillarga: subyektiv tomon hamda aybdor shaxsi tavsifiga – nizolarni hal qilish paytidagi shaxsning tajovuzkorligi darajasi, spirtli ichimliklar ta'siridagi mastligi darajasi, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun sudlanganligi hamda aniq bir jinoyat ishining boshqa holatlariga afzallik beriladi [41, 92-b.]. Ya'ni ish holatlarini hisobga olishda sud qilmishning obyektiv tomoni bilan bir qatorda aybdor shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlarga ham amal qiladi. Ikkinchidan, yuqoridagi tasnifning ikkinchi guruhi mustaqil ahamiyatga ega emas, chunki qonun jinoyat subyektiga taqdim qiladigan belgilarni ham o'z ichiga olgan jinoyatning subyektiv tomoni hamda aybdor shaxsining kombinatsiyalangan ko'rinishini tashkil etadi [31, 105-b.].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jinoyat huquqi nazariyasida ko'rib chiqilayotgan yengillashtiruvchi holatlarning tasnifiga doir ko'plab takliflar mavjud, bu esa ushbu holatlarga nisbatan har tomonlama yondashuvdan dalolat beradi. Chunki ularning barchasi ma'lum bir doirada shartli sanalib, tasniflarning asosiga turli mezonlar qo'yilgan. Bu borada A.V. Savenkov haqli ravishda ta'kidlab o'tganidek, tasniflashning xilma-xilligiga qaramay, bir narsa aniq: ushbu tasniflarni qonunchilik darajasida mustahkamlash to'g'ri bo'lmas edi. Chunki jazoni yengillashtiruvchi holatlarning tasnifini qonunga kiritish uchun ushbu holatlarning ro'yxatini qat'iy hamda yopiq deb tan olish lozim bo'lar edi. Buning esa imkoni yo'q, sababi, aks holda, jinoyat qonunining insonparvarlik prinsipi buzilgan bo'lar edi [30, 61-b.].

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, jazoni yengillashtiruvchi holatlar tasniflarining xilma-xilligiga qaramasdan, deyarli barcha mualliflar, tasniflarda asosiy o'rin jinoiy qilmishni turli tomondan tavsiflovchi holatlarga ajratiladi, degan fikrga qo'shiladilar. Buning sababi O.A. Myasnikov adolatli ravishda shunday ifodalaydi: "Buning boisi shundaki, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning yagona mezoni Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha belgilarini o'z ichiga olgan qilmishning sodir qilinishi hisoblanadi. Albatta, jinoyat tarkibi belgilarining bir qismi subyektning tavsifiga ham taalluqli. Ammo jinoyat-huquqiy munosabatlar vujudga kelishining sababi ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilishidir. Jinoyat subyeksi zaruriy belgilarining mavjudligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal qilish uchun kerak. Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi ko'p holatlar "jinoyat subyeksi" tushunchasiga nisbatan kengroq sanalgan hamda faqatgina jazo tayinlash bosqichida individuallashtirish mezoni tariqasida qo'llaniladigan "aybdorning shaxsi"ni tavsiflaydi. Shuning uchun jinoyatchi shaxsining butun ahamiyatini belgilashda qonun chiqaruvchi hamda huquqshunoslarning asosiy e'tibori jinoiy qilmishning tavsifiga doir bo'lgan holatlarga qaratiladi" [29, 39-b.].

I.I. Karpets jazoni yengillashtiruvchi holatlarni jinoyat tarkibi elementlarining qaysi biriga taalluqliligiga qarab, jinoyatning obyeksi, obyektiv tomoni, subyeksi va subyektiv tomoniga taalluqli jazoni yengillashtiruvchi holatlarga ajratadi [25, 101-b.]. M.T. Tashilin ham jazoni yengillashtiruvchi holatlarni to'rt guruhga ajratadi: a) jinoiy tajovuzning obyektiv belgilariga taalluqli bo'lgan holatlar; b) jinoyatning subyektiv tomoniga taalluqli bo'lgan holatlar; d) jinoyat subyektining tavsifiga doir holatlar;





e) jinoiy jazoning vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar bilan bog'liq bo'lgan holatlar [42, 160-b.].

R.G. Xayrullina yengillashtiruvchi holatlarni 1) jinoyat tarkibining obyektiv belgilariga taalluqli bo'lgan holatlar; 2) jinoyat tarkibining subyektiv belgilariga, shu jumladan shaxsga taalluqli bo'lgan holatlar; 3) bir vaqtning o'zida jinoyat tarkibining ham obyektiv, ham subyektiv belgilarini tavsiflovchi holatlarga ajratadi [43, 71–72-b.].

O'z navbatida, A.F. Parfenov jinoyatning obyektiv tomoni bilan bog'liq bo'lgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarga quyidagilarni kiritadi: holatlarning tasodifan bir-biriga to'g'ri kelib qolishi oqibatida birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir qilinishi (jinoyat sodir etish vaqti, sharoiti); og'ir hayotiy sharoitlar oqibatida jinoyat sodir etish (jinoyat sodir etish sharoiti); jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida jinoyat sodir etilishi (jinoyat sodir etish usuli) [1, 41-b.].

S.P. Donets hattoki jazoni yengillashtiruvchi hamda og'irlashtiruvchi holatlarni maxsus matematik formula yordamida dixotomiya, trixotomiya yoki politomiya (ikki qism, uch qism yoki ko'p qismga bo'lish) prinsipi asosida tasniflashni taklif qiladi. Shuningdek, uning ta'kidlashicha, jazoni yengillashtiruvchi hamda og'irlashtiruvchi holatlarning jinoyat (obyekt, obyektiv tomon, subyekt, subyektiv tomon) va aybdor shaxsining hamkorlikdagi tavsifiga bog'liq tarzda shartli ravishda tasniflanishi amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq: a) birinchi navbatda, jinoyatning ijtimoiy xavfliligi (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "v", "g", "d", "ye", "i" bandlari); b) birinchi navbatda – shaxsni (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "a", "b", "j", "z" bandlari); d) faqatgina shaxsni (aybdorning yosh bolalari borligi bilan bog'liq yengillashtiruvchi holat O'R JKda aks ettirilmagan bo'lsa-da, sud amaliyotida hisobga olinadi), shuningdek jinoyat qonunidagi ro'yxatga kiritilmagan hamda insonparvarlik nuqtayi nazaridan hisobga olinadigan boshqa yengillashtiruvchi holatlar (nogironlik, yurt oldidagi xizmatlari, keksalik yoki yoshlik va h.k.) hamda shaxsni salbiy tavsiflovchi og'irlashtiruvchi holatlarni (mastlik, zararkundalik bilan kechadigan hayot tarzi, narkologiya dispanserida hisobda turish va h.k.) aks ettirishi mumkin. Bundan tashqari, u jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinishining tartibga solinishi uchun ularning qonunchilik tomonidan tasniflanishi zarur bo'lib, birinchi navbatda, jinoyat yoki shaxsni yoxud faqat shaxsni tavsiflovchi holatlarni ajratib ko'rsatish zarur, deb hisoblaydi [31, 85–87-, 109-, 113-b.].

Adabiyotlarda ilgari surilgan barcha tasniflar u yoki bu ko'rinishda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi bilan birga, jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Biroq har bir tasnif o'zicha shartlidir, chunki ularga turli mezonlar asos qilib olingan. Barcha tasniflarni birlashtiruvchi jihat aniq bir shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi hamda shu asosda aybdorga jazo tayinlashda qilmishni tavsiflovchi holatlarning hisobga olinishi sanaladi. Shuningdek, "jinoyat tarkibining obyektiv hamda subyektiv belgilari uslubiy nuqtayi nazardan, sodir etilgan jinoyatni yanada to'liq va har tomonlama tahlil qilish hamda baho berish maqsadida ajratib ko'rsatiladi" [44, 87-b.]. Shu sababdan ham yuqoridagi barcha tasniflarni ko'rib chiqib, R.G. Xayrullina tomonidan taklif qilingan tasnifni qo'llab-quvvatlagan holda,

bizningcha ham, jazoni yengillashtiruvchi holatlarni jinoyat tarkibi elementlari bo'yicha quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Jinoyat tarkibining obyektiv belgilariga taalluqli bo'lgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar (majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "g" bandi); zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "ye" bandi); jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etish (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "i" bandi);

2. Jinoyat tarkibining subyektiv belgilari, shu jumladan shaxsga taalluqli bo'lgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar (aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "a" bandi); b) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "b" bandi); voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "j" bandi); z) homilador ayolning jinoyat sodir etishi (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "z" bandi);

3. Bir vaqtning o'zida jinoyat tarkibining ham obyektiv, ham subyektiv belgilarini tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar (og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "v" bandi); jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanishi holatida jinoyat sodir etish (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "d" bandi)).

Bundan tashqari, O'R JK mazmuni, ushbu holatlarning jinoyat qonunida aks etganlik darajasiga ko'ra, fikrimizcha, jazoni yengillashtiruvchi holatlarni uch guruhga ajratish ham mumkin: 1) O'R JK 55-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar; 2) O'R JK 55-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, jinoyat qonunida bevosita nazarda tutilmagan boshqa holatlar; 3) O'R JK Maxsus qismining boshqa moddalarida nazarda tutilgan holatlar (masalan, O'R JK 98-, 100-101, 106-108-moddalari).

Shuningdek, jazo hamda javobgarlikka ta'sir o'tkaza olish kuchi va darajasiga ko'ra: 1) jazoni yengillashtiruvchi "oddiy" yoki "asosiy" holatlar (jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarida aks etgan hamda ishda mavjud bo'lgan taqdirda, jazoni yengillashtiruvchi holat deb topilishi shart sanalgan holatlar); 2) jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar (O'R JK 57-moddasida nazarda tutilgan holatlar).

Birinchi guruhga mansub holatlarni, o'z navbatida, yana to'rtta kichik guruhga ajratish ham mumkin: a) jazoni yengillashtiruvchi "oddiy" yoki "asosiy" holatlar (O'R JK 55-moddasi birinchi qismi "v", "g", "d", "ye", "j", "z", "i" bandlarida nazarda tutilgan holatlar); b) jazoni yengillashtiruvchi alohida holatlar (O'R JK 57-1-moddasiga asosan, JK 55-moddasi "a" va "b" bandlarida nazarda tutilgan holatlar); d) jazoni yengillashtiruvchi "boshqa" holatlar (O'R JK 55-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, jinoyat qonunida to'g'ridan to'g'ri aks etmagan hamda sudyaning ixtiyoriga binoan jazoni yengillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan holatlar); e) bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 62-1-bobi (586-1



– 586-10 moddalari) hamda O'R JKning 57-2-moddasida o'z ifodasini topgan jazoni yengillashtiruvchi "maxsus" yoki "protsessual" yoxud "havolaki" holatlar.

## REFERENCES

1. Parfenov A.F. Obshhee uchenie ob obyektivnoj storone prestuplenija [The general doctrine on the objective side of an offence]. PhD thesis. Saint-Petersburg, 2004, 427 p.
2. Timejko G.V. Obshhee uchenie ob obyektivnoj storone prestuplenija [The general doctrine on the objective side of an offence]. Rostov-on-Don, Rostov university Publ., 1977, 216 p.
3. Kudrjavcev V.N. Ob'ektivnaja storona prestuplenija [The objective side of an offence]. Moscow, Gosjurizdat Publ., 1960, 244 p.
4. Naumov A., Akoev K., Mesto sovershenija prestuplenija i ego ugovolno-pravovoe znachenie [The place of an offence and its criminal-legal significance]. *Sovetskaja justiciya – Soviet justice*, 1988, no.7, pp. 11–14.
5. Naumov A.V. Rossijskoe ugovolnoe pravo [Russian criminal law]. General part. Moscow, BEK Publ., 1996, 550 p.
6. Ugolovnoe pravo [Criminal Law]. General Part. Moscow, INFRA-M, Norma Publ., 1997, 503 p.
7. Bojko A.I. Prestupnoe bezdejstvie [Criminal inaction]. Saint Petersburg, Jurid. centr Press Publ., 2003, 318 p.
8. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Criminal Law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, ILM ZIYO Publ., 2011, vol. 3, 312 p.
9. Rudakova S.V. Poznanie sudom obsojatel'stv ugolovnogo dela [The court's knowledge of the circumstances of the criminal case]. PhD thesis. Krasnodar, 2004, 221 p.
10. Tatarov L.A. Metodicheskie i metodologicheskie problemy dokazyvaniya obsojatel'stv prestuplenija [Methodical and methodological problems of proving the circumstances of an offence]. PhD thesis. Rostov-on-don, 2006. 194 p.
11. Kuznecova N.F. Izbrannye trudy [Selected works]. Saint Petersburg, Jurid. centr Press Publ., 2003, 832 p.
12. Stepanov V.G. Obshhestvenno opasnye posledstviya v ugolovnom prave [Socially dangerous consequences in criminal law]. PhD thesis. Samara, 2006, 204 p.
13. Krasnopeev S.V. Posledstviya prestuplenija v ugolovnom prave Rossii [Consequences of an offence in the criminal law of Russia]. PhD thesis. Kislovodsk, 2003, 197 p.
14. Kruglikov L.L. Smjagchajushhie i otjagchajushhie otvetstvennost' obsojatel'stva v ugolovnom prave (voprosy teorii) [Mitigating and aggravating factors in criminal law [questions of theory]]. Voronezh, VGU Publ., 1985, 164 p.
15. Vasiliadi A., Sjundjukov F., Uchet obstanovki sovershenija prestuplenija [Accounting of the offence scene]. *Sovetskaja justiciya – Soviet justice*, 1988, no. 22, pp. 26-28.
16. Ushakova M.G. Smjagchajushhie nakazanie obsojatel'stva v ugolovnom prave Rossii [Mitigating factors in Russian Criminal Law]. PhD thesis. Moscow, 2002, 254 p.

17. Krasikov Ju.A. Naznachenie nakazaniya: obuslovlennost' i kriterii individualizatsii [Sentencing: conditionality and criteria of individualization]. Moscow, RIO MJuI Publ., 1991, 77 p.
18. Kruglikov L.L. Pravovye sredstva obespecheniya spravedlivosti nakazaniya v processe ego individualizatsii [Legal means of ensuring the fairness of punishment in the process of its individualization]. Doctor's degree dissertation. Yaroslavl, 1985, 365 p.
19. Gaverov G.S. Obshhie nachala naznacheniya nakazaniya po sovetскому уголовному праву [General principles of sentencing under Soviet criminal law]. Irkutsk, Irkutsk university Publ., 1976, 99 p.
20. Ivanova A.T. Smjagchajushhie otvetstvennost' obstoitel'stva v sovetskom уголовном праве [Mitigating factors in Soviet criminal law]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1972, 24 p.
21. Chechel G.I. Smjagchajushhie otvetstvennost' obstoitel'stva i ih znachenie v individualizatsii nakazaniya [Mitigating factors and their significance in the individualization of punishment]. Saratov, Saratov un-ty Publ., 1978, 166 p.
22. Sovetskoe уголовное право [Soviet criminal law]. General Part. Moscow, Juridicheskaya literatura Publ., 1972, 584 p.
23. Dolinenko L.A. Smjagchajushhie otvetstvennost' obstoitel'stva po deystvuyushhemu уголовному zakonodatel'stvu i v sudebnoj praktike [Mitigating factors under the current criminal legislation and in judicial practice]. Irkutsk, Irkut. university Publ., 1980, 82 p.
24. Uголовное право [Criminal law]. General Part. Moscow, RIO VJuA Publ., 1948, 496 p.
25. Karpec I.I. Individualizatsiya nakazaniya v sovetskom уголовном праве [Individualization of punishment in Soviet criminal law]. Moscow, Gosjurizdat Publ., 1961, 152 p.
26. Kurs sovetskogo уголовного права. Nakazanie [The course of Soviet criminal law. Punishment]. Moscow, Nauka Publ., 1970, vol. 3, 350 p.
27. Sovetskoe уголовное право [Soviet criminal law]. General Part. Moscow, Moscow university Publ., 1974, 445 p.
28. Stanovskij M.N. Naznachenie nakazaniya [Sentencing]. Saint-Petersburg, Jurid. centr Press Publ., 1999, 480 p.
29. Mjasnikov O.A. Smjagchajushhie i otjagchajushhie nakazanie obstoitel'stva v rossijskom уголовном праве [Mitigating and aggravating factors in Russian criminal law]. PhD thesis. Moscow, 2001, 170 p.
30. Savenkov A.V. Princip individualizatsii pri naznachenii nakazaniya [The principle of individualization in sentencing]. PhD thesis. Saint-Petersburg, 2004, 241 p.
31. Donec S.P. Smjagchajushhie i otjagchajushhie obstoitel'stva v уголовном праве (Pravovaya priroda, klassifikatsiya, problemy ucheta) [Mitigating and aggravating factors in criminal law (Legal nature, classification, accounting problems)]. PhD thesis. Kazan, 2003, 223 p.
32. Pavlov V.G. Sub'ekt prestupleniya i уголовная otvetstvennost' [The subject of an offence and criminal liability]. Saint-Petersburg, Lan Publ., 2000, 188 p.





33. Kuznecova N.F., Kurinov B.A. Otjagchajushhie i smjagchajushhie obsojatel'stva, uchityvaemye pri opredelenii mery nakazaniya [Aggravating and mitigating circumstances taken into account when determining the penalty]. *Application of punishment under Soviet criminal law. Collection of scientific papers*. Moscow, 1958, pp. 92-150 (In Russ.).

34. Kurinov B.A., Individualizacija nakazaniya za transportnye prestupleniya [Individualization of punishment for transport crimes]. *Sovetskoe gosudarstvo i pravo – The Soviet State and law*, 1966, no.12, pp. 81–84.

35. Lejkina N.S. Lichnost' prestupnika i ugovnaja otvetstvennost' [Criminal identity and criminal liability]. Leningrad, Leningrad university Publ., 1968, 128 p.

36. Mel'nikova Ju.B., Individualizacija nakazaniya s uchetom obsojatel'stv, harakterizujushhih lichnost' [Individualization of punishment, taking into account the circumstances that characterize the personality]. *Sovetskaja justiciya – Soviet justice*, 1969, no. 5, pp. 13–14.

37. Anashkin G., Obsojatel'stva, smjagchajushhie i otjagchajushhie otvetstvennost' [Circumstances mitigating and aggravating liability]. *Sovetskaja justiciya – Soviet justice*, 1980, no. 16, pp. 23–24.

38. Tkachenko V.I. Obshhie nachala naznacheniya nakazaniya [General principles of sentencing]. Moscow, VJuZI Publ., 1984, 71 p.

39. Skrjabin M.A. Obshhie nachala naznacheniya nakazaniya i ih primenenie k nesovershennoletnim [General principles of sentencing and their application to minors]. Kazan, Kazan university Publ., 1988, 125 p.

40. Minskaja V.S. Rol' smjagchajushhih otvetstvennost' obsojatel'stv v individualizacii ugovnoj otvetstvennosti [The role of circumstances mitigating the liability in the individualization of criminal responsibility]. *Problems of improvement of criminal legislation and practice of its application. Collection of scientific papers*. Moscow, 1981, pp. 99-117 (In Russ.).

41. Ugolovnoe pravo. Osobennaja chast' [Criminal Law]. Moscow, Infra-M-Norma Publ., 1997, 503 p.

42. Tashhilin M.T. Naznachenie nakazaniya v ugovnom prave Rossijskoj Federacii [Sentencing in the Criminal Law of the Russian Federation]. Pyatigorsk, 2002, 318 p.

43. Hajrullina R.G. Smjagchajushhie obsojatel'stva, uchityvaemye sudom pri naznachenii nakazaniya, po ugovnomu zakonodatel'stvu Rossii i zarubezhnyh stran [Mitigating factors taken into account by the court when imposing punishment, according to the criminal legislation of Russia and foreign countries]. PhD thesis. Kazan, 2006, 192 p.

44. Koliev V.L. Smjagchenie nakazaniya po ugovnomu pravu: teoreticheskij, pravovoj i pravoprimenitel'nyj aspekty [Mitigation of punishment under criminal law: theoretical, legal and law enforcement aspects]. Volgograd, 2003, 182 p.



UDC: 343.121.5(045)(575.1)

# AYRIM XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIK TIZIMIDA VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISHNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

**Saloxova Sarvinoz Sadriddin qizi,**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi,  
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0002-6027-1668  
e-mail: salohovasarvinoz@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada muallif tomonidan ilg'or xorijiy davlatlar – Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarda voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy davlatlar qonunchilik tizimida voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holati, penitensiar muassasalarda jazoni ijro etish rejimi, mahkumlarni axloqan tuzatish hamda qayta tarbiyalash vositalarining alohida jihatlari ifodalangan. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmaganlar, jinoiy jazo, ozodlikdan mahrum qilish, penitensiar muassasalar, tarbiya koloniyalari, post-penitensiar adaptatsiya, resotsializatsiya.

## СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ИСПОЛНЕНИЯ НАКАЗАНИЯ В ВИДЕ ЛИШЕНИЯ СВОБОДЫ ДЛЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОТДЕЛЬНЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

**Салохова Сарвиноз Садриддин кизи,**

сотрудник Министерства юстиции Республики Узбекистан,  
самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье автором проанализированы особенности исполнения наказания в виде лишения свободы в отношении несовершеннолетних в развитых



зарубежных государствах: Великобритании, Германии, Италии, США, Канаде, России, Казахстане. Также в статье представлены отдельные аспекты правового положения несовершеннолетних осужденных, режима исполнения наказания в пенитенциарных учреждениях, основные средства исправления и перевоспитания осужденных в законодательной системе зарубежных стран. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации, связанные с имплементацией передового опыта зарубежных стран в национальное законодательство.

**Ключевые слова:** несовершеннолетние, уголовное наказание, наказание в виде лишения свободы, пенитенциарные учреждения, воспитательные колонии, постпенитенциарная адаптация, ресоциализация.

### COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS OF THE EXECUTION OF THE SENTENCE OF DEPRIVATION OF LIBERTY IMPOSED ON MINORS IN THE LEGISLATIVE SYSTEM OF SOME FOREIGN COUNTRIES

**Salokhova Sarvinoz Sadriddin kizi,**  
Independent researcher  
of Tashkent State University of Law,  
Officer of the Ministry of Justice  
of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** In this article, the author analyzed the peculiarities of the execution of the sentence of deprivation of liberty imposed on minors in advanced foreign countries such as Great Britain, Germany, Italy, the United States, Canada, Russia, Kazakhstan and others. Furthermore, certain aspects of the legal status of minor convicts, the regime of execution of punishment in the penitentiary institutions, means of moral correction and re-education of convicts in the legislative system of foreign countries are investigated in the article. In addition to these, proposals and recommendations on the implementation of the advanced experience of foreign countries in national legislation are suggested in this article.

**Keywords:** minor, criminal punishment, deprivation of liberty, penitentiary institutions, correctional colonies, the post-penitentiary adaptation, resocialization.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi, xususan, voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holatini belgilab beruvchi qator xalqaro normalar mavjud bo'lib, mazkur xalqaro normalar jazoni ijro etish muassasalarida voyaga yetmagan mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy xalqaro standartlardir.

Bugungi kunda mamlakatimizda mahkumlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro standartlarni milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-sonli Farmoniga asosan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tizimli yo'lga qo'yish maqsadida BMTning Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish uchun boshqaruv prinsiplari (Ar-Riyod boshqaruv prinsiplari)ni O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va dasturiy hujjatlarida amalda va tizimli aks ettirilishi va unga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish belgilanganligi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Qayd etish lozimki, mahkumlarning huquqlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi xalqaro standartlar dunyoning qariyb 80 foiz davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib [1, 14-b.], bundan ko'zlangan asosiy maqsad penitensiar muassasalarda saqlanayotgan irqi, tana rangi, jinsi, yoshi, tili, e'tiqodi, millati, siyosiy yoki boshqa maslagi, mulkiy, tabaqaviy va oilaviy ahvoli, etnik yoxud ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar voyaga yetmagan mahkumlarning huquqlarini himoya qilish, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishdir. Ushbu xalqaro normalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan qator hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, mazkur hujjatlar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;
- 1955-yil 30-maydagi BMT Bosh Assambleyasining Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart Qoidalari;
- 1966-yil 19-dekabrda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro pakt;
- 1985-yil 25-noyabrda Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga taalluqli minimal standart Qoidalar ("Pekin qoidalari");
- 1989-yil 20-noyabrda "Bola huquqlari to'g'risida"gi Xalqaro konvensiya;
- 1990-yil 14-martda Mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy qoidalari Rezolyutsiyasi;
- 1984-yil 24-dekabrda Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz g'ayriinsoniy yoki uning qadr-qimmatini kamsitadigan muomala yoki jazolash turlariga qarshi Konvensiya;
- 2006-yil 12-yanvarda "Yevropa qamoqxona qoidalari to'g'risida"gi Vazirlar Qo'mitasi tavsiyalari shular jumlasidandir.

Voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holati 1985-yil 25-noyabrda "Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga taalluqli minimal standart qoidalarida ("Pekin qoidalari") ham atroflicha bayon etilgan bo'lib, mazkur xalqaro qoidalarning 26.1-bandida jazoni ijro etish muassasalarida voyaga yetmaganlarni axloqan tuzatish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishning maqsadi ularga jamiyatda ijtimoiy foydali samarali rollarni bajarishga yordam ko'rsatish uchun vasiylik, himoya, ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash [2] ekanligi belgilangan.

Shu o'rinda penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini tadqiq etgan yuridik fanlar doktori, professor N.S. Salayevning fikrini keltirish o'rinli. Zamonaviy sharoitda mahkumlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda ijtimoiy va psixologik ta'sir vositalari katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik xarakterdagi tadbirlarni



axloq tuzatish vositasi sifatida ko'rib chiqish va ularni jinoyat-ijroiya qonunchiligida aks ettirish uchun bugungi kunda barcha asoslar mavjud. Ushbu asoslarning Jinoyat-ijroiya kodeksida ifodalanilishi esa nafaqat vaqt talablariga, balki amaliyot ehtiyojlariga ham javob beradi [3].

Fikrimizcha, haqiqatan ham penitensiar muassasalar faoliyatida mahkumlarni axloqan tarbiyalash vositalari (jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi), ijtimoiy-foydali mehnat, tarbiyaviy ish, umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi va jamoat ta'siri) bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik xarakterdagi ta'sir vositalaridan ham samarali foydalanish jazodan ko'zlangan maqsadga erishishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'plab xalqaro hujjatlarda belgilangan normalar davlatimiz tomonidan ham ratifikatsiya qilingan bo'lib, voyaga yetmagan mahkumlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi xalqaro normalarning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida o'z ifodasini topganligi buning isbotidir.

Qator xorijiy mamlakatlarda, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlyandiya, Shveysariya, Italiya, Kanada, Rossiya Fedratsiyasi, Qozog'iston kabi davlatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarga tarbiyaviy ta'sir etish, xususan, mahkumlar bilan muomala qilish, ularni axloqan tuzatish, jazoni o'tab chiqqanlaridan so'ng ijtimoiy hayotga moslashishiga, sobiq mahkumlarning resotsializatsiyasiga ko'mak berish borasida samrali tajriba to'planganligini ko'rish mumkin.

Xususan, *Buyuk Britaniya* jinoyat-ijroiya qonunchiligiga asosan, voyaga yetmagan mahkumlarni saqlash uchun alohida tartib joriy etilgan bo'lib, 21 yoshgacha bo'lgan mahkumlarni jazo o'tashlari uchun borstal axloq tuzatish muassasalari va maktablari mavjud [4, 45-b.]. Fikrimizcha, mazkur davlatda voyaga yetmagan mahkumlar saqlanadigan muassasalar ham maxsus nomga ega bo'lib, ular "borstal axloq tuzatish muassasalari" deb nomlanadi ("tarbiya koloniyalari" singari). Bundan tashqari, ushbu davlatda voyaga yetmagan huquqbuzarlar hamda jinoyatchilarni tarbiyalash maqsadida qisqa muddatga saqlab turish axloq tuzatish-tarbiya markazlari tizimi ham tashkil etilgan.

Buyuk Britaniyada mahkumlarni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davri uch bosqichga bo'linib, ularga quyidagilar kiradi:

- mahkum yakka tartibda saqlanadigan sinov davri;
- majburiy mehnatga jalb etish orqali boshqa mahkumlar bilan birgalikda umumiy xonalarda saqlangan holda axloqan tuzatish davri;
- jazoning kamida to'rttdan uch qismini o'tagan mahkumlar uchun muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish davri.

Ta'kidlash lozimki, Buyuk Britaniyada voyaga yetmagan mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy metodlaridan biri sifatida ularga ta'lim berishda foydalaniladi. Penitensiar muassasalarida mahkumlarning yoshiga qarab boshlang'ich ma'lumot, o'rta ma'lumot, shuningdek oliy ma'lumot olishiga imkoniyat yaratilganligi bilan xarakterlidir. Mahkumlar kechki ta'lim, ochiq universitet va kollejlardagi sirtqi ta'lim, haftaning muayyan kunlarida tashkil etiladigan kunduzgi ta'lim, ayollar uchun alohida

o'quv kurslarida ta'lim olish huquqiga ega. Muayyan bir ta'lim turlari haq evaziga amalga oshirilsa-da, mahkumlarning ta'lim olishi asosan homiyilar hamda xayriya tashkilotlari hisobidan bepul amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan marum qilish jazosini samarali ijro etishda *Germaniya Federativ Respublikasi* tajribasi ham e'tiborga molik bo'lib, mazkur davlatda mahkumlarning huquqlari, qonuniy manfaatlari hamda majburiyatlarini belgilab beruvchi alohida Federal Qonun qabul qilingan. Ushbu Qonun talablarini bajarilishiga rioya etish va mahkumlarning huquqlarini himoya qilish masalalari bilan mamlakatda Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi shug'ullanadi [5].

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan mahkumlar saqlanadigan penitensiar muassasalar asosiy e'tiborni mahkumni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish orqali tarbiyalashga qaratadi. Jumladan, jazo o'tayotgan mahkumlar atom reaktori payvandchisi, avtomat liniyalarini sozlovchi kabi yuqori malakali ixtisosliklarga o'qitiladi va bundan ko'zlangan asosiy maqsad mahkum ozodlikka chiqqanidan so'ng ishlab chiqarish korxonalarida o'z faoliyatini amalga oshirishini ta'minlashdir.

Germaniya jazoni ijro etish muassasalarida ta'lim tizimi esa bir qator yo'nalishlarda amalga oshirilib, ularga quyidagilar kiradi [6, 56-b.]:

- savodsiz mahkumlar bilan mashg'ulotlar olib borish yoki mahkum bilan individual shug'ullanish;
- ta'limni tezlashtirish (mahkum 8-sinfdan keyin kasbiy ta'limga o'tkazilishi mumkin);
- asosiy maktab bosqichi;
- maxsus oliy maktab ta'limi (2 yil davom etadigan ta'lim);
- oliy ta'lim (sirtidan).

So'nggi yillarda Germaniya penitensiar muassasalari tomonidan mahkumlarning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarishda distansion (masofaviy) shakldagi oliy ta'lim tizimi joriy etilayotganligi e'tiborga molikdir. Distansion oliy o'quv ta'limini olishda mahkumlar uchun maxsus dasturlar va innovatsion qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, mahkumlar ushbu dasturlarni o'rganish orqali muayyan mutaxassislikka ega bo'ladilar.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishda Germaniya davlatining yana bir ijobiy tajribalaridan biri bu mahkumlar saqlanadigan jazoni ijro etish muassasasi joylashgan hududning eng tajribali soha vakillari, jumladan, shifokor, pedagog, psixolog, xotin-qizlar kengashi vakillaridan iborat vasiylik kengashi tuzilganligidir. Ushbu kengash jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan barcha jabhalardagi faoliyat yo'nalishlarida ishtirok etib, voyaga yetmagan mahkumlarning jazoni o'tab chiqqanlaridan so'ng ijtimoiy hayotga moslashishiga, o'qish va ishda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadi.

*Italiya* jinoyat-ijroiya qonunchiligiga asosan voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo choralari o'ziga xos bo'lib, jazo o'tash tartibi va shartlarini buzgan mahkumlar ta'lim olish, kutubxona xizmatidan foydalanish, sport o'yinlari va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish, yaqin qarindoshlari bilan uchrashish kabi huquqlardan mahrum etilishi mumkin.





Yana bir ijobiy jihatlaridan biri shundaki, penitensiar muassasalarda voyaga yetmaganlarni nafaqat ta'lim olish huquqi, balki xorijiy tillarni o'rganishi uchun ham pullik kechki o'quv mashg'ulotlar dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, xohlovchilar ishdan bo'sh vaqtlarida o'z bilim darajalarini oshirishlari mumkin. Mazkur o'quv mashg'ulotlarining haqi mahkumlarning shaxsiy hisobvarag'idan ushlab qolinadi. Mahkumlarning tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etishi ularning ijobiy xulq-atvorini belgilab berishda, axloqan tuzalganlik darajasini aniqlashda yetakchi rol o'ynaydi hamda mahkumni muddatidan oldin shartli ozod qilish imkoniyatini ko'paytirishi bilan ahamiyatlidir.

Mahkumlarga tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xorijiy davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, G'arbiy Yevropa qit'asining ko'pgina davlatlarida mahkumlarga tibbiy yordam va xizmat ko'rsatish nazarda tutilmagan. Masalan, Irlandiyada mahkumlar uchun tibbiy qism va shifoxonalar mavjud emas. Gretsiya, Daniya, Skandinaviya kabi mamlakatlarda esa mahkumlarga tibbiy yordam va xizmat ko'rsatish tibbiy sug'urta asosida amalga oshiriladi [7].

Milliy qonunchiligimizda esa mahkumlarning tibbiy xizmatdan foydalanishi bepul amalga oshirilib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 87-moddasiga asosan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning tibbiy-sanitariya ta'minoti respublika budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

*Amerika Qo'shma Shtatlari* jinoyat-ijroiya qonunchiligiga asosan ozodlikdan mahrum etish joylari ustidan rahbarlikni amalga oshirish Bosh attorneyga yuklatilgan bo'lib, jazoni ijro etish muassasalari ustidan boshqaruv ikki tomonlama, ya'ni mahalliy (munitsipalitet) organlar hamda okrug penitensiar muassasalar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi [8, 61-b.].

*Amerika Qo'shma Shtatlarining* ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish borasidagi tajribasini e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, penitensiar muassasalarida mahkumlarni qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ruhiy xarakterdagi dasturlar – o'z jinoyatiga iqror bo'lmaydigan yoki qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etilganligi sababli boshqa dasturlarga ishtirok eta olmaydigan mahkumlar uchun qo'llaniladi;
- intensiv (uzoq muddatli) dasturlar – retsedivist deb topilgan, giyohvandlik va jinsiy zo'rovonlik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan mahkumlar uchun qo'llaniladi;
- o'tish (moslashuv) dasturlari – jazoning so'nggi 9 oyini o'tayotgan mahkumlar uchun qo'llaniladi;
- kengaytirilgan dasturlar – aqliy salohiyati past darajada bo'lgan mahkumlar uchun qo'llaniladi.

Qayd etish lozimki, *Amerika Qo'shma Shtatlarida* yuqorida ta'kidlangan maxsus dasturlarni amalga oshirilishi har bir jazoni o'tayotgan mahkumlarga individual yondashuv asosida jazoni ijro etish tartibini belgilashda, shuningdek mahkumlar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishi oldini olishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari, *Kanadada* voyaga yetmagan mahkumlarning ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqqanlaridan so'ng post-penitensiar adaptatsiyasini

ta'minlashga yordam beradigan maxsus usullar ishlab chiqilganligi ham ahamiyatlidir. Jumladan, "penitentsiar ta'til" hamda "yengillashtirilgan saqlash sharoiti" davri mobaynida jazoni ijro etish muassasasidan biriktirilgan xodim bilan birgalikda mahkumlar o'zlari uchun ish izlash, o'qish joyi bilan qayta aloqa o'rnatish, yashash joyi topish, jamiyat a'zolari bilan foydali aloqani o'rnatish, yaqin qarindoshlari bilan cheklanmagan miqdorda uchrashish, oilaviy masalalar bilan bog'liq muammolarni hal qilish kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar.

"Kanada qamoqxonalari to'g'risida"gi Qonunda Kanada penitentsiar muassasalarida mahkumlar, shu jumladan voyaga yetmagan mahkumlar jazo muddati tugashidan 3 oy oldin yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazilib, ushbu davr mobaynida 1 haftalik ta'tilga chiqishlari mumkin ekanligi belgilangan [9, 21-b.]. Mazkur davrda mahkumlar yuqorida ta'kidlangan huquqlardan foydalanish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Ayni shu mazmundagi tartib Norvegiya hamda Ispaniya jinoyat-ijroiya qonunchiligiga ham xosdir.

Voyaga yetmaganlar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish borasida MDH mamlakatlari tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, *Rossiya Federatsiyasi* Jinoyat-ijroiya kodeksining 17-bobi tarbiya koloniyalarida ozodlikdan mahrum qilish jazoni o'tash tartibiga bag'ishlangan. Mazkur Kodeksning 132-moddasiga asosan tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash odatdagi, yengillashtirilgan, imtiyozli va qattiq saqlash sharoitlariga asoslanadi [10].

Tarbiya koloniyasiga dastlab jazoni o'tash uchun kelgan voyaga yetmagan mahkumlar odatdagi saqlash sharoitlarida jazoni o'taydilar. Yengillashtirilgan, imtiyozli va qattiq sharoitlarda jazoni o'tash esa voyaga yetmagan mahkumning jazo muddati davomida rag'batlantirilishi, xulq-atvorining ijobiy tomonga o'zgarishi yoki intizomiy jazoga tortilishi, mehnat normalarini bajarmasligi kabi subyektiv holatlar bilan bog'liqdir. E'tiborli jihat shundaki, tarbiya koloniyalarida voyaga yetmagan mahkumlarni ozodlikka tayyorlash bosqichida ularga faqatgina yengillashtirilgan va imtiyozli saqlash sharoiti tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, mazkur davlat jinoyat-ijroiya qonunchiligiga asosan tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash shartlari (voyaga yetmagan mahkumlarning uchrashuvga chiqish, posilka, yo'qlov va banderollar olish, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishi kabilar) voyaga yetmagan mahkumning qaysi turdagi saqlash sharoitida jazoni o'tayotganligiga qarab belgilanib, imtiyozli sharoitda jazo o'tayotgan mahkumlarga cheklanmagan miqdorda uchrashuvlar olish huquqi beriladi.

Voyaga yetmagan mahkumlarni ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash tartibi *Qozog'iston Respublikasi* Jinoyat-ijroiya qonunchiligida ham o'ziga xos qoidalarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, ushbu davlatda tarbiya koloniyalarida jazo o'tash tartibi va shartlari *Rossiya Federatsiyasi* qonunchiligiga o'xshash bo'lsa-da, *Qozog'iston Respublikasi* Jinoyat-ijroiya kodeksining 150-moddasi uchinchi bandiga asosan jazo o'tash uchun tarbiya koloniyasiga kelgan voyaga yetmagan mahkumlar jazoning dastlabki 6 oyini yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida o'taydi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad voyaga yetmagan mahkumning muassasa muhitiga moslashib ketishi bilan bog'liqdir.



Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari haqida to'xtalar ekanmiz, deyarli milliy qonunchiligimizga o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 154-moddasida voyaga yetmagan mahkumlarni intizomiy jazoga to'rtilishiga sabab bo'ladigan, jazoni o'tash tartibi va shartlarini buzish deb hisoblanuvchi holatlar aniq sanab o'tilgan [11].

Xususan, mahkumlar tomonidan tarbiya koloniyalarida mehnat normalarini bajarmaslik, alkogol mahsulotlari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish, muassasa ma'muriyati xodimlariga tahdid qilish va haqoratlash, taqiqlangan mahsulotlar va predmetlarni saqlash, taqiqlangan o'yinlarni o'ynash (masalan, karta), turli xil tarzda pornografik harakatlar qilish, tibbiy tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlash kabi holatlar voyaga yetmagan mahkumlarni intizomiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Demak, yuqoridagi xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

*Birinchidan*, bugungi kunda O'zbekistondagi kriminogen muhit, voyaga yetmaganlar o'rtasida retsidiv jinoyatchilikning oshib borishi tayinlangan jazodan ko'zlangan maqsadga hamda mahkumni axloqan tuzatishga erishishni yanada samaradorligini oshiruvchi usul va vositalarni qo'llashni talab qilmoqda.

Fikrimizcha, voyaga yetmagan mahkumlarni tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri bu ularga ta'lim berishdir. Mahkumning o'qish va ta'limga munosabati uning axloqan tuzalganligini aniqlashda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda huquqni qo'llash amaliyotida jazo o'tab chiqqan voyaga yetmaganlar orasida muayyan bir kasb yoki mutaxassislikka egalari ko'pchilikni tashkil etmaydi. Tarbiya koloniyalaridagi ijtimoiy muhit ham ma'lum darajada ularning ijtimoiy-psixologik qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada ular jazoni o'tab chiqqanlaridan so'ng kasbga va muayyan mutaxassislikka ega emasligi sababli mehnat sharoiti og'ir va noqulay bo'lgan sharoitlarda ishlashga hamda moddiy mablag' topishga majbur bo'lib qolish hollari ham kuzatiladi.

Bunday holatlarni hamda voyaga yetmaganlar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida Germaniya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya penitensiar muassasalari tomonidan mahkumlarning ta'lim olish huquqi bilan bog'liq ilg'or tajribasini milliy qonunchilikka tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir.

Xususan, tarbiya koloniyalarida ham voyaga yetmagan mahkumlarni oliy ta'lim olishlari uchun sirtqi yoxud masofaviy (distansion) online shaklda o'qitish dasturlarinining ishlab chiqilishi, o'qishni tugatganlaridan so'ng o'zlari egallagan mutaxassislik bo'yicha ishga joylashishiga ko'maklash, bu borada jazoni ijro etish muassasalari moddiy-texnik bazasini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqilishi jazodan ko'zlangan maqsadga erishishda hamda mahkumlarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlashda ijobiy natija beradi.

*Ikkinchidan*, bugungi kunda jinoyat-ijroiya qonunchiligida mavjud muammolardan biri voyaga yetmagan mahkumlarga intizomiy jazo choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladigan jazoni o'tash tartibi va shartlarini buzish deb hisoblanuvchi aniq holatlarning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi yoxud "O'zbekiston Respublikasi Ichki

ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarida aks ettirilmaganligidir.

Bu esa jazoni ijro etish muassasalari xodimlari tomonidan mahkumlarga intizomiy jazo choralari qo'llash jarayonida qonun normalarini turlicha sharhlanishi va tatbiq etilishiga sabab bo'ladi.

Huquqni qo'llash amaliyotida qonun normalarini bir xilda tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida quyidagi normani O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilishi maqsadga muvofiq. Xususan, tarbiya koloniyalarida ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan mahkumlar tomonidan Jinoyat-ijroiya kodeksining 111-moddasida belgilangan hollardan tashqari quyidagi xatti-harakatlarni sodir etish ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladi:

- muassasa faoliyatini izdan chiqarishga qaratilgan xatti-harakatlar sodir etish;
- muassasa ichki tartib qoidalarida taqiqlangan faoliyat bilan shug'ullanish;
- muassasa xodimlari va muassasada saqlanayotgan mahkumlarga tahdid qilish yoxud ularni haqorat qilish;
- biror-bir manfaatni ko'zlab o'yinlar tashkil qilish va o'ynash;
- belgilangan muddatlarda tibbiy ko'rikdan o'tishdan qasddan bo'yin tovlash shular jumlasidandir.

Ta'kidlash lozimki, yuqoridagi kabi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tarbiya koloniyalarida jazo ijrosini samarali tashkil etish, voyaga yetmagan mahkumlarni axloqan tarbiyalash va ular tomonidan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganlaridan so'ng takroran jinoyat sodir etilishining oldini olishga yordam beradi.

## REFERENCES

1. Gladkova A.V. Vospitatelniye kolonii dlya nesovershennoletnix [Educational colonies for minors]. Moscow, Publishing house Moscow state university, 2016, p. 74.
2. The United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (The Beijing Rules) were adopted by the UN General Assembly in November 29, 1985. Available at: <https://resourcecentre.savethechildren.net/document/united-nations-standard-minimum-rules-administration-juvenile-justice-beijing-rules/> (accessed 05.03.2022).
3. Salaev N.S. Penitentiary system of contemporary Uzbekistan: current condition and future promises in the reformation process. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/penitentiary-system-of-contemporary-uzbekistan/> (accessed 05.03.2022).
4. Kazansev V.N., Ivashin D.V. Sotsialnaya rabota v penitentsiarnix sistemax zarubejnih stran [Social work in penitentiary systems of foreign countries]. Ryazan, 2004, p. 98.
5. Salaev N.S. Paradigm of forming a liberal penitentiary system – origins, trends and prospects. Available at: <https://www.researchgate.net/profile/publication/347913810/> (accessed 05.03.2022).



6. Niyozova S., Hojiyev N. Mahkumlarning huquqiy holati [Legal status of convicts]. Editor-in-Chief B. Khidoyatov. Tashkent, TSUL Publishing House, 2020, p. 115.

7. Salaev N.S. Implementation of international standards (principles) in penitentiary legislation of Uzbekistan: political, legal, social and economic aspects. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/intrel/vol2017/iss1/4/> (accessed 05.03.2022).

8. Yuldashev M.Sh. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etish [Organizing the execution of a sentence in the form of imprisonment]. TashkentAcademy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2010, p. 88.

9. Rejapova I.M., Zaborovskaya Y.M. Zarubejniy opit raboti s zaklyuchennimi s selyu ix dalneyshey resotsializatsii (na primere zakonodatelstva Soyedinennix Shtatov Ameriki i Kanadi) [Foreign experience of working with rural prisoners for their further resocialization (on the example of the legislation of the United States of America and Canada)]. Chelovek: prestupleniye i nakazaniye – Man: crime and punishment, 2019, no. 1, p. 27.

10. Penal Code of the Russian Federation of 01/08/1997, No. 1-F3 (as amended on 12/27/2019). Available at: <http://www.consultant.ru/> (accessed 10.03.2022).

11. Penal Code of the Republic of Kazakhstan dated 07/05/2015, No. 234-M No. 3RK (as amended on 01/11/2020). Available at: <http://www.online.zakon.kz/> (accessed 15.04.2021).



UDC: 343.37 (045) (575.1)

# KORRUPSIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI JINOYAT-HUQUQIY CHORALARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Xojiyeva Ro'zigul Xudayberdiyevna,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ixtisoslashtirilgan filiali o'qituvchisi, tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0002-7286-9069

e-mail: kxojiyeva@bk.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi, korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan mamlakatimizdagi so'ngi islohotlar, ularni amalga oshirishdagi muammo va kamchiliklar haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, korrupsiyaviy jinoyatlar uchun qonunchilikda belgilangan choralar, xususan, jinoyat-huquqiy choralar: tushunchasi va mazmun mohiyati, ularning to'g'ri tartibi va asoslari kabi masalalar haqida ham fikr bildirilgan. Bu borada muallifning ilmiy-tanqidiy fikrlaridan tashqari, bir qator milliy huquqshunos olimlarimizning va xorijiy davlatlar huquqshunos olimlarining ilmiy-nazariy fikrlari ham o'rganib chiqilgan. Jinoyat qonunchiligida korrupsiyaviy jinoyatlar uchun belgilangan javobgarlik masalalarida, jazo tayinlash hamda boshqa majburlov choralari belgilash tartibida kamchiliklar borligi, ularni tuzatish uchun Jinoyat kodeksining ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritish lozimligi aniqlangan. Shuningdek, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi jinoyat-huquqiy choralarni qo'llash bo'yicha ayrim rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligi ham tizimli tahlil qilingan va xorijiy davlatlar tajribasi asosida jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha bir qancha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, pora, pora olish, pora berish, javobgarlik, majburlov chorasi, jazo, jinoyat-huquqiy choralar.

## ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УГОЛОВНО-ПРАВОВЫХ МЕР ПРОТИВ КОРРУПЦИИ

**Хожиева Рузигуль Худайбердиевна,**

базовый докторант,

преподаватель Специализированного филиала

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются понятие коррупционных преступлений, проводимые реформы в нашей стране, направленные на



*профилактику коррупционных преступлений, проблемы и недостатки в их реализации. Кроме того, были высказаны мнения о мерах, предусмотренных законом за коррупционные преступления, в частности меры уголовно-правового характера: сущность понятия и содержание, их правильный порядок и основания. В дополнение к научно-критическому взгляду автора на предмет изучены научно-теоретические взгляды ряда отечественных и зарубежных юристов. В ходе исследования было установлено, что в уголовном законодательстве об ответственности за коррупционные преступления, порядке наложения взысканий и иных мер принуждения имеются недостатки, для их исправления необходимо внести некоторые изменения в Уголовный кодекс. На основе системного анализа также изучено законодательство некоторых развитых зарубежных стран о применении уголовно-правовых мер против коррупционных преступлений, и сделан ряд предложений по совершенствованию уголовного законодательства с учетом опыта зарубежных стран.*

**Ключевые слова:** коррупция, взяточничество, вымогательство, дача взятки, ответственность, меры принуждения, наказание, уголовные санкции.

## PROBLEMS OF IMPROVING CRIMINAL LEGAL MEASURES AGAINST CORRUPTION

**Khojiev Ruzigul Khudayberdiyevna,**

Doctoral Student, Lecturer at Specialized branch  
of Tashkent State University of Law

**Abstract.** *This article discusses the concept of corruption, recent reforms in our country aimed at preventing corruption crimes, problems and shortcomings in their implementation. In addition, opinions were expressed on the measures provided by law for corruption crimes, in particular, criminal law measures: the essence of the concept and content, their correct order and grounds. In addition to the scientific-critical view of the author on the subject, the scientific and theoretical views of a number of our domestic and foreign lawyers were also studied. In the course of the study, it was found that there are shortcomings in the criminal legislation on liability for corruption offenses, the procedure for imposing penalties and other coercive measures, and in order to correct them, it is necessary to make some changes to the Criminal Code. On the basis of system analysis, the legislation of some developed foreign countries on the application of criminal law measures against corruption crimes was also studied, and taking the experience of foreign countries into account, a number of proposals were made to improve criminal legislation.*

**Keywords:** corruption, bribe, bribery, responsibility, coercive measures, punishment, criminal sanctions.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashda eng muhim ta'sir choralaridan yana biri, *jinoyat-huquqiy choralar bo'lib*, jinoyat-huquqiy ta'sir

chorasi Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida belgilab qo'yilgan qilmishlarni sodir qilgan shaxslarni tarbiyalash va ularda jinoyat sodir qilishdan pushaymonlik hissini uyg'otish, jinoyat sodir qilishni rejalashtirishdan tiyilib turishga majbur qiluvchi hamda jinoyat sodir qilinishining oldini olishga xizmat qiluvchi jinoyat-huquqiy vosita hisoblandi.

Bunda jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini bir qancha turlarga bo'lishimiz mumkin bo'lib, ular:

- muayyan qilmish uchun javobgarlik belgilash chorasi;
- muayyan jinoyatni sodir qilgan shaxslar uchun tegishli jazo tayinlash chorasi;
- muayyan jinoyatni sodir qilgan shaxslar uchun qo'llaniladigan boshqa majburlov choralari hisoblanadi.

Dastlab, muayyan qilmish uchun javobgarlik belgilash chorasi xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Jinoyat kodeksining 16-moddasiga binoan, jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

M. Usmonaliyevning fikricha, jinoiy javobgarlik shaxsning Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan qilmishning sodir qilganligi uchun shaxs va davlat o'rtasida vujudga keladigan jinoyat-huquqiy munosabatdir [1, 173-b.].

Muayyan qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilashda shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish uchun isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar majmuyi bo'lishi lozim bo'lib, bunda jinoiy javobgarlik asosini sodir qilingan qilmishda Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlarini, ya'ni obyektiv va subyektiv belgilarining bir vaqtda mavjud bo'lishi tashkil qiladi [2, 95-b.].

Bir so'z bilan aytganda, JKda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlarini mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Muayyan jinoyatni sodir qilgan shaxslar uchun tegishli jazo tayinlash esa JKning 42-moddasiga binoan, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasi hisoblanadi.

Bu xususda turli ilmiy-nazariy fikrlar ham mavjud bo'lib, M.X. Rustambayevning fikricha, jazo jinoyat qonunida belgilangan davlatning ommaga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan majburlov chorasidir [3, 139-b.].

X.R. Ochilovning fikricha, jazo shaxsni muayyan huquq va erkinliklardan ma'lum vaqt oralig'ida cheklashda ifodalanadigan, shaxsning sudlanganlik holatini keltirib chiqaradigan davlatning majburlov ta'sir chorasidir [4, 69-b.].

S.I. Dementevning fikriga ko'ra, jazo jinoyat sodir qilishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qonunda belgilangan tartibda muayyan huquqlardan mahrum bo'lishiga duchor qiladigan maxsus majburlov chorasidir [5, 45-b.].

9. Miruktamova F. Formation of an international legal concept of access to justice for minors. *Review of law sciences*, 2020, vol. 4, no. 1, p. 28.

10. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari [Criminal law and criminological problems of women's crime]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2006.

11. Miruktamova F. The concept and essence of juvenile law. *ProAcademy*, 2018, vol. 1, no.1, pp. 75–79.

12. Turabaeva Z.Y. Prevention and Prophylaxis of Youth Delinquency and Peculiarities of Appointing Punishment to Minors during a Pandemic. *Psychology and Education Journal*, 2021, vol. 58, no. 1, pp. 1043–1049.

13. Miruktamova F. Yuvenal'naya yustitsiya v pravovoy praktike nekotorykh zarubezhnykh stran [Juvenile justice in the legal practice of some foreign countries]. *Review of law sciences*, 2017, vol. 1, no. 1.

14. Altiyev R.S. Istoriya razvitiya zakonodatel'nykh aktov, predusmatrivayushchikh ugolovnuyu otvetstvennost' za moshennichestvo v ugolovnom zakonodatel'stve Respubliki Uzbekistan (retrospektivnyy analiz) [The history of the development of legislative acts providing for criminal liability for fraud in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan (retrospective analysis)]. *Zhurnal yuridicheskikh issledovaniy – Journal of Legal Studies*, 2019, vol. 4, no. 4, p. 40.

15. Turabaeva Z.Y. Prevention and Prophylaxis of Youth Delinquency and Peculiarities of Appointing Punishment to Minors during a Pandemic. *Psychology and Education Journal*, 2021, vol. 58, no. 1, pp. 1043–1049.

16. Kodiraliyev S., Tulaganova G. Rol' advokata v realizatsii prava na zashchitu i kvalifitsirovannuyu yuridicheskuyu pomoshch', ustanovlennogo Konstitutsiyey Respubliki Uzbekistan [The role of a lawyer in the implementation of the right to protection and qualified legal assistance, established by the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. *Review of law science*, 2020, vol. 1, no. spec. iss.

17. Turabaeva Z. Issues on enhancing the mechanisms of providing the execution of law documents by state bodies. *Review of law sciences*, 2018, vol. 2, no. 3, p. 30.



18. Rozimova K. Some features of improving the penal institution for several crimes in the criminal law of Uzbekistan in the fight against corruption. *Middle European Scientific Bulletin*, 2021, vol. 16.

19. Turabaeva Z. Prevention and prophylaxis of youth delinquency and peculiarities of imposing punishments on minors. *Review of law sciences*, 2020.

20. Turabaeva Z.Ya. Davlat boshqaruvi tushunchasi, tizimi va ahamiyati. Davlat boshqaruvi organlarining vazifalari va funksiyalari [The concept, system and importance of public administration. Tasks and functions of public administration bodies]. *Zhurnal pravovyx issledovaniy – Journal of Legal Studies*, 2020, no. Special 3.



UDC: 343(045)(575.1)

# JINOYAT HUQUQIDA XATO VA UNING KVALIFIKATSIYA QILISHDAGI O'RNINI HAMDA AHAMIYATI

**Masharifov Sirojbek Bahodirovich,**  
Xorazm viloyati yuridik texnikumi dekani,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0001-8559-9136  
e-mail: suroj.beck@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jinoyat huquqida nisbatan kam o'rganilgan xato tushunchasi turli xorijiy va mahalliy huquqshunos olimlarning fikrlari asosida muallifning tahliliy mulohazalari asosida o'rganilgan. Maqolada jinoyat huquqida xato uning kelib chiqishi va uning o'rganilishi muayyan turlarga bo'linishi uning nazariy va amaliy asoslari jinoiy huquqiy tahlil qilingan. Muallif o'z fikrida yuridik va faktik xato turlarini tahlil qilgan va bundan tashqari xato tushunchasini boshqa turlarga bo'linish asoslarini ham keltirib o'tadi va bunga jinoyat huquqi sohasidagi xorijiy va mahalliy mualliflarning fikrlarini keltirgan holda ilmiy munozaraga kirishgan. Bundan tashqari xato va uning shakllari haqidagi fikrlari bilan ilmiy mulohaza qilingan. Ularning fikrlari orqali yoritilgan tahlillar muallif tomonidan tanqidiy o'rganilgan va o'zining huquqiy yechimlari taklif qilgan. Xato tushunchasini jinoiy huquqiy jihatdan turkumlash bo'yicha ham muallif takliflarni keltirgan. Shu bilan bir qatorda jinoyat kodeksining ayrim moddalarini tahlil qilib uning takomillashtirish va noaniqliklarni bartaraf qilish bo'yicha ham asosli takliflar berilgan. Maqola keng ilmiy jinoyat huquqiy mulohazalarga ega va unda keltirilgan xulosalar o'rinli va kelajakda jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** xato, yuridik xato, faktik xato, obyekt, subyekt, kvalifikatsiya, tafakkur.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОШИБКИ В УГОЛОВНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ

**Машарифов Сирожбек Баходирович,**  
декан Хорезмского областного юридического техникума,  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье на основе аналитических взглядов автора, которые основаны на мнениях различных зарубежных и отечественных правоведов, исследовано относительно малоизученное в уголовном праве

понятие ошибки. В статье анализируются теоретические и практические основы ошибки в уголовном праве, ее происхождение и разделение на определенные виды при ее изучении. Автор анализирует виды юридических и фактических ошибок, высказывает собственную позицию, а также приводит основания деления понятия ошибки на другие виды и вступает в научную дискуссию, приводя мнения зарубежных и отечественных авторов в области уголовного права. В статье научно аргументированы взгляды ученых на ошибку и ее формы. Доводы и заключения были критически изучены автором и предложены собственные правовые решения. Автор также вносит предложения по криминальной классификации понятия ошибки. Также анализируются некоторые статьи Уголовного кодекса и даются обоснованные рекомендации по его совершенствованию и устранению неясностей. Статья имеет широкий спектр научных уголовно-правовых мнений, а ее выводы актуальны и послужат совершенствованию уголовного права в будущем.

**Ключевые слова:** ошибка, юридическая ошибка, фактическая ошибка, объект, субъект, квалификация, мышление.

## ERROR AND ITS ROLE AND SIGNIFICANCE IN CRIMINAL QUALIFICATION

**Masharifov Sirojbek Bahodirovich,**

Independent Researcher of Tashkent State University of Law, Dean of the  
Khorezm Regional Law College

**Abstract.** In this article, the concept of error, which is relatively little studied in criminal law, has been studied based on the author's analytical considerations taking the opinions of various foreign and local jurists into account. The article analyzes the theoretical and practical basis of the error in criminal law, its origin and the division of its study into certain types. The author analyzes the types of legal and factual errors by his opinion, and also cites the basis for dividing the concept of error into other types, and enters into a scientific debate, citing the views of foreign and domestic authors in the field of criminal law. Ideas have been scientifically reasoned with the author's views on an error and its forms. The analyses were critically studied by the author and legal solutions have been offered. The author also makes suggestions on the criminal classification of the concept of error. Some articles of the Criminal Code were investigated and recommendations for its improvement and elimination of uncertainties are made. The article has a wide range of scientific criminal law considerations, and its conclusions are relevant and will serve to improve criminal law in the future.

**Keywords:** error, legal error, factual error, object, subject, qualification, thinking.



## **Kirish**

So'nggi yillardagi sud, prokuratura va tergov amaliyoti materiallarini umumlashtirish shuni aniq ko'rsatmoqdaki, jinoyat ishlari bo'yicha jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichlarida qonun buzilishi bilan bog'liq ko'plab xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Kelajakda har doim ham sud tomonidan bu xatolar aniqlanmaydi va sud xatolariga aylanadi. Sut statistik ma'lumotlarga qaraganda Respublikadagi jinoyat sudlarida huquqbuzarliklar hodisasi yoki alomati yo'q bo'lganligi sababli ish yuritish tugallangan holatlar 2018-yilda 2430tani tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 4338tani [1] tashkil qilib. Deyarli bir baravarga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkichlarning oshib borayotganligi tergov va sudgacha bo'lgan davrda ba'zi muammolar borligidan dalolat beradi. Shu sababdan ham biz jinoyat huquqida jinoyatchi shaxsini tadqiq etib borishimiz lozim bo'ladi.

Jinoyat huquqida shaxsning o'zi sodir qilgan jinoyatga nisbatan ruhiy, aqliy holati muhim ahamiyatga ega. Bunda shaxsning harakat yoki harakatsizligining xususiyati va qilmishini to'g'ri tasavvur qilishi bilan bog'liq holatlar ham jinoiy huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi. Jinoyat qonunchiligi jinoyatlarga qarshi kurashishning eng asosiy manbasi hisoblanib, unda shaxsning qilmishini baholash qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsning holatini va qilmishga bo'lgan ruhiy, aqliy tasavvuri va tasavvurlarida yanglishmasligi ham shunchalik muhimdir. Muayyan harakatlarni (jumladan, jinoiy harakat yoki harakatsizliklarni) sodir etishda shaxsning xatosi bir qator fanlar doirasida muammo hisoblanadi. Ushbu yanglishish bilan sotsiologlar va psixologlar, faylasuflar va pedagoglar qiziqadi. Biroq, bu jinoyat huquqi uchun alohida ahamiyatga ega, chunki bu yerda shaxsning eng muhim manfaatlari, huquq va erkinliklari ta'sir qiladi.

## **Material va metodlar**

Jinoyat huquqi sohasi yetuk olimlarining mavzuga oid ilmiy qarashlari tahlillari natijalariga asoslanib, xato, yuridik va faktik xato hamda uning shakllarini ilmiy metodik jinoiy-huquqiy tahlil qilgan holda Jinoyat kodeksiga jinoiy-huquqiy xato va uning turlarini aks ettiruvchi jinoyatlarni ifoda etishga qaratilgan qo'shimchalarning kiritilishiga oid takliflar keltirilgan. Mavzuni o'rganish davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, statistik tahlil bilan bog'liq ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

## **Tadqiqot natijalari**

Tadqiqotning asosiy natijadorligi quyidagilarda ko'rinadi:

- 1) jinoyat huquqida xato tushunchasining faqat nazariy jihatdan emas, balki jinoyat qonunchiligida ham ifoda etilishi va bu orqali shaxsning qilmishini haqqoniy malakalash va adolatli jazo tayinlashga erishish;
- 2) xato turlarini tadqiq etish orqali uning turlarini chuqur o'rganish, uning eng muhim jihatlarini inobatga olish, uning shakl va turlarini kengaytirgan holda jinoyat huquqi nazariyasini boyitish.

## **Tadqiqot natijalari tahlili**

Shaxsning jinoyat sodir etishdagi xatosi aybning mazmuni, shakli, darajasi va hajmiga ta'sir qiladi. Shu sababli u har bir jinoyat ishini ko'rib chiqishda



subyektiv ayblov chegaralarini belgilaydi, qilmishning malakalanishini, jinoyat huquqining ko'plab institutlarining qo'llanilishini, jinoiy javobgarlik va jazo chegaralarini belgilaydi. Bunda shaxs o'zining sodir qilmoqchi bo'lgan qilmishiga nisbatan uning yuridik yoki faktik (obyektiv) holatiga nisbatan xato tasavvur qiladi. Bu holat uning jinoiyligini istisno qilmaydi, albatta. Ammo bu xato qilmishning baholanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi, shu sababdan ham jinoyat huquqida xato tushunchasi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Xatolik masalasi va uning ayb va jinoiy javobgarlikka ta'siri jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyoti tomonidan hal qilinadi. Jinoyat qonunchiligi jinoyat sodir qilish jarayonidagi xatoga to'xtalmaydi, ammo bu uning jinoiy huquqiy ahamiyatini kamaytirmaydi. Ammo bu holat xato haqida turli qarama-qarshi fikrlar kelib chiqishiga ham olib keladi. Shaxsning ijtimoiy ahamiyatga molik qilmishni sodir etganlikdagi aldanishiga huquqiy baho berish bilan bog'liq muammolar jinoyat huquqi fani uchun yangilik emas. Uning ayrim jihatlari, qoida tariqasida, jinoyatning subyektiv tomonini o'rganishda B.S. Volkov, P.S. Dagel, G.A. Zlobin, V.E.V. Luneev, A.V. Naumov, B.S. Nikiforov, K.F. Tixonov kabi olimlarning asarlarida ko'rib chiqilgan. So'nggi yillarda jinoyat qonunchiligidagi xatolar muammosiga qiziqish ortdi.

Jinoyat huquqi nazariyasida xato tushunchasida bir-biriga o'xshash turli izohlar uchraydi. Ba'zi olimlar xatoni shaxsning ishning haqiqiy va qonuniy belgilariga nisbatan aldanishi deb tushunadilar [2, 106], boshqalar buni shaxsning sodir etilgan qilmishning haqiqiy va huquqiy xususiyatlari yoki xususiyatlari va uning oqibatlarini to'g'risidagi noto'g'ri tushunchasi sifatida izohlaydilar [3, 449], boshqalar buni odamning xatti-harakatiga noto'g'ri baholashi sifatida belgilaydilar [4, 195]. Keltirilgan izohlardan xato tushunchasining turli xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, shaxsning o'z qilmishini qonuniy bahosini bilmaslik holati yoki shaxs sodir qilgan qilmishining huquqiy holatiga nisbatan xato qilishi sifatida talqin qilgan. Rus olimlarining izohlaridan biz quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin. Qilmish sodir qilish bosqichlari bo'yicha xatoni jinoiy maqsadga nisbatan xato, jinoyatni rejalashtirish bosqichidagi xato, bunda shaxs jinoyat obyektiga yoki jabrlanuvchiga yoki qilmishini jinoiyligiga nisbatan xato qilishi mumkin bo'ladi. Eng asosiysi bu jinoyat sodir qilish vaqtidagi xato bunda jinoiy maqsad amalga oshishi, oshmasligi uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari turlicha namoyon bo'ladi. Keyingi bosqichda jinoiy oqibatning kelib chiqishi va uning xususiyatiga nisbatan yangilish holatidir.

Xato tushunchasi to'g'risida mahalliy huquqshunos olimlarning fikrlarini ham ko'rib chiqamiz. Jumladan, Rustamboyev fikricha, "Xato – bu shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishini jinoyat sifatida ko'rsatuvchi obyektiv xususiyatlariga nisbatan yangilish yoki noto'g'ri tasavvur qilish, noto'g'ri baholash hisoblanadi [5, 221]". Ushbu izohda biz xato tushunchasining tafakkuriy belgi ekanligini anglashimiz mumkin. Ko'pchilik huquqiy manbalarda jinoyat qonunchiligidagi xatolik deganda, qonunni buzgan shaxs tomonidan uning harakatlari yoki harakatsizligi va ularning oqibatlarining haqiqiy yoki huquqiy mohiyatini noto'g'ri



baholashdir, degan izohlar uchraydi. Ushbu izoh, bizning fikrimicha, holatni to'liqroq ochib beradi.

Xato faqat qilmishni sodir qilgan shaxsning tasavvuri bilan bog'liq bo'lib qolmay, uning saviyasi bilan ham bog'liq bo'ladi. Ba'zi manbalarda xato kasbiy yoki faoliyat bilan bog'liq xatolar natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan jinoiy oqibatlarini keltiradi, bu ham xato tushunchasini keng qamrovli tushuncha ekanligini izohlaydi. Ba'zi hollarda, bu ma'lum bir jinoyatda ayblanayotgan shaxsning jazosiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun xatolar nima ekanligini aniq anglab yetish va ularni qilishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rish juda muhimdir. Xatoning chuqur izohini tahlil qilish orqali biz jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavfliligini aniqlashimiz mumkin bo'ladi. Jinoyat sodir etilganda, shaxs ongida uning huquqiy bahosi uchun muhim bo'lgan ayrim holatlar noto'g'ri aks etishi mumkin. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki odamlar odatda xato qiladilar. Biroq, muayyan jinoyat sodir etgan shaxsning aldanishi alohida qiziqish uyg'otadi, chunki bu uning aybi bilan, pirovardida, uning qilmishiga baho berish bilan bevosita bog'liqdir. Xatoning mavjudligi sodir etilgan qilmishning malakasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki u intellektual va irodaviy jarayonlarning mohiyati va mazmunini belgilaydigan jinoyatning subyektiv tomonining belgilari bilan qoplanadi.

Xato tushunchasi haqidagi boshqa mulohazalarni ham ko'rib chiqamiz. Xato deganda – shaxs o'zi sodir qilgan qilmishining yuridik va faktik holatlariga nisbatan adashishi tushuniladi [6, 44]. Ushbu izoh nisbatan sodda tahlildir. Bunda xatoning asosan ikkita yuridik, ya'ni huquqiy holati, qonunchilikdagi holati yuzasidan yanglishish bo'lsa, faktik xato, aniq vaziyatga uning belgilari xususiyatlari va voqea hodisani tushuna olmaslik natijasida yo'l qo'yiladigan xatolik hisoblanadi. Shu o'rinda mulohaza o'rnida, xatoning obyektiv va subyektiv tomondan tahlil qilamiz. Bizning fikrimizcha, obyektiv xatolik kvalifikatsiyaga ta'sir qilmasligi lozim. Bunda uning qilmishni sodir qilishga nisbatan qasdi yoki ehtiyotsizligi mavjud bo'lmaydi. Subyektiv xatolikda esa shaxsning holatni qilmishni yoki uning oqibatlarini aniq baholay olmaydi. Subyektiv xato esa shaxsning jinoiy qilmishni sodir qilishga bo'lgan xatosi, ammo bunda u, albatta, uning qilmishini ifodalaydi va uning xatosi ahamiyatga ega emas.

Bundan tashqari qilmishni sodir qilgan shaxsning holatga nisbatan jinoyat obyektiga nisbatan yanglishishi holati ham mavjud, bu holat uning jinoyatini istisno qilmaydi. Agar qilmish natijasida zararlangan obyekt jinoyat qonunining muhofaza obyekt bo'lsa, uning qilmishi, albatta, jinoyat sifatida e'tirof etilishi lozim. Ammo, yuqorida keltirgan kasbiy yoki mutaxassislik sohasiga oid xatosi tabiiy jarayon bo'lishi ham mumkin. Jinoyat qonunchiligi ilmiy texnikaviy yutuqlarga erishish uchun amalga oshirilgan asosli tavakkalchilik asosida kelib chiqqan jinoiy oqibat uning jinoyat ekanligini istisno qilgani kabi kasbiy jihatga xatoga yo'l qo'yish ham aslida jinoiylikni aynan qasd shaklini istisno qilishi lozim. Huquqshunoslar tomonidan beriladigan yanada kengroq ta'rifni keltiramiz. Xato – bu shaxsning sodir etilgan qilmishining ijtimoiy xavfliligi tabiati, mumkin bo'lgan oqibatlari va sabab-oqibat

munosabatlari, shuningdek ularning huquqiy bahosi to'g'risida noto'g'ri tushunchasi. Bunda biz qilmishni sodir qilgan shaxsning jinoyat sodir qilishni o'ylagan vaqtdan boshlab uning oqibati kelib chiqquncha bo'lgan bosqichlarini o'z ichiga olishini ko'rishimiz mumkin.

Yuridik lug'atda ta'rif berilishicha, xato shaxsning o'zi tomonidan sodir etilgan qilmish yoki oqibatlarining haqiqiy yuridik va faktik xususiyatini noto'g'ri tasavvur qilishidir [7, 539]. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xato deganda biz shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishning u yoki bu yuridik mohiyati yoki oqibatini "noto'g'ri baholash", "noto'g'ri tasavvur qilish", "yanglishish" tushunilishi lozim. Yuridik manbalarni xatoning xususiyati va qilmish sodir qilgan shaxsning qilmishiga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib bir nechta turlarga bo'lish amaliyoti mavjud. Jumladan, yuridik xato (error juris) deyilganda, sodir etilayotgan qilmishning yuridik mohiyati va oqibatlarining notog'ri baholanishi hamda tasavvur qilinishi tushuniladi [8, 102]. Ammo biz xatoni uning paydo bo'lishiga ko'ra ham tasniflashimiz mumkin.

Jinoyat huquqi nazariyasidan kelib chiqib xatoni: a) tashqi, obyektiv; b) ichki, subyektiv omillarga bog'liq bo'lgan xatolar kabi taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Jinoyat huquqi manbalarida xato turlarining o'zini ham turkumlash amaliyoti mavjud.

Jumladan, yuridik xato ham, o'z navbatida, uch xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

birinchidan, sodir etilayotgan qilmishning jinoyatligiga nisbatan yanglishish:

a) shaxs sodir etayotgan qilmishini jinoyat deb biladi, ammo qonunga asosan jinoyat hisoblanmaydi (bunda shaxs o'zini jinoyat sodir qilgan deb hisoblaydi va voqea joyidan yashirinadi yoki holatni yashirish maqsadida boshqa harakatlarni sodir qilish orqali, haqiqiy jinoyatga ham qo'l urib qo'yishi mumkin, ba'zi yuridik manbalarda bu xayoliy jinoyat sifatida ham izohlanadi);

b) shaxs sodir etayotgan qilmishini jinoyat deb bilmaydi, ammo qonun uni jinoyat deb belgilaydi (bunday holatda shaxsning ijtimoiy xavfliligi, jinoyatni ochish bilan bog'liq protsessual harakatlarga to'siq bo'lish holati kuzatilmaydi);

ikkinchidan, jazoning xususiyati bo'yicha yanglishish (jinoyat uchun tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo turi, muddati va miqdori haqida yanglishish);

uchinchidan, shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishni huquqiy baholashga nisbatan yanglishishi. Ya'ni subyektning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishni huquqiy baholashda yanglishuvi. Masalan, shaxs o'zganing mulkini zo'rlik ishlatmay ochiqdan ochiq talon-toraj qiladi (JK 166-m. 1-q.), ammo yashirin ravishda talon-toraj (JK 169-m.) qilyapman deb o'ylaydi. U huquqiy kvalifikatsiya qasd yoki ehtiyotsizlikning aqliy va irodaviy jihatlarini ifodalovchi holatlariga kirmaydi va shu bois ayb javobgarlikka ta'sir etmaydi. Bunday hollarda subyekt (uning fikricha) sodir etgan jinoyati uchun emas, balki haqiqatda sodir etilgan jinoyati uchun javobgarlikka tortiladi.

Shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishni huquqiy baholashga nisbatan yanglishuvi jinoyat qonuni jinoyat sodir etish natijasida kelib chiqishi



mumkin bo'lgan turli yuridik oqibatlarni va ularga nisbatan javobgarlikning tabaqalashtirilgan tizimini nazarda tutadi. Bundan kelib chiqqan holda javobgarlikning u yoki bu shakli yoxud boshqa yuridik oqibatlarni qo'llash uchun asos bo'luvchi belgilar haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lish bilan bog'liq turli xatolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, shaxs sodir etgan o'g'rilik uchun jinoyat qonuni shartli hukm qo'llashni nazarda tutishi haqida tasavvur qilib, xatolikka yo'l qo'yishi mumkin, biroq jinoyat qonuni o'g'rilik uchun ozodlikdan mahrum qilish yoki boshqa jazo turlarini ham belgilaydi. Shuningdek, aybdor tomonidan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, jabrlanuvchi bilan yarashish, kasalligi tufayli javobgarlikdan ozod qilinishini tasavvur qilib, jinoyat sodir etish holatlari ham bundan istisno emas. Shu bilan birga, shaxs tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolar javobgarlikka tortish muddatining o'tishi, sudlanganlik holatini bekor qilish, amnistiya aktini qo'llash va boshqa shu kabilarga ham taalluqli bo'lishi mumkin [9, 92]. Ko'rib chiqilgan turli ko'rinishdagi xatolar shaxs tomonidan sodir etilayotgan qilmishning dastlabki bosqichidayoq uning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi mumkinligini inobatga olgan holda javobgarlik va qilmishga huquqiy baho berishga ta'sir ko'rsatmaydi.

Yuridik xato mavjud bo'lganda, kvalifikatsiyaning umumiy qoidalariga ko'ra, u javobgarlikka ta'sir etmaydi, ya'ni shaxsning qilmishini yuridik xato mavjudligida kvalifikatsiya qilishda xato bo'lgan holda qilmish qanday kvalifikatsiya qilinsa, u bo'lmaganda ham shunday kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. Shunday ekan, sodir etilayotgan qilmishning yuridik mohiyati va yuridik oqibatlariga nisbatan yanglilayotgan shaxsning jinoiy javobgarligi subyektning bu qilmishini baholashiga emas, balki qonun hujjatlarida muvofiq kelib chiqadi. Yuridik xato shaxsning huquqiy ongi bilan ham bog'liq jarayondir. Huquqni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi, deb belgilangan umumiy tamoyil asosida yuridik xato uning aybsizligini ifodalamaydi. Ammo jinoyatchi shaxsini xavflilik darajasini belgilab beradi. Bu holat shaxsga tayinlanadigan jazoga ham ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Shaxs sodir etayotgan harakatlarini jinoyat deb hisoblamasa, biroq qonunga asosan bunday qilmishlar jinoyat deb topilsa, shaxsning bu kabi xatolikka yo'l qo'yishi qilmish natijasida qanday jinoiy oqibat kelib chiqqan bo'lsa, ushbu jinoyat tarkibi bilan baholanadi, chunki shaxsning sodir etayotgan qilmishiga noto'g'ri baho berishi uni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Qilmishga bu kabi huquqiy baho berilishi shaxsning qilmishni sodir etishdagi ruhiy holati ijtimoiy qimmatliklarga va uning ijtimoiy ahamiyatiga nisbatan salbiy munosabatdagi aybi bilan ifodalanadi [9, 90]. Masalan, tibbiyot birlashmasi ishchisi birlashmadan o'g'irlayapman deb o'ylab bitta harorat o'lchagichni uyiga olib ketadi. Biroq, qonun mazmuniga ko'ra mulk shaklidan qat'i nazar korxona, tashkilot yoki muassasaning mulkini ko'p miqdorda o'g'irlash jinoyat deb baholanadi. Bu kabi holatlarda shaxs o'z qilmishining jinoyat ekanligini anglamagan holda harakat qilgan bo'lsa-da, o'z harakatlarini ijtimoiy zararli ekanligini tushunadi. Bu holat esa shaxsning aybi bor ekanligini belgilaydi.



Agar shaxs o'z harakatlarini yanglishgan holda jinoyat deb o'ylasa va bunday holatlarni qonun jinoyat deb hisoblamasa, shaxsning qilmishi javobgarlikni nazarda tutmaydi. Masalan, shaxs, bank muassasasini chetlab oz miqdorda valyuta qimmatliklarini o'tkazib jinoyat sodir etyapman deb o'ylasa (JK 177-moddasining 1-qismiga asosan valyuta qimmatliklarini ancha miqdorda olish yoki o'tkazish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng bir yil mobaynida u takroran sodir etilgan taqdirda jinoiy javobgarlik nazarda tutiladi) ham bunday qilmish amaldagi jinoyat qonuniga asosan jinoyat deb topilmaydi. Shu sababdan ham shaxsning harakatlarini jinoyat sifatida etirof qilish uning subyektiv fikri bilan emas, jinoyat qonuni bilan belgilanadi.

Faktik xato – o'sha jinoyatning xususiyatlari va ijtimoiy xavfliligi darajasini belgilovchi obyektiv belgilarga tegishli holatlarni noto'g'ri tasavvur qilishdir. Ya'ni jinoyat predmetini noto'g'ri tushunish va noto'g'ri baholash; jinoyat obyektini noto'g'ri tasavvur qilish, harakat qilish yoki harakatsizlikning xususiyatlarini notog'ri tasavvur qilish kelib chiqqan oqibatning og'irligini, sababiy bog'lanishning rivojini og'irlashtiruvchi holatlarni noto'g'ri tasavvur qilishdan iboratdir [10, 222]. Ko'pincha, aql-idrokli odam o'z ongida atrofdagi obyektiv shakllangan vaziyatni va u qayerda harakat qilishini to'g'ri baholaydi. Ammo ba'zida odam nima qilganidan keyin qanday holatlar paydo bo'lishi to'g'risida noto'g'ri tushunchaga ega bo'ladi. Oddiy so'zlar bilan aytganda, shaxs xatoga yo'l qo'ydi va u huquqbuzarlikning barcha holatlarini noto'g'ri ifodalaydi va sodir etilgan narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini va jinoyatni sodir etish shartlarini noto'g'ri baholaydi.

Faktik xato tushunchasiga aniqroq izohni biz B. Matmuratovda quyidagicha ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, faktik xatoda shaxs sodir etgan qilmishining obyektiv belgilari, uning xavfliligi to'g'risida adashishidir. Bu xatolar jinoyatning obyekt va predmeti, jabrlanuvchining shaxsi, qilmishining xarakteri, jinoyatni sodir qilish usuli va foydalanilgan qurollar, sababiy bog'liqlik, javobgarlik darajasi va boshqa belgilari bo'yicha bo'lishi mumkin [11, 87]. Bunda shaxs taxsida yurib ketayotganda taksi haydovchisining sumkasini ichida pul bor deb o'ylab olib ketgan, tushib ochib qaraganida undan giyohvand modda borligini ko'rgan. Bunda uning qilmishi JKning 169-moddasi bo'yicha, agar sumkada narkotik modda borligini bilgan bo'lsa, 25–169-moddasi va 271-moddasi bilan uning qilmishi malakalanishi lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida faktik xatoning huquqiy asoslari nazarda tutilmagan. Bu asosan jinoyat huquqi nazariyasining tadqiqot objekti hisoblanadi. Jinoyat obyektiga nisbatan xato qilish tajovuz qilinayotgan obyektning ijtimoiy va yuridik mohiyati haqida noto'g'ri tasavvur qilishdir. Yuridik adabiyotlarda obyektga nisbatan xato ikkiga ajratiladi. Birinchidan, shaxs muayyan bir obyektga tajovuz qilmoqdaman deb o'ylaydi, aslida esa tajovuz subyekt o'ylaganidan boshqa obyektga nisbatan qilinadi. Masalan, subyekt dorixonadan giyohvand vositasini o'g'irlayapman deb o'ylaydi, aslida esa o'g'irlangan dori muayyan kasallikni davolash uchun mo'ljallangan dori bo'ladi. Bunday xatoga yo'l qo'yilganda qasdning yo'naltirilganiga qarab kvalifikatsiya qilinadi. Yuqorida keltirilgan misolda, shaxs shifobaxsh dorini





emas, balki giyohvand vositasini talon-toraj qilishga tajovuz qilganligi uchun javobgar qilinadi. Ammo bunda shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, subyektning qasdi bilan qamrab olinmagan obyekt bilan hisoblashmaslik mumkin emas. Bunday holda shaxsning subyektiv onggi bilan qamrab olinmagan jinoyat oxiriga yetkazilgan obyekt bo'yicha emas, balki aybdorni qasdi qaratilgan obyektga tajovuz qilishda, o'sha jinoyatni sodir qilishga suiqasd qilishda ayblab javobgar qilinadi [12, 225]. Bu vaziyatda qasdning jinoiy maqsadi qaratilgan obyektning xususiyatidan kelib chiqib qilmishni malakalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'pincha, aqli raso odam o'zining ongsizligida uni o'rab turgan obyektiv shakllangan vaziyatni va qayerda harakat qilayotganini to'g'ri baholaydi. Ammo ba'zida odamda uning qilgan ishi qanday holatlardan kelib chiqishi haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladi. Oddiy so'zlar bilan aytganda, shaxs xatoga yo'l qo'ydi va u jinoyatning barcha holatlarini noto'g'ri ifodalaydi va sodir etilgan ishning o'ziga xos xususiyatlarini va jinoyat sodir etish shartlarini noto'g'ri baholaydi. Qilmishning xavfliligi ko'plab holatlar bilan aniqlanar ekan, o'z navbatida, shaxs faktik xatosi ham ijtimoiy xavfliligi va sodir etilganlik darajasi hamda oqibatlarga nisbatan ham turli xil bo'lishi mumkin.

Faktik xatoning jinoiy-huquqiy mazmuni, jinoyatning qanday elementiga va uning ijtimoiy xavflilik xususiyatiga va oqibatiga nisbatan ta'siri shaxsda noto'g'ri bo'lishi, xato tasavvur qilish yoki baholashi bilan aniqlanadi. Predmetdan notog'ri tushunish va baholash orqali paydo bo'lgan tasavvurlardan kelib chiqib, faktik xatolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- sodir etilayotgan qilmishining ijtimoiy xavfliligiga nisbatan;
- tajovuz obyektiga nisbatan;
- yetkazilgan oqibatga nisbatan;
- sababiy bog'lanishga nisbatan;

– javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar [5, 223]. Ushbu bo'linish tugal emas, albatta. Rustamboyev tomonidan faktik xatoning yuqoridagi taqsimlangan turlarini qisqacha izohlaymiz. Sodir etilgan qilmishining ijtimoiy xavfliligiga nisbatan xatoda, shaxs o'z qilmishini jinoyat sifatida uning obyektiga nisbatan amalda xatoga yo'l qo'yadi. Ya'ni, shaxs muayyan qiymatga ega bo'lgan deb o'ylab o'g'irlagan obyekt qiymatga ega bo'lmaganligi uning qilmishini tugallanmaganligini anglatadi va uning qilmishi shu jinoyatni sodir etishga suiqasd sifatida malakalashga olib keladi. Yoki ba'zi jinoyatlar uning faqat qasddan sodir etilishini talab qiladi, bunday jinoyatlardan A ismli shaxs haqiqiy deb o'ylab qalbaki pulni o'tkazishini biz jinoyat sifatida qabul qila olmaymiz. Tajovuz obyektiga nisbatan xato qilmish sodir qilgan shaxsning jinoyat obyektiga nisbatan xato tasavvurga ega bo'lishida ko'rinadi. Ushbu xato aslida qasdning shakli bilan ham bog'liq bo'ladi, ya'ni qasd jinoyatchi tanlagan shaxsga qaratiladi, ammo u obyektini tanishda yoki unga jinoiy tajovuz qilishda xatoga yo'l qo'yadi. Bunda biz jinoyat predmetiga va jabrlanuvchiga nisbatan xato turlarini izohlashimiz mumkin bo'ladi. Ularning umumiyligi jinoyat obyektining belgisiga nisbatan shaxsning xatoga yo'l qo'yishi bilan belgilanadi. Bu jarayonda jinoyat predmeti va jabrlanuvchining

yaroqlilik masalasi ham kelib chiqadi, albatta. Bunda ayb jinoiy qasdga bog'liq bo'ladi va unga nisbatan qasd sifatida malakalanadi. Masalan, A ismli shaxs B ismli 16 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilyapman deb o'ylaydi, ammo B ismli shaxs 17 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs bo'lib chiqadi. Bunda ushbu qilmishni suiqasd sifatida malakalanishining ahamiyati asl tajovuz qaratilishi maqsad qilingan obyektning jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinishi bilan bog'liq bo'ladi. Yetkazilgan oqibatlarga nisbatan xato tushunchasini tahlil qilamiz. Bunda shaxs avvalo jinoyat sodir qilishidan oldin yetkazishi mumkin bolgan taxminiy zararni anglaydi. Ammo turli sabablar natijasida qilmishning amalga oshirilishi natijasida yetkazilgan zarar kamroq yoki jinoiy rejadan ham oshib ketishi mumkin. Bunday xatoning turli shakllarini keltirishimiz mumkin. Jumladan, sifat, hajm, miqdor ko'rsatkichlari kabi shakllarini keltirishimiz mumkin. Yetkazilgan oqibatning sifatiga nisbatan bo'lgan xato, shaxs tomonidan qilmishi natijasida kelib chiqishini ko'ra bilgan ijtimoiy xavfi katta oqibat faktik jihatdan yuzaga kelmasligi yoki oldindan ko'ra bilganidan boshqa yoki undan ortiqcha faktik oqibat yuzaga kelishida ifodalanadi. Aybdorning ijtimoiy xavfli qilmishi miqdoriga nisbatan xatoga yo'l qo'yishi – bu uning jinoyat og'irlik darajasida xato tasavvurga ega bo'lishida ko'rinadi. Bu vaziyatda yetkazilgan zarar miqdori alohida belgilab qo'yilgan jinoyatlardagina ahamiyatlidir va kvalifikatsiyaga ta'sir qilishi mumkin. Bu asosan iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarda uchraydi. Bunda shaxsning qilmishi og'irroq zarar yetkazganlik bo'yicha malakalanadi. Sababiy bog'lanishga nisbatan xato o'z-o'zidan sodir qilingan qilmish va kelib chiqqan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligini holatning izdan chiqishi natijasida xato tasavvur qilishida ko'rinadi. Bunda shaxs o'zi anglay olishi mumkin bo'lgan sababiy bog'lanishnigina anglay oladi aslida esa voqea rivoji unga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin.

Bundan tashqari shaxs doim ham qilmishining ustasi bo'lmaydi va bu, albatta, yanglish tasavvurga olib keladi. Agar aybdorning qasdi (niyati) bilan qamrab olingan oqibat kelib chiqqan bo'lsa, bunday holdagi xato subyekt aybining shakliga ta'sir qilmaydi [13, 185]. Ya'ni bunda shaxsning qilmishi qasdan yoki ehtiyotsizlikdan kelib chiqishi ahamiyatsizligi keltirilmoqda. Ammo, bizning fikrimizcha, jinoyatlarning tarkibiy turlarini inobatga olgan holda sababiy bog'anishga nisbatan xato ham aslida ayb shaklini taqozo qilishi mumkin. Masalan, kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida qasddan odam o'ldirish jinoyatida, shaxsning kuchli ruhiy hayajonlanishi natijasida qasddan odam o'ldirilishi uning o'ldirishga nisbatan bo'lgan harakati bilan bog'liq, agar bu harakat yetarli bo'lmasa yoki bu harakat boshqa uchinchi shaxsga nisbatan odam o'lishiga olib kelsa, uning qilmishi bu jinoyat tarkibini bermaydi. Rustambayevning jinoyat sodir etish vositasiga nisbatan xatoni ham to'rt guruhga bo'lgan. Bulardan vositaga nisbatan xato ishlatiladigan vosita har qanday holatda ham yaroqsiz bo'lib, buni subyekt o'ziga dalda berish maqsadida, o'zining ustunligini qo'pollikda va o'z-o'ziga ishonishda ishlatishda ifodalanadi, bunda jinoiy javobgarlik istisno etiladi [5, 230]. Aynan shu mulohaza, bizningcha, bahslidir. Ya'ni, bu holat aslida qandaydir jinoiy tazyiq yoki qo'rqitish xarakterida bo'lsa, javobgarlikni taqozo



qilishi lozim. Jinoyatni og'irlashtiruvchi holatga nisbatan xato bor holatlarni yo'q deb, yo'q holatlarni esa bor deb tasavvur qilishi natijasida vujudga keladi. Agar aybdor o'z qilmishida javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlar yo'q deb harakat qilgan bo'lsa, javobgarlik o'sha qilmishning o'zi uchun vujudga keladi [14, 104]. Masalan, homilador ayolni o'ldirgan shaxs ayolning homiladorligini haqiqatdan bilmagan bo'lsa, aybdorning qilmishi JKning 97-moddaning 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinmasligi lozim. Agarda aybdor shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda tajovuz qilinayotgan shaxsga zarar yetkazishi ham faktik xato hisoblanishi lozim. Bunda shaxsning qilmishi o'zi tajovuz qilmoqchi bo'lgan jinoyat obyektiga nisbatan suiqasd va faktik zarar ko'rgan obyektga nisbatan ehtiyotsizlik oqibatida zarar yetkazish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Bunda aynan shu jinoyatning qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida sodir qilinishining belgilab qo'yilganligi ham kvalifikatsiyaga ta'sir ko'rsatadi.

### **Xulosa**

Bu masalani jinoyat huquqida o'rganish, shuningdek xatoning mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va kelib chiqish sabablarini ochib berish qonun ustuvorligi va qonun ustuvorligini yanada mustahkamlash, shaxs manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishi bilan ham zarurdir.

Shu bilan birga, xato tushunchasining qonunchilikda mustahkamlanishi qonun ustuvorligini mustahkamlashga yordam beradi, huquqni muhofaza qilish organlariga jinoyat qonunchiligini qo'llashni osonlashtiradi va amaliyotda juda keng tarqalgan obyektiv ayblov holatlarini kamaytiradi.

***Yuqoridagi keltirilgan mulohazalarga asoslanib quyidagi takliflarni keltirmoqchimiz:***

1. Bizning fikrimizcha, xato tushunchasini subyektiv va obyektiv xato sifatida turkumlash orqali subyektiv xato kvalifikatsiyaga ta'sir qilmasligi va obyektiv xato esa qilmishni malakashga ta'sir qilishi lozim deb hisoblaymiz. Bunga sabab aslida subyektning qilmishi uning tasavvuri orqali baholanmaydi, u jinoyat qonuni orqali baholanadi.

2. Subyektiv, ya'ni yuridik xatoning shakllarini boyitish orqali jinoyat huquqida jinoyatchi shaxsini yanada chuqurroq o'rganish imkoni vujudga kelishini inobatga olib, uning irodaviy va tafakkuriy holatlarini tadqiq etish lozim bo'ladi.

3. Faktik xato (obyektiv yoki real) qilmishni malakalashda, albatta, inobatga olinadi. Ammo bunda bitta masalani unutmagan holda qilmishni kvalifikatsiya qilish lozim, ya'ni jinoiy maqsad uning natijasida vujudga keladigan jinoiy qasd. Jinoiy qasd qanchalik ijtimoiy xavfli bo'lsa, uni malakalash trayektoriyasi ham shu darajani qamrab olishi lozim bo'ladi. Bu qilmishning qasd yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilganlikni talab qiluvchi jinoyat turlarida ahamiyatlidir, albatta.

4. Jinoyat qonunchiligida faktik xato natijasida sodir bo'lgan jinoyatlar, asosan, ayb shaklini taqozo qilgani uchun, qasddan sodir qilinsagina, jinoyat sifatida qaraladigan qilmishlar doirasini kengaytirish lozim deb hisoblaymiz.

5. Jinoyat huquqi nazariyasida uzurli xato va aybli xato tushunchasini keng tadqiq qilish zarurati bor deb o'ylaymiz, bu tushuncha aslida jinoyat qonunchiligida qisqa

bayon qilinadi, zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat misolida, ammo, bu holat, bizning fikrimicha, yetarli tadqiq qilinishi lozim.

6. Eng muhim mulohaza sifatida qasd qanchalik xavfli bo'lmasin oqibatga nisbatan qilmishni baholash orqali unga tayinlanayotgan jazo shunga mutanosib bo'lishini ma'qul deb o'ylaymiz. Bunda shaxs o'zining qilmishini ijtimoiy xavfliligini anglaydi bu kvalifikatsiyada aks etadi, ammo jazo tayinlashda adolatlilik prinsipi asosida unga nisbatan oqibat yoki yetkazilgan zararining xususiyatidan kelib chiqib jazo tayinlash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bunga sabab biz yuridik xatoda shaxsning xato fikri orqali qilingan qilmishni kvalifikatsiya qilishda uning subyektiv fikridan emas, qonun talabidan kelib chiqamiz, nega endi faktik xatoda jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektga yetkazilgan real zarardan kelib chiqib jazo tayinlanmasligi kerak. Qonunchiligimiz bu jihatning inobatga olinganligi jinoyat qonunchiligini adolatli va insonparvar xususiyatidan dalolat beradi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi [Supreme Court of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://stat.sud.uz/file/2022/17-01/jinoyat-2021-12oy.pdf>. (accessed 17.01.2022)
2. Koptyakova L.I. Ponyatie oshibok v sovetskom ugolovnom prabe I ix klassifikatsiya [The concept of errors in Soviet criminal law and their classification] – V kn.: Problem prava, sotsialisticheskoy gosudarstvennosti I sotsialnogo upravleniya [Problems of law, socialist statehood and social management]. Sverdlovsk, Izd-vo Ural.un-ta, 1978, p.106.
3. Utevskiy B.S. Kurs sovetskogo ugolovnogo prava [Soviet criminal law course]. Izd-vo Leningr. Un-ta, 1968, p.449.
4. Rarog A.I. Ugolovnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. [Criminal law of the Russian Federation]. Общая часть. [A common part]. Moscow, Izd-vo Yurist, 1996, p.195.
5. M.H. Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqiy kursi. 1-Tom. [Criminal Law Course of the Republic of Uzbekistan. Tom 1. M.H. Rustambayev.]. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 221.
6. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) o'quv qo'llanma. X.R. Ochilov, SH.D. Xaydarov, Z.Z. Shamsidinovlar. [Criminal Law (General Part) Textbook]. Tashkent, 2021, p. 44.
7. Yuridicheskiy slovar. [Law Dictionary]. Pod red. A.N. Arziliyana. Moscow, Institut noviy ekonomika [Institute of New Economics], 2007, p. 539.
8. X. Ochilov. Jinoyat huquqi (umumiy qism) [Criminal law (general part)]. Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik [Textbook for law students]. Tasheknt, TSUL Publishing House, 2021, p. 102.
9. R. Kabulov, A.A. Otajonov, I.A. Sottiyev. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish [Qualification of crimes]. – Textbook for higher education institutions of the Ministry



of Internal Affairs, Academy of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, 2012, p 90–92.

10. M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. [Criminal law (General section). Textbook]. “Yangi avlod” nashriyoti. Tashkent, 2005, p. 222.

11. B. Matmuratov. Jinoyat tarkibi bo'yicha kvalifikatsiya qilish masalalari. [Issues of criminal qualification. B.Matmuratov]. Lesson press. Tashkent, 2019, p. 87.

12. M. Usmonaliyev, P. Bakunov Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. [Criminal law (General section). Textbook]. “Nasaf” nashriyoti. Tashkent, 2010, p. 225.

13. M.H. Rustamboyev, Jinoyat huquqi. [Criminal law. Textbook.] Tashkent, TDYU, 2006, p. 185.

14. M.Usmonaliyev. Jinoyat tarkibi. [Criminal structure]. Tashkent, 2008, p. 104



# KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

1 / 2022

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOSH MUHARRIR:**

Q. Abdurasulova

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish” kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR:**

Y. Kolenko

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi boshlig'i

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

N. Salayev

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

**Mas'ul muharrir:** K. Hakimov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva, F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1386.

Jurnal 2022-yil 11-mayda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 11,76 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 17.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti